

74.
- 91

D'JAGELDIYEVA MAHFUZA ERGASH QIZI

MUSIQA O'QITISH METODIKASI



1
mud

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XO'JAGELDIYEVA MAHFUZA ERGASH QIZI

MUSIQA O'QITISH METODIKASI

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan
60111300-Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
"INNOVATSIYA-ZIYO"
2023

UDK:37.013
KBK:74.268.43
X 11

Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi
Musiqqa o'qitish metodikasi [Matn]: o'quv qo'llanma.
- Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2023. - 160 b.

Mazkur o'quv qo'llanma musiqqa ta'lim bakalavriyat ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan Musiqqa o'qitish metodikasi fanining asosida tuzilgan. O'quv qo'llanma fanning ma'ruza qismini tashkil etgan.

"Musiqqa o'qitish metodikasi" (I-qism) o'quv qo'llanmaning dastabki qismi bo'lib, unda III-bob va ushbu boblarga doir mavzulardan tashkil etadi. Qo'llanma talabalarni ilmiy, ilmiy-nazariy bilimlar majmuasi bilan tanishtirib, ularda uslubiy ko'nikma hamda malakalami tarkib toptirishda yaqindan yordam beradi.

Taqrizchilar:

Sadatov Chori
Xolmurodovich

- Termiz davlat Pedagogika instituti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrasi mudiri, dotsent

Murotova Saboxat
Choriyevna

- Termiz Davlat universiteti Musiqqa
ta'limi kafedrasi o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-9902-8-1

© Xo'jageldiyeva M. E., 2023.
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2023.

KIRISH

Kishilik jamiyati taraqqiyotining o'ziga xos bosqichi bo'lgan bozor iqtisodiyoti har bir mutaxassisdan puxta bilim, yuksak kasbiy tayyorjarlikka ega bo'lishni talab etmoqda. Zero, kuchli raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzilmaning bu shaklida mutaxassislarning kasbiy salohiyati va mahorati ular tomonidan tashkil etiladigan faoliyat samaradorligini ta'minlovchi muhim omil sanaladi. O'zbekiston Respublikasining "2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Ta'lim to'g'risida"gi (23.09.2020-yil) qonuni hayotga tadbiiq etish - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu dasturiy hujjatlarda kadrlarning mamlakatimizni iqtisodiy ravnaq topishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi hisobga olingan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartini joriy etilishi o'rta umumta'lim maktab o'qituvchilari zimmasiga qator muhim vazifalarni yuklamoqda. Shu bilan birga, umumta'lim maktablarda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham o'z navbatida, oliy ta'lim tizimida ta'lim oladigan bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablarga muvofiq tayyorlash, maktab o'qituvchilarini esa malakasini oshirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Yurtimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarning yuqorida keltirilgan ehtiyojlari pedagogik ta'limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etadi. Xususan, musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining kasbiy saviya va malakasini oshirish mazmuni hamda shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat yagona, yaxlit tizimda shubhasiz oliy ta'lim muassasalari alohida o'rin tutadi. Binobarin, uzluksiz ta'lim tizimining aynan bu bosqichida bo'lajak mutaxassislar ixtisoslik fanlari asoslarini ham nazariy, ham amaliy

36631 yil

Jihatdan puxta o'zlashtirish imkoniyatiga egadirlar. Shunga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarni samarali tayyorlashda bu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, ixtisoslik fanlari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. "Musiqqa o'qitish metodikasi" (I-qism) nomi bilan yuritiladigan o'quv qo'llanmaning maqsadi bo'lajak musiqqa o'qituvchilarini musiqaviy- nazariy va amaliy faoliyatini yanada rivojlantirishdan iboratdir. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi:

-maktabda musiqqa ta'limi va tarbiyasi mazmunini, tashkil qilish, turli shakl va metodlar haqida asosiy ma'lumotlar berish;

-maktabda amalga oshiriladigan musiqqa ta'limi va tarbiyasi bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish hamda umumlashtirish;

-musiqiy asarlarning badiiy-pedagogik tahliliy metodikasi asoslarini berish;

-o'quvchilarni musiqqa san'ati materiallari asosida o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalarida musiqqa o'qitish metodikasi fanini o'rganishda pedagogika, psixologiya va boshqa predmetlardan olingan bilimlarga tayaniladi. "Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayonining mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Musiqqa o'qitish metodikasi fanining asosiy yo'nalish va uslublaridan biri-buyuk kompozitorlarning o'ziga xos ijod yo'li haqida bilimlar berish, o'quvchilarning musiqiy didini tarbiyalash, ularning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga

Mazkur o'quv qo'llanmada "Musiqqa o'qitish metodikasi" fani bo'yicha tashkil etiladigan ma'ruza mashg'ulotlarining ishlanmalari berilgan bo'lib, ular talabalar muayyan mavzularda fan asoslarini puxta o'zlashtirishlariga yordam beradi O'quv qo'llanma DTS o'quv dasturlarida ko'rsatilgan me'yor va talablar asosida yozilgan bo'lib, musiqqa madaniyati darslarini o'tishga doir metodik tavsiyalar berib borilgan.

Muallif

I BOB. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "MUSIQA MADANIYATI" FANI O'QITILISHINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari

Tayanch tushunchalar: Metodika, metod, texnologiya, fanning maqsadi, fanning vazifasi, fan kompetenstyalari, fanning asosiy tushunchalari.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan. Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng qamrovli yangilanishlari va ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" nomli asarida ta'lim haqida xususan yoshlar faoliyatlari haqida shunday deydi: "Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun bundan keyin hamma resurs va imkoniyatlarimizni keng safarbar etamiz. Biz uchun bu borada mayda masalaning o'zi yo'q".¹

Millatimiz ertasi bo'lgan yosh avlodning komil etib tarbiyalashda, uning ma'naviy olamini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rni beqiyos. Musiqa san'ati – milliy qadriyatlar asosidagi nafis san'at, u fan, u xalq dardi, tili, dini, ma'naviy madaniy, ma'rifiy tadbirlar mazmuni tarbiyaviy ahamiyati teran anglashga yordam beruvchi vositadir. Jamiyatimizning taraqqiyot bosqichida yoshlarimizning shaxs sifatidagi ma'naviy-ma'rifiy, madaniyatini shakllantirish dolzarb muommodir.

Zamonaviy ilm-fanning shu kunda erishilgan yutuqlari bilan birga hududimiz o'qituvchi va pedagoglarining kasbiy kompetentlik darajasidan kelib chiqib, jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda, hududimizga mos bilim berish nazariya va usullarni yaratish

¹ Sh.M.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Toshkent "Nashriyot uyi tasvir"-2021-yil.

maqsad qilib qo'yilgan. Chunki xalqimizning kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchiga unung salohiyatiga, kasbiy tayyorgarligiga, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish faoliyatiga bog'liq. Yosh avlodni bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli, odobli, e'tiqodli, barkamol inson qilib voyaga yetkazish, o'qituvchi zimmasiga asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, milliy istiqlol g'oyasi, informatika, yangi pedagogik texnologiya, musiqa san'atiga oid fanlarni o'qitish imkoniyatlari yanada kengaytirilgan. Zamonaviy talab va metodlar asosida, umumkasbiy fanlar bo'yicha dastur hamda o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratilgan. Uzlüksiz ta'lim-tarbiya tizimi, yosh avlodni sog'lom va barkamol inson bo'lib voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni amalga oshirish uchun o'quv mashg'ulotlari va dars jarayonini olib boirish qobiliyatini o'qituvchilar o'zlarida paydo qilishlari uchun ta'lim nazariyasi bilan birga o'qitishning zamonaviy usullarini egallab, ularni pedagogik amaliyotda qo'llash ko'nikmasini hosil qilishlari zarur. O'qituvchi "Pedagogik texnologiya" jarayonining asl mohiyatiga har bir mashg'ulotning loyihasini tuza olishi va bu loyihalardan pedagogik amaliyotda mohirona foydalana olishlari kerak. Shu bilan birga o'z ma'naviyati ustida tinmay ishlash ko'nikmasini hosil qilish kerak. Yevropa va Sharq kompozitorlarining muntoz asarlari bilan tanishib, "Musiqa madaniyati" darslarini sifatli va samarali olib borish uchun intilishi lozim.

Musiqa o'qitish metodikasi – musiqa san'ati vositasida bola shaxsini maqsadga yo'naltirgan holda unda musiqa madaniyatini shakllantirish yo'llarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasi didaktik va xususiy printsiplar, usul, vosita va metodlar yordamida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish hamda uning umumiy va xususiy vazifalarini hal etish yo'llarini belgilaydi. Umumiy vazifalarga - musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchini ko'rsatish, o'quvchilarda musiqaga bo'lgan muhabbatni, ehtiyojni o'stirish, musiqa tinglash jarayonini tashkil etish, musiqa madaniyatini shakllantirish va hokazo masalalar kiradi. Xususiy vazifalarga esa qo'shiq o'rgatish usullari, ovoz diapozonini mustahkamlash va kegaytirishga yordam beruvchi mashqlarni tavsifiya etish, musiqa idrokimi, tinglash qobiliyatini rivojlantirish,

musiqa savodini egallash bosqichlarini belgilash va hokazo masalalar kiradi. Musiqa o'qitish metodikasi pedagogika-psixologiya fanlarining turli sohalar bilan uzvly bog'liq. Bu esa hayotimizda jamiyat oldida turgan vazifalar, umumta'lim maktablari va o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maktabda musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi.

"Musiqa o'qitish metodikasi" fani birdaniga shakllangan fan emas, balki o'z tarixiy, tarqiyot yo'liga ega bo'lgan fan. O'zbekistonda, metodika fani shakllanishiga buyuk mutafakkirlar, olimlar, ilg'or tajribali o'qituvchilar, metodistlar, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari, izlanishlari, tajriba-sinov ishlari, risolalari, fikrlari, o'quv dasturlari va darsliklarini yaratib o'z hissalarini qo'shganlar.

"**Metodika**" so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi. Metodika – pedagogika fanining bir sohasi bo'lib, turli predmetlarni o'qitish uslubiyatidir. Qisqacha qilib aytganda metodika – bu uslub, keng ma'noda – ta'limot. Metodika o'z oldida turgan muammolarni hal etishda ham psixologiyaga tayanadi. Masalan, musiqa idroki, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bola ruhiyati, ongi, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri qonuniyatlari, uning ko'rinishlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarga, musiqiy qobiliyat, inson faoliyati nima ekanligi xususidagi tushunchalarga ega bo'lish shart. Musiqa o'qitish metodikasi umumiy ta'limning murakkab va ko'pqirrali maqsadlarini hamda musiqa ta'lim-tarbiyasi vazifalarini samarali hal etish uchun pedagogika va psixologiya fanlari bilan bir qatorda musiqashunoslik ilmi va musiqa ijrochiligi sohalariga ham tayanadi.

Metodikasi – o'qitishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish uchun qo'llaniladigan shakl, metod, vosita va usullar to'plami, yig'indisi? Ya'ni, tegishli faoliyatni tashkil etishda uning tashkiliy shakli, metod, vosita va usullari birgalikda, yaxlit holatda qo'llaniladi. Shuningdek, bir tomondan o'rganilayotgan fanda

² O'Asqarova, M., Nishonov - "Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi" Toshkent-

erishilgan yutuqlar, ikkinchi toniondan, pedagogika fanining rivojlanishi bilan boyib boradi, rivojlanadi.

Demak, o'qitish metodikasi:

- 1) pedagogning o'qitish usullari va talabning o'qish usullari hamda talabning talabalar bilan o'zaro bog'lanishini;
- 2) pedagog va talabalar hamkorligi asosida belgilangan maqsadga yetish, ta'lim vazifalarini hal etishda o'qitish shakli, metod, vosita, usul va texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan faoliyatidir.

"Metodika" tushunchasiga berilgan xilma-xil ta'riflarga tayangan holda quyidagi umumlashmalarga kelish mumkin:

- 1) o'qituvchi ishini tashkil etishning shakli, metod va vositalari;
- 2) ma'lum bir faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metod va usullar yig'indisi;
- 3) bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish, rejali va tizimli amalga oshirishga yordam beruvchi usullar yig'indisi;
- 4) ma'lum maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni amalga oshirish chora-tadbiri; pedagogik jarayonda real qo'llaniladigan usul va vositalar mohiyati, ahamiyati, amaliy qiymati, texnik jihatlarni ochib berish algoritmi; ta'lim metodlari to'g'risidagi fan³.

Pedagogik manbalarda "metodika" tushunchasi "texnologiya", "metod" atamalari bilan sinonim sifatida ham qo'llaniladi. Biroq, metodika texnologiya va metoddan muayyan jihatlarga ko'ra farqlanadi. Masalan: metodikaning metoddan farqi ta'lim jarayonida hal qilinayotgan vazifalar, qo'llanilayotgan usullarning yanada aniqligida, texnologiyadan farqi esa pedagogik (ta'limiy va tarbiyaviy) faoliyatning bevosita loyiha yordamida tashkil etilmasligi, ya'ni har bir pedagogik harakat mohiyatining bosqichma-bosqich ochib berilishi shart emasligida ko'rinadi. Ta'lim jarayonida testdan foydalanish - metod, test metodini qo'llash shartlarini asoslash, testni ishlab chiqish, uning

³ O'Asqarova, X.Rahmatova, M.Usmonboyeva, F.Asqarova "Pedagogika. Qisqa izohli lug'at" Toshkent: 2014

natijalarini tahlil qilish mezonlarining belgilanishi - metodika hisoblanadi.

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga

quyidagilar kiradi:

- hayot bilan uyg'unlik;
- qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik;
- aniqlik;
- rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik;
- asoslanganlik;
- natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida:

- ta'limning maqsad va ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy vazifalarini;

- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;

- ta'lim mazmunini;

- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;

- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;

- o'quv vositalari;

- o'qitish natijasini aks ettiradi

Musiqa o'qitish metodikasi fanining **asosiy tushunchalari** "tarbiya-ta'lim" - "rivojlantirish" va ularning o'zaro bog'liqligidir.

Tarbiya - Pedagogikada tarbiya deganda holalar, o'smirlar, yoshlarning jismoniy, ma'naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi. Hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog'liqligi, uning musiqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining hayotiy qarashlariga bog'liqligi musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o'quvchida axloqiy, aqliy, estetik jismoniy sifatlar tarkib topadi.

Ta'lim - bilimlar majmuasini o'zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta'lim o'quvchilarni turli musiqiy faoliyatga o'rgatish, musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmalar berish va bu bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish jarayonidir.

Rivojlantirish - eng oddiy, sodda musiqiylik ko'rinishlaridan murakkablariga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda,

musiqiy qobiliyatning o'sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil qiladi.

O'quvchilarga musiqiy ta'lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlaridir.

"Musiqqa o'qitish metodikasi" kursining fan sifatida **maqsadi** talabalarni bo'lajak musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish hamda metodlar bilish ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish. Musiqqa o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishda qo'llagan ish uslublari tushiniladi. "Musiqqa o'qitish metodikasi" kursining asosiy **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- ta'lim tizimida shaxs madaniyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;
- ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablarni o'rganish;
- metodik ishlanmalar, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, kompyuter, slyayd, disklar, magnet tasmlardan foydalana bilish,
- har bir sinfni yoshiga mos ravishda musiqa o'qitish metodlari va usullarini tanlab qo'llash;
- kelajak avlodning musiqiy madaniyati va ma'naviyatini musiqa vositasi orqali shakllantirish;
- sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiyani shakllantirish va uni tashkil etish uslublarini o'rganish;
- pedagogik amaliyotda tajriba sinov ishlarini o'tkazish;
- xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini o'rganish;
- o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etish;
- talabalarni mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. "Metodika" so'zi qanday ma'noni anglatadi va uning asosiy maqsadi nima?

2. Metodika, metod va texnologiya tushunchalarining bir-biridan faqrlari?

3. Musiqqa o'qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari nechta va ular qaysilar?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. "Musiqqa o'qitish metodikasi" fanining fan sifatida maqsadi nimadan iborat?

- a. talabalarda musiqiy nazariy bilimlarni shakllantirish
- b. talabalarni bo'lajak musiqa o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahorat bilan qurollantirish
- c. talabalarni kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish

2. Musiqqa o'qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari qaysilar?

- a. Ta'lim, tarbiya, rivojlantirish.
- b. Ta'limiy, tarbiyaviy, o'z-o'zini shakllantiruvchi.
- c. Ta'lim, shakllantirish, rivojlantirish

3. Metod so'zining ma'nosi?

- a. inglizcha "metodis" - yo'l, usul.
- b. yun. "metodos" - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot
- c. forscha "metodiz" - nazorat, boshqaruv

4. O'qitish metodikasiga qo'yiladigan talabalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

- a. hayot bilan uyg'unlik, qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik, aniqlik.

b. rejalashtirilgan harakat maqsad va vazifalariga moslik, asoslanganlik, natijaviylik.

- c. a va b javoblar to'g'ri

5. Musiqqa o'qitish metodikasi fani asosida qaysi fan o'qitiladi?

- a. Umum ta'lim maktabi "Texnologiya" fani
- b. Umum ta'lim maktabi "Tasviriy san'at" fani
- c. Umum ta'lim maktabi "Musiqqa madaniyati" fani

1.2 Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli

Tayanch tushunchalar: *Musiqa san'ati, musiqiy tarbiya, sharh mutafakkirlarining musiqa ilmi haqida fikrlari, g'arb mutafakkirlarining musiqa ilmi haqida fikrlari, art terapiya, musiqiy terapiya,*

Jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi ularning qobiliyati, ilmiy salohiyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Kelajagimiz poydevori bilim dargohida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq" deb ta'kidlaydi.⁴ Darhaqiqat, maktab jamoasi o'quvchiga bilim berish, uni shaxs sifatida kamol topib voyaga yetishga katta xizmat qilishi bilan birga ularni musiqa va musiqa san'ati olamiga olib kiradi, go'zallikka bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oila, jamiyat, maktab, san'atning ahamiyati katta. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari xamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida etirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida xam qo'shiq va musiqa ularga xamrox bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir xoldir. Bularning

barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muxim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha yomonga, mexr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda xam shu dolzarbligini yo'qotmagan xolda mustaqillikka, mexnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qismlaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa - inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kiradi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi.

Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan, ma'naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shinishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat, shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlaridan biridir. Bu olijanob maqsadga erishishda musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: "Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zeroki, ritm va garmonya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi".

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. "Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi". Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Forobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda

⁴ I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yangilmas kuch" Toshkent, "Ma'naviyat" 2008.

bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir"⁵.

Buyuk mutafakkirlardan Abu Nasr al Forobiyning fikricha, "Musiqqa - nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir". "Kimki ilim, hikmat o'rganmoqchi bo'lsa, avvalo o'zi ma'naviy barkamollikka erishmog'i lozim" degan edi. Musiqani idrok etish, uning ruhiyatiga ta'sirini ifodalash hazrat Alisher Navoiy musiqiy merosida ham alohida o'rin egallaydi. Hazrat Alisher Navoiy ham musiqani inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi omil ekanligini yuksak baholagan hamda musiqqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday degan edi: "Musiqqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi", yana shunday deydi: Kishi musiqani idrok etar ekan ko'ngil xush ohangdan quvvat, ruh esa xush ozuqdan ozuqa oladi". Demak, Sharq mutafakkirlari ijodiy merosida yosh avlod musiqqa tarbiyasi idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga doim ilg'or g'oyalarni ko'plab uchratish mumkin. Davrlar o'tib bu fikrg'oyalari boy tajribalar, ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish muammolari musiqashunos pedagog olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Musiqqa insonning ruhiyatiga tasiri uning psixologik tomondan o'rganilishini taqozo qiladi. Musiqqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antik davr faylasuflari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning evritmiya ta'limotida shu haqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma'lum bir cholg'uni chalganidek, hayotda har bir insonning o'z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g'azab va boshqa noxushliklarga qarshi musiqqa farq qilingan.

⁵ T. Ortiqov "Musiqqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Muharrir" Toshkent 2010

Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni Yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqqa kerak deb hisoblaganlar Aristotel' (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel' insonning ichki olami va unga san'at yordamida ta'sir o'tkazish usullarini ochib bergan mimesis ta'limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «katarsis» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, qadim Yunon tragediyalari tomoshabin ko'nglini xastalik jazavalaridan tozalagan.

Chuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o'zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko'tariladi. Aristotel psixikani o'zgartiradigan musiqiy lادلarni batafsil tasvirlab bergan. Bir laddagi musiqqa kishini rahmdil va muloyim qilib qo'yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, doriy, frigiya, lidiy lادلaridagi musiqqa kishining ruhi va sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, boshqa lادلarda yozilgan musiqam esa yosh avlod qulog'iga etkazmaslik tavsiya etilgan. Shunday tavsiyalar musiqqa cholg'ulari bo'yicha ham ishlab chiqilgan. Qadimgi Yunonlar savodsiz odamni «axareutos» deyishgan, bu kuylash, raqs tushish, cholg'u chalishni, demakki, «xorey»da ishtirok etishga yaroqsiz bo'lgan odamni anglatgan. Qadimgi Yunoniston shahridagi aholini yaxlit birlashtiruvchi musiqiy-xoreografik harakat «xorey» deb nomlangan. Demokrit, Platon kabi antik davr mualliflarining ko'pchiligi musiqaning inson ruhiy holatiga ta'sir qilishi haqida ko'plab dalillar keltirgan: Odisseya haqidagi eposda musiqqa ta'sirida qontalash yaraning bitib ketishi tasvirlangan, hayotda juda qaharli bo'lgan Sparta hukmdori Likurg o'z qo'shinlari uchun musiqqa yaratgan. Qadimgi Xitoyda musiqqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblangan va o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Ma'lumki, Konfusiyning o'zi (er. avv. VI asr) sin degan musiqqa cholg'usida chala o'lgan.

Hindistonda qadimgi shifokorlar musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan. Bu muolaja musiqa terapiyasi deb ataladi hamda sog'lomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa musiqiy psixoterapiyada o'rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo'ljallangan musiqa tavsiya etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o'rganilmagan, negaki u ham medisina, ham musiqa sohalari bo'yicha jiddiy bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Biroq buyuk mutaffakir-olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Musiqaning inson salomatligi, emosional holatiga ta'sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta'siri - tibbiyotda ham, musiqa ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir.⁶

Musiqiy terapiya mijozlarning hayot sifatini yaxshilash uchun musiqiy aralashuvlardan dalillarga asoslangan klinik foydalanish. Musiqasi terapiyasi bu kuylar va ritmlar orqali o'z bemorlariga ifoda etish, muloqot qilish yoki o'rganishni yoqtirish uchun olib boriladigan jarayondir. Musiqiy terapevtlar musiqa va uning ko'p qirralarini - jismoniy, kognitiv, hissiy, psixologik, ijtimoiy, estetik va ma'naviy, mijozlarga bilimlarini faollashtirish, vosita, hissiy, kommunikativ, ijtimoiy, hissiy va ta'lim sohalarida yordam berish uchun foydalanadi.

Musiqaning inson organizmiga ta'siri va uning davolovchi xususiyatlarini qadimgi Hindiston, Xitoy hamda Misrda miloddan avvalgi 500-yillar oralig'ida o'rganila boshlagan. Qadimgi Yunonistonda musiqa bilan davolash haqidagi ilk tushunchalarni Pifagor, Platon va Aristotel ta'limotlarida uchratishimiz mumkin. Musiqaning inson aqliy faoliyati va jismoniy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlarni birinchilardan bo'lib yunon olimi va faylasufi Pifagor o'z asarlarida aytib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra "agar kimdir go'zal ritm va qo'shiqlarni tinglasa, bunday kishi musiqa ta'limini ohang va ritmlardan boshlaydi, uning axloqi va ehtirolari davolanadi va dastlabki uyg'unlik paydo bo'ladi, ruhiyati mustahkamlashadi".

⁶ R.C. Qodirov. "Musiqasi psixologiyasi" o'quv qo'llanma Toshkent "Musiqasi" 2005-yil.

Qadimgi yunonlar musiqani tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlovchi kuch sifatida baholaganlar va musiqa inson ruhini tarbiyalaydi degan ilk farazlar aynan Qadimgi yunonlarda mavjud edi. Bu borada Pifagordan keyin Platon va Aristotel musiqaning to'rt kuchini aniqlab beradi.

1. Hissiyotlarni harakatga keltirish
2. Quvonch berish
3. Axloqiy fazilatlariga moyillik
4. Intelektual rivojlantirish

Turk dunyosida ruhiy kasalliklarni musiqa bilan davolash islom dinining tug'ilishi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Musiqasi va tibbiyot mavzusiga qiziqishning ortishi aynan shu vaqtdan boshlangan. Masalan, o'sha davrdagi buyuk fizik Ibn alXaysam o'z faoliyatini shifokorlikdan boshlagan va musiqaning odamlar va hayvonlarga ta'sirini o'rgangan. Bu davrda yashab ijod qilgan Ar-Roziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino kabi sharq allomalari musiqa orqali insonlarda uchraydigan ruhiy kasalliklarni davolash mumkinligini ilmiy asoslab bergan. Abu Nasr Farobiy o'zining "Musiqasi haqida katta kitob" nomli ilmiy asarida musiqaning astronomiya bilan aloqasini ko'rsatishga harakat qilgan. O'sha davrda sharq musiqa durdonasi hisoblangan maqomlardan musiqa bilan davolashda ham foydalanilgan. Farobiy maqomlarning inson ruhiy holatiga ta'sirini, shuningdek, bu ta'sirning kun vaqtiga qarab amal qilishini aniqlagan. Masalan, Farobiy tadqiqotiga ko'ra:

Rost maqomi - bemorga quvonch keltiradi. Ertalab quyosh chiqqandan so'ng 40-50 daqiqa, kechqurun esa quyosh botishidan 40-50 daqiqa oldin ijobiy ta'sir qilgan. Rohaviy maqomi - insonda abadiylik tuyg'usini jonlantiradi va erta tongda tinglash samara beradi. Isfahon maqomi - bemorni quvnoqlik, ishonch hissi bilan ilhomlantiradi va quyosh botganda samarali hisoblanadi.

Navo maqomi - shirinlik, zavq hissini beradi va kechqurun samarali hisoblanadi. Ushshoq maqomi - bemorga ko'tarinki kayfiyat beradi va tushlik paytida samarali. Xusayniy maqomi - xotirjamlik tuyg'usini beradi va ertalab samarali hisoblanadi. Zangula maqomi - bemorga uyquni singdiradi va kechasi

36631

yil

samarali. Busalik maqomi – bemorga kuch baxsh etadi, kunduz kuni samarali ta'sir ko'rsatadi.

Buyuk faylasuf va olim, sharq tabobati asoschisi Ibn Sino Farobiyning ilmiy izlanishlaridan ilhomlanib, ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarni davolashda dori vositalari va musiqani uzviy bog'liq tarzda qo'llaydi va bemorlar musiqa bilan shug'ullanishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ushbu uch omil dori-darmon, musiqa va musiqa ijrosi bemorni davolashda yuqori samara berishi mumkin. Ibn Sino o'zining "Kitab ash-shifo", "Kitab an-Najot" asarlarida bemorga kuch, ishonch, dadillik va yaxshi kayfiyat bag'ishlash hanida bemorni davolashda musiqaning o'rni haqida ko'plab fikrlar qoldiradi.

Musiqa terapiyasining Amerika, Shved, Shvetsar, Germaniya va Rossiya kabi maktablari mavjud bo'lib, deyarli barcha maktablarda musiqa bilan davolash tushunchasining kelib chiqish omillari mavjud. Ammo, musiqa terapiya atamasi XIX-XX asr orasida paydo bo'lgan hisoblanadi. Shu o'rinda musiqa terapiyasi o'zi nima?-degan savol tug'ilishi tayin.

Musiqa terapiyasi – bemorlarda uchraydigan ba'zi kasalliklarni musiqiy asarlar yordamida bartaraf etish yoki yengillashtirish maqsadida qo'llaniladigan davolash turi hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda musiqa terapiyasi inson psixikasi, ruhiy holatini yaxshilash, saqlash va davolashning universal vositasi bo'lib ulgurgan. Musiqiy terapiya ruhiy kasallikga chalingan, nogiron va asab, yurak-qon tizimi bilan bog'liq kasalliklarda bolalar va kattalarni davolash hamda reabilitatsiya qilish va tarbiyalash maqsadida qo'llanib kelinmoqda. Musiqa odamlarda ma'lum tebranishlarni keltirib chiqaradi, bu esa ruhiy reaksiyaga olib keladi. Musiqaning asosi tovushdir. Tovush esa to'lqin tuzilishiga ega bo'lgan akustik signaldir. Maxsus adabiyotlardan ma'lumki, akustik signal tirik organizm xujayralariga ta'sir qiladi va ularning faoliyatini o'zgartirishga ham qodir.

Passiv musiqiy terapiyada bemor musiqiy asar yoki uning qismlarini eshitadi va bu orqali kasallikning oldini olish yoki davolashi ham mumkin. Faol musiqiy terapiyada bemor musiqiy asar ijrosi davomida ishtirok etadi. Musiqiy asarga usul berishi,

qo'shiq aytishi yoki musiqiy asar parchasini xirgoyi qilishi mumkin. Musiqa terapiyasi ruhiy tushkunlikdagi bemorlarni davolash uchun ideal muolaja hisoblanadi, ammo jiddiy depressiyani boshqarish va bemorni tinchlantirish uchun dori vosltalaridan foydalanish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda musiqa terapiyasining quyidagi shakllari mavjud:

Ekspperimental – bemorlarga turli xil musiqiy ta'sirlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Klinik – profilaktika va terapevtik maqsadlarda qo'llaniladi.

Integrativ – san'at bilan bog'liq boshqa terapiya turlari (raqs, rasm va boshqalar) bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Tematik – syujet va ma'lum bir mavzudagi ma'ruzaga asoslanadi.

Fon – psixoterapevtik faoliyat davomida musiqa fon sifatida ishlatiladi.

Faol – bemor o'zi musiqaga ritm beradi, musiqa cholg'ularini ijro qiladi, qo'shiq aytadi.

Qabul qiluvchi – bemor musiqa asarini yoki uning alohida frazalarini passiv tinglaydi.

Musiqa terapiyasining afzalliklaridan biri uning bolalarda ham qo'llash mumkinligidir. Zararsizligi, arzonligi va foydalanish qulayligi musiqa terapiyaning ko'plab oilalar uchun muammolarni bartaraf etishda yaxshi yechimga aylanishi tabiiy. Bola miyasining tuzilishi har qanday stimulg'a sezgir. Vibratsiya va ritm jismoniy va hissiy darajada ta'sir qiladi, tanadagi ko'plab jarayonlarga uyg'unlik keltiradi. Bolaning sezgirligi organlarning noto'g'ri ishlashi, hissiy holatni kuzatish imkonini beradi.

Musiqa terapiyasi, ayniqsa, kislorod etishmasligidan aziyat chekadigan bolalar uchun foydalidir. Ularning miya tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari fermentlarni zarur ishlab chiqarishni ta'minlamaydi, ammo musiqa terapiyasi ularni ishlab chiqarish faolligini oshirishga yordam beradi. Bu holat ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan. Bolalardagi sezgi organlarining kuchliligi va har qanday ma'lumotga ega bo'lgan talab mavjudligi tufayli musiqa orqali bola ongi va salomatligidagi o'zgarishlarni ijobiy rivojlantirish mumkin bo'ladi. Bunda musiqa

terapevtidan musiqa to'plamlarini to'g'ri tanlay olish va kasbini puxta egallaganligi talab qilinadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqa san'atining inson salomatligiga va ruhayatiga ta'siri qanday?
2. Buyuk mutafakkir Hazrati Navoiy musiqa san'ati haqida qanday fikr bildirgan?
3. Musiqa terapiyasi qanday faoliyat hisoblanadi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. *"Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi"* ushbu fikrlar qaysi mutafakkir tomonida aytilgan.

- a. Aristotel
- b. Navoiy
- c. Ibn Sino

2. Musiqa inson organizmiga ta'siri va uning davolovchi xususiyatlarini qaysi davrlardan boshlab o'rganilib kelinmoqda?

- a. Mil. avv. 200-yillarda
- b. Mil. avv. 500-yillarda
- c. Mil. avv. 100-yillarda

3. Musiqa terapiyasining Eksperimental shakllarida qanday faoliyat olib boriladi?

- a. bemor o'zi musiqa ritm beradi, musiqa cholg'ularini ijro qiladi, qo'shiq aytadi.
- b. psixoterapevtik faoliyat davomida musiqa fon sifatida ishlatiladi.
- c. bemorlarga turli xil musiqiy ta'sirlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

4. Musiqa inson organizmiga ta'siri va uning davolovchi xususiyatlari qaysi hududlarda o'rganilgan?

- a. qadimgi Hindiston va Xitoy
- b. Yunoniston va Xitoyda
- c. Hindiston va Misr

5. Musiqa terapiya atamasl XIX-XX asr orasida qachon paydo bo'lgan?

- a. XIX oxirisi XX asr boshlarida
- b. XIX asr boshlarida
- c. XVIII asr oxirida

1.3 "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va uning mazmuni.
Davlat ta'lim standartlari asosida musiqa ta'limi

Tayanch tushunchalar: Ta'lim to'g'risidagi qonuning yangi taxriri, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'limga oid qonun va farmoishlar, ta'lim shakllari, ta'lim turlari, DTS, Uzluksiz ta'lim tizimi, kompetensiya, ta'lim standartlari.

Har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi uning ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishi fan, madaniyat sohalariga bo'lgan e'tiboriga bog'liq bo'ladi. Zotan ta'lim-tarbiya jamiyatning millitning kelajagini ta'minlaydigan jahon miqyosidagi nufuzini belgilaydigan ustuvor omil hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan o'zining taraqqiyot yo'lini ilm-fan ta'lim va tarbiyani milliy negizidan dunyo ilm faniga tayangan holda yangitlan shakllantirishga kirishdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan ushbu tizim ishon qilindi. Ta'limni tashkil etishda yanicha rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi hamda milliy madaniyatimizni o'zida aks ettiruvchi o'qitish tizimi ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratiladi. Xalq ta'lim tizimini rivojlantirish borasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" lari ishlab chiqildi hamda ushbu me'yoriy hujjatlarni amaliy ijrosini taminlash maqsadida ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish va uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish tamoillari asosida o'quv fanlari bo'yicha o'qitish konsepsiyasi ishlab chiqildi. 1997 yil 29 avgust O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining II-chaqiriq IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning maqsadi, o’quvchi-talabalarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunarga o’rgatishning huquqiy asoslarini belgilab berish hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash edi. Chunki har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi inoddiy va ma’naviy shart sharoitlarining mavjudligi, sog’lom muhit darajasi, axloqiy qarashlari va e’tiqodiga bog’liq. Mazkur “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun mazmunida Respublika ta’lim tizimi, uning asosiy yo’nalishlari, maqsad hamda vazifalari, ta’lim bosqichlari va ularning mohiyati kahi masalalar o’z ifodasini topgan. Shu bois barcha o’quv predmetlari qatori ilk bor musiqa fanidan ham 1998- yil 10-may Vazirlar Mahkamasining 203-son qarori bilan Davlat Ta’lim Standartlari ishlab chiqqan.

Jamiyatimizni ma’naviy yangilanishida demokratik-huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlash milliy dasturida asosiy masala bo’lib hisoblanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy omillaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida kadrlarni tayyorlash va yangi tizimini shakllantirish. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy **maqsadi**. Bugungi mustaqillik sharoitida davlat, jamiyat va oila oldida javobgarlikni his eta oladigan yetuk, komil insonni tarbiyalash, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi jahon standartlariga mos kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan barcha vazifalar uch bosqichda amalga oshirilishi ko’rsatib berilgan

1 - bosqichda (1997 - 2001 yillar) pedagogik va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ulami malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish hamda ta’lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi va ma’naviy -

axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi, davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish asosida milliy

dasturni ro'yobga chiqarish va yo'nalishlariga aniqliklar kiritish.

2-bosqichda (2001 -2005 yillar) majburiy umumiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish, sifat bosqichini shakllantirish

3-bosqichida (2005 va undan keyingi yillar)- to'plangan tajribalarni umumlashtirish asosida, yanada rivojlantirish. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga, kompyuter axborot tarmog'i orqali ulash. Masofada o'qitishni joriy etish.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi yagona va yaxlit tizim sifatida faoliyat olib bormoqda. Ta'lim sohasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi hisoblanadi. Shu sababdan ham ta'lim sohasini yanada isloh qilish undagi muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekistonda yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni ishlab chiqish maslasi o'rtaga tashlandi.

Ushbu vazifa Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari tomonida ishlab chiqildi hamda 2020-yilning may oyida ikki bosqichli muhokama jarayonlaridan so'ng Senat a'zolariga taqdim etildi. Sal kam uch oy davom etgan o'rganish jarayonlaridan so'ng 2020-yilning 7-avgust kuni Senat a'zolari tomondan ushbu qonun maqullandi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyeva 637-sonli qaroriga muvofiq 2020-yil 23-sentabrda ushbu O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun ommaga e'lon qilindi. Ushbu qonun yurtimizda 2020-yil 24-sentabrdan kuchga kirdi va amaldagi 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi

Qonunda maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limni uzviligini, mazmun jihatidan ketma-ketligini ta'minlashga

alohida ahamiyat berildi. Ta'lim dasturini mazmunan uzluksiz va uzviylik tamoyili asosida tayyorlashga erishsak, mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir qiladigan pedagogik tizimni joriy eta olishimiz haqida so'z bordi. Uzluksiz ta'lim tizimini sifatini taminlashda bir qancha muammolar borligi va ularni hal etish masalalari o'rganib chiqildi.

Xususan, qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida 238 ta normaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Loyihadan idoraviy ruhdagi bir necha normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo'llashga ta'sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish oqibatida 123 ta norma chiqarib tashlandi. Ularning o'rniga 54 ta yangi to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi normalar kiritildi. Ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga kiritilgan 7 ta moddadan butunlay voz kechilib, aniq sohalaridagi munosabatlarni tartibga soluvchi 9 ta yangi modda kiritildi.

Norma yangi qonunning asosiy farqiari haqida qisqacha ma'lumot.

birinchidan, ta'lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (Ta'lim inspeksiyasi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi

Uchinchidan davlat ta'lim standartlari va talablari, o'quv jarayoniga o'quv rejalari va dasturlarini, ta'lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni joriy etish bilan bog'liq masalalar tartibga solingan. O'qishga qabul qilish, jumladan maqsadli qabul qilish mexanizmi bayon etilgan; to'rtinchidan, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish dastaklari reglamentlangan;

Yangi taxrirdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonun bilan fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqaidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Ta'lim to'g'risidagi yangi taxrirdagi qonun 11 bob 75 moddadan iborat.

Yangi qonunga muvofiq O'zbekiston hududida ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;

- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Yangi qonunga muvofiq O'zbekiston hududida Ta'lim olish shakllari:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);

- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

- dual ta'lim;

- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;

- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;

- inklyuziv ta'lim;

- eks-ternat tartibidagi ta'lim;

- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati

sohasida kadrlar tayyorlash.

Ushbu qabul qilingan qonunga muvofiq ta'lim olish turlari

hamda shakllariga bir qancha yangiliklar kiritildi. Ushbu

yangiliklardan biri inklyuziv ta'lim bo'sa ikkinchisi katta

yoshdagilarni o'qitish va ta'lim berishni qonun bilan belgilab

qo'yilgani bo'ldi.

Barchamizga ma'lumki O'zbekistobda yetti bosqichdan iborat

uzluksiz davom etadida ta'lim bosqichlari mavjud. Shu o'rinda

shunday savol tug'iladi uzluksiz ta'lim o'zi nima?

Uzluksiz ta'lim tizimi bu - o'zaro mantiqiy izchillik asosida

bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib

boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit

tizimdir.

Ushbu yaxlit tizimni soddadan murakkabga tomon

harakatlantirishimizda bizda aniq bir dastur ya'ni davlat ta'lim

standartlari yordam beradi. Davlat ta'lim standarti orqali ta'lim

mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash

tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Ta'lim standarti (DTS)-bu davlatning ta'lim darajasiga qo'ygan me'yori sifatida qabul qilinadigan asosiy paramentrlar tizimi bo'lib, muayyan shaxsning ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlari va ularni ideal darajaga yetkazishga erishishni anglatadi.

Ilk bor musiqa fanidan ham 1998- yil 10-may Vazirlar Mahkamasining 203-son qarori bilan Davlat Ta'lim Standartlari ishlab chiqildi. Davlat Ta'lim Standartlari joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlari, maqom va shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqalardan iborat. Yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning bilim va malakalarini oshiradi, xotiralarini mustahkamlaydi, obrazli tasavvur qilish, musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantiradi.

DTS asosan "Musiqqa madaniyati" fanining maqsadi: o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashdir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi: o'quvchilarning ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirish, o'zbek hamda jahon kompozitorlari asarlarini tinglab tushunish va undan zavqlanishga o'rgatishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning vazifasi:

- musiqa madaniyati o'quv fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy va musiqiy didni

rivojlantirish va fikr doirasini kengaytirish;

- o'zbek va jahon kompozitorlari asarlarini va turli musiqiy janrlarni bir-biridan farqlay olish, tayanch va umumiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Musiqa madaniyati fani

O'quvchilar musiqa madaniyatiga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblari bilish;

- Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik)ni bilish, ularning mashhur ijrochilarini bilish;

- maqom haqida tushuncha, o'zbek maqomlari va ularni asosiy turkumlari, shashmaqom, uning cholg'u ashula yo'llari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytish yo'llarini bilish;

- O'zbekiston hududida mumtoz musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'alarga ega ekanligi, ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;

- ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash, major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'ta olish;

- kuylashda forte va piano dinamik tuslarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish;

- mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar hamda ushshoqlarning mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

- kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish;

- musiqa naqadar qadimiy san'at ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga taqalib, asrlar, yillar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois xalqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishini va nihoyat, o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lagi ekanligini tasavvur qila olish.

Musiqa madaniyati fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar

1. Musiqa savodxonlik kompetensiyasi
 - ✓ A1 – Musiqa san'ati turlaridan biri ekanligi haqida bilimga ega bo'lish hamda ularni bir-biridan ajrata olish. Milliy musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Musiqa ifoda vositalaridan (o'chov, usullar, dinamik belgilar, repriza va boshqalardan) foydalanadi.
 - ✓ A2 – Musiqa qadimiyligi, milliy qadriyatlar aks etganligi, mahalliy uslublari va ular o'zbek musiqasida sahnaviy musiqa asarlari, Estrada janri, kino musiqasi kabilarni farqlay oladi.
2. Jamoa bo'lib kuyish kompetensiyasi.
 - ✓ A1 - O'rganilgan qo'shiqlarni birgalikda kuyay oladi, dinamikaga qarab ovoz yo'naltiradi.
 - ✓ A2 – Kuylashda dinamik belgilarga anal qiladi. O'zi va o'rtoqlari ijrochilik saviyasini baholay oladi. Qo'shiqlarni toza, xorda kuyay oladi.
3. Musiqa tinglash va taxlil qilish kompetensiyasi.
 - ✓ A1- Kuyni tinglasb ta'riflay oladi. Qaysi cholg'udan kuy yangrayotganini ajrat oladi ya'ni, zarblini cherma cholg'udn farqlay oladi.
 - ✓ A2 – Musiqa janrlarini farqlay oladi. O'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa janrlarini variantlarni tinglab ajrata oladi.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida A1-standart darajasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun, A2-standart darajasi o'rta sinf o'quvchilari uchun belgilangan⁷.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Yangi taxrirdagi ta'lim to'g'ri qonun qachon qabul qilindi?
2. DTS nima?
3. Uzlüksiz ta'lim tizimi bu?
4. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati fanini o'qitishning maqsadi qanday?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. O'zbekistonda ilk bor musiqa fanidan ham Davlat Ta'lim Standartlari qachon ishlab chiqildi?

- a. 2000-yil 5-iyun
- b. 1998-yil 10-may
- c. 1999-yil 20-fevral

2. Yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilindi?

- a. 2020-yil 23-sentabr
- b. 2021-yil 19-aprel
- c. 2020-yil 7-avgust

3. Musiqa madaniyati fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qanday standartlar asosida belgilanadi?

- a. A1-boshlang'ich sinflar, A2-o'rta sinflar.
- b. B1-boshlang'ich sinflar, B2-o'rta sinflar.
- c. C1-boshlang'ich sinflar, C2-o'rta sinflar.

4. Uzlüksiz ta'lim tizimi bu.....?

- a. o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi ta'lim tizimi
- b. a va c javoblar to'g'ri.
- c. bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit tizimdir.

5. Yangi taxrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qanday tarkibiy tuzilishga ega?

- a. 11 bob 75 modda
- b. 10 bob 70 modda
- c. 15 bob 85 modda

⁷ Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa, 1999

II BOB. "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARI O'QUV FANI SIFATIDA

2.1 Musiqa san'atining maktablarda o'quv fani sifatida qo'llanilishi

Tayanch tushunchalar: Umum ta'lim maktablari o'quv fanlari, o'quvchining musiqiy madaniyati, musiqa dasturi va o'quv predmeti.

Qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakli va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi.

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'alariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

2000-yilda Davlat ta'lim standarti asosida tasdiqlangan umumta'lim maktablari musiqa dasturi va o'quv predmeti endilikda "*Musiqa madaniyati*" deb atalishi bejiz emas. Shu dasturga ko'ra "milliy musiqa ta'lim tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosiga vorislik qila oladigan hamda umumshariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish", ya'ni o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishdir.

Bolalar tomonidan musiqaning idrok etilishi avvalo milliy musiqamizni idrok etishdan boshlanishi lozim. Milliy istiqlol sharofati bilan milliy musiqiy merosimizga milliy-ma'naviy qadryatlarimiz qatorida alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda biz xalqimizning ajoyib, xilma-xil va bir biridan go'zal mahalliy musiqiy an'alarini tinglab idrok etish va ulardan ma'naviy zavq olish, ruhiy bahramand bo'lish imkoniga ega bo'ldik. Milliy musiqa

xalqimiz boy ma'naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolardagi go'zal badiiy ifodasi bo'lish bilan bir qatorda yangi, buyuk davlat bunyodkorligi yo'lida tinmay mehnat qilayotgan xalqimizga, jamiyatimiz ma'naviy ruhiy quvvat bag'ishlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Musiqaning ana shunday o'tkir tarbiyaviy kuchidan foydalanish, san'at vositasida yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash umumta'lim maktablari zimmasidagi eng muhim va dolzarb bo'lgan vazifalardan biridir. Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish hamda mustaqilligimizni yanada mustahkamlashda o'tmish me'rosimiz milliy musiqa merosimiz o'rni alohida.

"O'quvchining musiqiy madaniyati" tushunchasi keng qamrovi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'quvchining ijtimoiy-badiiy shaxsiy tajribasi - axloqiy estetik qarashlari, hissiyotlari, did va ehtiyojlari;

- O'quvchining musiqiy rivojlanganligi - musiqa san'atiga qiziqishi, musiqaqa emotsional munosabati, musiqiy kuzatuvchanligi, turli xil badiiy musiqa namunalariga bo'lgan ehtiyoji;

- O'quvchining musiqiy bilimlari - musiqani idrok va ijro etish uchun lozim bo'lgan tasavvur, bilim, malaka va ko'nikmaga egaligi, san'at va hayotga hissiy munosabati, rivojlangan musiqiy-estetik didi, musiqaqa bo'lgan tanqidiy saraish munosabati va hk.

O'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilanadi:

- musiqiy ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lab olib borish;

- o'quvchilarning musiqa san'atiga mehr, qiziqishlarini o'stirish;

- musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;

- musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;

- iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojini qondirish;

- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik histuyg'ularini rivojlantirish;

-musiqa asarlarining badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash.

Musiqa haqidagi bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, birinchi navbatda, bolalarda hissiy ta'sirchanlikni, musiqa qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. "Tarbiyaning eng oliy ko'rinishi - tuyg'ular tarbiyasi" deb yozadi qozoq shoiri M.Shoxonov.

Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi aniq ishlab chiqilgan tizim asosida olib boriladi. Bu tizim o'zaro bog'langan tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy vazifalarga o'quvchilarda musiqa bo'lgan qiziqish va muhabbatni, musiqa bilan muloqotda bo'lish ehtiyojini tarbiyalash, ularda estetik hislarni, badiiy did, ahloqiy sifatlar va dunyoqarashlarni tarbiyalash kiradi.

Ta'limiy vazifalarga o'quvchilarni musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, bolalar cholg'ularida chalish, musiqa savodi, musiqa-ritmik harakatlar bajarish kabi turli musiqiy faoliyatlarga o'rgatish; ularni o'zbek xalqi va jahon musiqiy madaniyatining nodir asarlari bilan tanishtirish, ularga musiqa haqida, kompozitorlar va ijodkorlar, cholg'ular, qe'shiqchilik ovozlari, janr, uslub, shakllar va hokazo haqida bilim-tasavvur va malakalar berish kiradi.

Rivojlantiruvchi vazifalar o'quvchilarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni, musiqiy idrok va diqqatni, tasavvur, musiqiy eshituv va xotirani, kuylash ovozlari, musiqiy asar haqida ijodiy fikr yurita olish va unga baho berish malakalarini hosil qilishni nazarda tutadi.

O'quvchilarga musiqiy ta'lim berish tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi bo'lishi lozim. Bu musiqiy pedagogikaning muhim talablaridan biridir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi qanday vazifalar asosida ish olib boradi?
2. Musiqa madaniyati darslari umum ta'lim maktabini qaysi sinflarida o'qitiladi?

3. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyatini shakllantirishda qanday vazifalar belgilangan?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Umumta'lim maktablari musiqa dasturi va o'quv predmeti qaysi yildan "*Musiqa madaniyati*" deb atala boshladi.

- a. 2000-yil
- b. 2002-yil
- c. 2005-yil

2. Umumta'lim maktablarida Musiqa ta'limining rivojlantiruvchi vazifalar bu?

- a. o'quvchilarda musiqa bo'lgan qiziqish va muhabbatni, musiqa bilan muloqotda bo'lish ehtiyojini tarbiyalash, ularda estetik hislarni, badiiy did, ahloqiy sifatlar va dunyoqarashlarni tarbiyalash kiradi
- b. o'quvchilarni musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, bolalar cholg'ularida chalish, musiqa savodi, musiqa-ritmik harakatlar bajarish kabi turli musiqiy faoliyatlarga o'rgatish
- c. o'quvchilarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni, musiqiy idrok va diqqatni, tasavvur, musiqiy eshituv va xotirani, kuylash ovozlari, musiqiy asar haqida ijodiy fikr yurita olish va unga baho berish malakalarini hosil qilish

3. "Tarbiyaning eng oliy ko'rinishi - tuyg'ular tarbiyasi" ushbu fikr muallifi ko'rsatilgan qatorni toping?

- a. Qozoq shoiri M.Shoxonov.
- b. A.Navoiy
- c. Yunon faylasufi Pifagor

4. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi aniq ishlab chiqilgan qanday vazifalar asosida olib boriladi?

- a. Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.
- b. Tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi.
- c. Rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi.

2.2. Musiqa darslarining o'ziga xosligi

Tayanch tushunchalar: *Musiqa darslari, musiqiy faoliyatlar, musiqa faniga qo'yilgan talablar, estetik-musiqiy tarbiya, musiqiy tarbiya.*

Mashhur adib Chingiz Aytmatov musiqaga bunday ta'rif beradi. "Hayot, o'lim, muhabbat, shavqat va ilhom - hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy xurlikka erishamiz, bu xurlik uchun esa ongimiz yorishgan zamonlardan to hozirgacha - butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga faqat musiqa vositasidagina yetganmiz. Faqat musiqagina zamonlarga xos aqidlarni yengib o'tib, mudom kelajak sari intilmoqda"⁸. Bu ta'rif Jaloliddin Rumi asos solgan mavlaviya taraqqiyot g'oyalari to'ldirgandek bo'ladi: "Dunyoda hech narsa musiqiy va raqs yanglig' inson ruhining yasgirin quvvatlarini oshkor eta olmas musiqachalik uning mayda-chuyda turmush tashvishlaridan xolos etib, o'z ruhiy olami sari boshlay olmas"⁹ deya ta'kidlangan.

Musiqaqadagi go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqa ijodida va idrokida intellektual asosni qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik kerak. Musiqa kishiga ilgari uncha ma'lum bo'lmagan ajoyib yuksak tuyg'ularni ochib beradi, u kishini o'zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir.

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining ob'ektiv qonunlari to'g'risidagi bilimlarning yakunidan, jamlanishidan, ishonarli va umumlashgan bilimlar tizimidan iborat bo'ladi. Har qanday fanning ajralib turishi va me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'zida xususiy tushunishning mavjudligi muqarrar shart bo'lib hisoblanadi. Tarbiya, ta'lim va o'qitish fan sifatidagi pedagogikaning asosiy tushunchalaridir.

⁸ A.A.Xolboyev "Markaziy Osiyo madaniyatida cho'g'u sozlarining tutgan o'rnini" mavzusidagi magistrlik dissertatsiya ishi.

⁹ J.G.Xolmominov "Jaloliddin Rumi va G'arb adabiyoti" mavzusidagi ilmiy maqola "Jahon adabiyoti", jurnali 2010-yil 9-son.

Tarbiya - ijtimoiy munosabatning shunday bir turiki, unda shaxsni yo'naltirilgan holda shakllantirish maqsadida bir xil toifadagi kishilar boshqa birovlariga ta'sir o'tkazadi.

Ta'lim - tarbiyaning shunday bir jihati, u insoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ta'lim turli yo'llar orqali olinadi.

O'qitish - insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarining maxsus tayyorlangan shaxs rahbarligida (o'qituvchi, tarbiyachi, professor, instruktor rahbarligida) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni, ma'rifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir.

Musiqiy tarbiya metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kirib, unda alohida o'rin egallaydi. Musiqaviy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog'liq holda qaraladi. Musiqaviy-estetik tarbiya-musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa darsi muhim o'rin tutadi, lekin alohida o'rin tutmaydi. Musiqiy tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his-tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Musiqiy tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida amaiga oshiriladigan butun o'quv-tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushiniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga va ona Vatanni doimo sevishga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Dars-maktabdagi o'quv ishini tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruxi-sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilarning biror maqsadga qaratilgan, izchillik

bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalanish vazifalari hal etiladi. Musiqa darsida o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaqa asoslangan. Musiqa darsida istisnosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalari hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Musiqa darsi ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlariga ta'sir o'tkazadi: o'quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik, irodaviy fazilatlarini, mehnatga munosabatini shakllantiradi.

2. Dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushintirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasi berishdan iborat bo'ladi. Musiqaviy faoliyat turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi va bir-birini to'ldirishi kerak.

3. Dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi: u tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy tushinish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarining puxta va ongli tarzda o'zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko'nikmalarning shakllanishiga imkon beradi.

4. Dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar tizimidagi bo'g'inlarni qamrab oladi. Ilgari qanaqa asar o'rganilganini va maktab o'quvchilari mazkur darsdan keyin nimalarni o'rganishlari zarurligini hamisha yodda tutish shart. Faqatgina yodda tutish va bilish emas, balki musiqa faoliyatlari davomida keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan ba'zi asarlarni oldindan tanishtirib ketish yo'lini vujudga keltirish kerak.

5. Musiqa darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish chog'ida yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy psixologik-pedagogik va metodik yondoshish hisobga olinadi.

Har qanday dars o'qituvchining maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ustidan nazorat qilib borishni taqazo etadi. Bu o'quv materialini tushintirish va o'zlashtirish xarakterini, o'quv va ko'nikmalarning shakllanish jarayonini ko'z oldiga keltirish imkonini beradi.

Maktab o'quvchilari o'qishining borisbimi tahlil qilish o'qituvchiga darsning ijobiy jihatlarni rivojlantirish va ko'zga chalingan salbiy holatlarni kamaytirish maqsadida unga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Musiqa darslarining vazifasi-bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o'rgatishdan iboratdir. Hozirgi zamon musiqa darsi huddi ana shu vazifani hal qilmog'i kerak va bu vazifani qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal etsa, maktab o'quvchilariga faqat musiqaviy tarbiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqa darslarining o'ziga xosligi nimada deb bilasiz?
2. Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qanday talablar qo'yilgan?
3. Musiqaning boia tarbiyasida tutgan o'rni qanday deb bilasiz?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. *"Hayot, o'lim, muhabbat, shavqat va ilhom - hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy xurlikka erishamiz, bu xurlik uchun esa ongimiz yorishgan zamonlardan to hozirgacha - butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga faqat musiqa vositasidagina yetganmiz. Faqat musiqagina zamonlarga xos aqidalarni yengib o'tib, mudom kelajak sari intilmoqda"* ushbu fikr muallifi keltirilgan javobni toping.

- a. Chingiz Aytmatov
- b. Jaloliddin Rumi
- c. Qozoq shoiri M.Shoxonov.

2. Umumta'lim maktablarida Musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad keltirilgan javobni toping?

- Yoshlarda musiqiy tarbiyani shakillantirish
- Yoshlarda musiqiy-estetik tarbiyani shakillantirish
- Yoshlarda musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish.

3. "Dunyoda xech narsa mustaqiy va raqs yanglig' inson ruhining yagirin quvvatlarini oshkor eta olmas muslqachalik uning mayda-chuyda turmush tashvishlaridan xolos etib, o'z ruhiy olami sari boshlay olmas" ushbu fikr muallifi ko'rsatilgan qatorni toping?

- Chingiz Aytmatov
- Jaloliddin Rumiy
- Qozoq shoiri M.Shoxonov.

4. Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yilgan talablar ko'rsatilgan javobni toping?

- dars funksiyalarining komplekslikda olib borish, dars shaklini qat'iy belgilanishi, dars o'qitish tamoyillariga muvofiqligi, dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiqligi, yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash.
- dars shaklini qat'iy belgilanishi, dars o'qitish tamoyillariga muvofiqligi, dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiqligi, yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash.
- dars funksiyalarining komplekslikda olib borish Tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, shakillantiruvchi. yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash

5. O'qitish qanday faoliyat hisoblanadi?

- insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi muayyan jihatlarning maxsus tayyorlangan shaxs rahbarligida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni.
- tevarak-atrofdagi olamni bilisning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan faoliyat.
- barcha javoblar to'g'ri.

2.3. Musiqa o'qituvchisi va unga bo'lgan talablar

Tayanch tushunchalar: *Pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, musiqa o'qituvchisi, tadqiqotchilik faoliyati, loyihalashtiruv faoliyati, konstruktiv faoliyati, kommunikativ faoliyati, tushkilotchilik faoliyati.*

Pedagogik faoliyat – insonlar mehnatining eng murakkab, ma'suliyati sobalaridan biridir. O'qituvchi yuqori malakali, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk, axloqan sof bo'lishi jamiyat talabidir.

Pedagoglik kasbi boshqa kasblardan xarakteril belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat fani odam, mehnatning maqsadi insonni qayta o'zgartirish, pedagogning mehnat qurollari - uning nutqi, tafakkuri, irodasi, xarakteri va hokazo. Pedagogning mehnat sharoitlari uning ma'naviy-siyosiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar bilan xarakterlanadi, uni doimo takomillashishga, to'xtovsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Yaxshi pedagog doimo o'z o'quvchilari va ularning ota-onalari hurmatini qozongan bo'ladi. O'qituvchi maxsus pedagogik malumotga ega bo'lgan va umumiy ta'lim maktabida ta'lim va tarbiyaga doir muayyan ish olib borayotgan kishidir.

O'qituvchi so'zi ancha umumiy ma'noga ham ega. Boshqalarda bilim, ko'nikma, malakalami tarkib topdirayotgan, hayotda murabbiylik qiladigan va hayotga yo'llaydigan hamda pedagoglik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamma kishilami pcdagoglar deb ataydilar. Shunday qilib, o'qituvchi va pedagog sinonim so'zlardir. O'qituvchilik kasbi qiyin kasb. Qiyinchiliklardan biri shundan iboratki, tarbiyaga doir ish natijalari darhol namoyon bo'lmaydi. Bu ish katta sabot- matonat va chidamni talab etadi. Yosh avlodni hayotga tayyorlash jarayonida o'qituvchilar faol ishtirok etadilar. Ular tajribanibir avloddan ikkinchi avlodga berish bilan avlodlar vorisligini ta'minlaydilar. Yangi avlodni biror maqsadga qaratilgan holda boshqarish va tarkib toptirish jarayoni ro'y bermaganda

jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi. O'qituvchilar ana shu jarayonning asosiy ishtirokchilardir¹⁰.

Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir.

Jumladan,

-dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

-kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-talabalarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh hususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

-o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

-o'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;

-dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediahavfsizlik me'yorlariga amal qilish;

Har bir fan o'qituvchisi singari musiqa o'qituvchisi shaxsining qimmatiga baho berish tizimida uning professional yo'nalishi muhimrol o'ynaydiki, uning negizida pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj yotadi. U o'zida: bolalarda qiziqish va muhabbatni, pedagogik ishiga havasni, psixologik - pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni, pedagogik odobni, pedagogik tasavvumi, tashkilotchilik qobiliyatini, haqo'ylikni, dilkashlikni, talabchanlik va qat'iylilikni, sobitqadamlikni, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi haqida fikrga ega bo'lishni, professional ish qobiliyatini va

qiziqishini, intellektual faollikni, yangilikni his eta bilishni, pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorgarlikni mujassamlantirgandir. Musiqa o'qituvchisi kasbi insondan doimo o'z shaxsini takomillashtirish, o'zining musiqiy qiziqishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi.

Musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z mutaxassisligi «sirlarini» a'lo darajada bilishi lozim, balki maktabda o'quvchilarning mafkuraviy dunyoqarashlarini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda lozim bo'lgan bilimlarga ega bo'lishi shart. Musiqa o'qituvchisi:

- musiqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo o'qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);

- nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo'lishi;

- musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo'lishi;

- musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;

- dirijyorlik malakalarini ko'rsata olishi;

- musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog'lay olishi;

- musiqa ta'limi va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa bola hissiyotini, ayniqsa, emotsional, estetik hissiyotini faol rivojlantiradi. Musiqa bola ruhiga faol ta'sir etadi, uning axloqiy estetik qiyofasining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- o'quvchilarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishni oshirish;

- musiqaviy - badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojni rivojlantirish;

- musiqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish;

- musiqa faoliyatlari jarayonida badiiy ijodkorlik his tuyg'ularini rivojlantirish;

- asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash;

¹⁰ M.Xodjayeva "Umumta'lim maktablariida musiqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma II-nashr Toshkent 2008

- musiqa darslari jarayonida kasb- hunar va mehnatga havas uyg'otish.

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisining professionallik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa o'qituvchisining ijodiy faoliyati.

Hozirgi davrda musiqa muallimi kasbi, faoliyati, professional tayyorgarligiga bo'lgan talablar ilmiy-pedagogik izlanishlarga asos bo'lmoqda. Bu borada taniqli musiqachi-pedagoglar, haqidagi esdaliklar, ularning pedagogik faoliyatlarini natijalarini o'rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar ahamiyat kasb etadi. Binobarin, buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday yozgan edi:- "O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu o'qituvchidan hech natija kutib bo'lmaydi"¹¹.

Musiqa o'qituvchisining kasbi o'z xususiyatiga ko'ra ijodiy faoliyatning ko'p qirralarini hosil qiladi:

tadqiqotchilik faoliyati: o'qituvchi darsga lozim bo'lgan musiqiy asarlarni tanlash va tahlil qilishi, ularning emotsional ta'sirchanligini aniqlash; yosh va individual xususiyatlardan kelib chiqqan holda bolalarda musiqa idroki xususiyatlarini o'rganishi, yetakchi o'qituvchilarning ish metodlarini o'rganishi; o'z ishining natijalarini tahlil qilishi hamda musiqiy va metodik adabiyotlar bilan ishlashi, unda ilmiy izlanish malakalari bo'lishi tadqiqotchilik faoliyatiga kiradi.

loyihalashtiruv faoliyati: bolalarda musiqa ijodkorligini shakllantirishga qaratilgan o'quv tarbiya vazifalar, malaka va ko'nikmalarning o'qituvchi tomonidan rejalashtirilishi loyihalashtiruv faoliyatini tashkil etadi. Ijodiy rejalashtirish borasida o'z ishlarini, tajribalarini orttira borib, o'qituvchi o'zida o'quv-tarbiya vazifalarini belgilash, ta'lim jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan usul va yo'llar, metodlar, pedagogik texnologiyalarni oldindan ko'ra bilish malakalarini rivojlantiradi.

¹¹ M.M. Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov, S.S. Avezov "PEDAGOGIK MAHORAT" Toshkent: "Lesson press" nashriyoti, 2018. 288 b.

konstruktiv faoliyati: bunga musiqa darslari ishlanmasini tayyorlash, sinfdan tashqari ommaviy tadbirlar stsenariysi va to'garak mashg'ulotlarini tuzish kiradi.

kommunikativ faoliyati: o'qituvchi o'quvchilar, pedagogik jamoa bilan maqsadga muvofiq munosabat o'rnatish, o'quvchilarni o'ziga moyil qilishi, ular orasida yaxshi munosabat o'rnatish lozim, ya'ni yana bir san'at, muloqat san'atini egallashi kerakdir. Musiqa o'qituvchisining shaxsi mashg'ulotlarda to'raligicha namoyon bo'ladi. Musiqiy asarni ijro etish va bu asar haqida so'zlash, asarga o'zining emotsional munosabatini bildirib borib, bolalarda taassurotni kuchaytirish, o'quvchilarning hissiyotlariga, taassurotlariga doimiy e'tibor berish orqali ularda o'qituvchiga nisbatan hurmat va ishonchni orttirish o'qituvchining kommunikativ qobiliyatini ko'rsatadi.

tashkilotchilik faoliyati: o'qituvchi tarbiyalanuvchilar orasidan iqtidorlilarini tanlab oladi va ular bilan alohida ishlar olib boradi, o'zi rahbarlik qilayotgan sinfda pedagogik ishlarni amalga oshiradi. Ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida ma'naviy ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etadi.¹²

Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati.

O'quvchilarning aqliy va axloqiy kamolotida musiqa o'qituvchisi shaxsi alohida o'rin tutadi. Uning dunyoqarashi keng, qalbi pok, shirin so'z, bolajon bo'lmog'i lozim. Bunday fazilatlarini har qanday shaxsda ham tarbiyalab bo'lmaydi. U ma'lum ma'noda tug'ma bo'ladi.

Pedagogik mahorat yoki san'at - bu qandaydir qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan jarayon, izlanishlar, kechinmalar, ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, bolalar bilan olib boriladigan daqiqalar demakdir. Bu - bilimlarning ilmiyligi, tarbiyadagi muammolarni yechishga qodirlik, bola shaxsiga e'tibor bilan yondashish, rivojlangan tasavvur va hokazolalar yig'indisidir.

Hozirgi zamon musiqa o'qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

¹² M.Xodjayeva "Ummumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma II-nashr Toshkent:2008

- musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni an'anaviy usullar bilan mohirona bog'lab olib borishda;

- hayot va musiqa san'ati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsata olish va o'rgatishda;

- musiqaning mazmuni va ma'nosini bolalarga yetkazishda, fanlararo aloqani amalga oshirishda;

- musiqa o'qituvchisining o'z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida.

O'qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqa darslarining takomillashuvida hamda musiqa san'atining tarbiyaviy potentsialini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mahorat o'qituvchi ongining g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi, uning umumiy- musiqiy madaniyati, bilimdonligi, kasbi sohasidagi ko'nikma va malakalar yig'indisidan iboratdir. O'qituvchi maboratining mezoni esa o'quvchilarning o'zlashtirishlari va intizomi bilan belgilanadi. U o'z ustida tinmay ishlasa, ta'lim va tarbiya sohasida ilg'or o'qituvchilarning tajribalarini kuzatib va o'rganib, uni o'z ishiga tadbiq etsa, o'z pedagogik mahoratini oshirib borishi mumkin. Mahoratli o'qituvchi hamisha o'quvchilar orasida yuksak obro'ga ega bo'ladi, chunki u o'quvchilar qalbiga to'g'ri yo'l topa oladi.

O'qituvchilik kasbi uchun xos xususiyat bolalarni sevish va ularga g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Agar o'qituvchi bolalarni istaklarini, ichki dunyosini bilmasa va unga qiziqmasa, u o'qituvchi bo'la olmaydi, chunki bolalar mehribon, kamtar, ochiqko'ngil, samimiy, o'zlariga hurmat va ishonch bilan qaraydigan, talabchan o'qituvchilarni yoqtiradilar.

O'qituvchining axloqi pok, iymonli, diyonatli va har tomonlama-namunali bo'lishi kerak. Uning tashqi qiyofasi, jumladan, tartibli, ozoda bo'lishi, madaniy va kamtar kiyinishi bilan ham o'rnatilgan bo'lishi lozim. Shundagina uning har bir so'zi o'quvchilarga ijobiy ko'rinishi mumkin. Bu fazilatlarini bo'lajak o'qituvchi oliy o'quv dargohida o'qib yurgan kezaridayoq egallab borishi lozim. Buning uchun oliy o'quv yurti professor o'qituvchilari jamoasining o'zi chuqur bilimli, yuqori malakali va hoziljavob bo'lishlari talab etiladi. Shuni ham aytish kerakki,

musiqqa o'qituvchisi doimo izlanishda bo'lishiga, sabr-toqat bilan mehnat qilishiga to'g'ri keladi. Endigina oliy dargohni bitirib, maktabga kelgan mutaxassis zimmasiga ana shunday mas'uliyatli vazifa tushadi.

Biroq o'qituvchi nazariy bilimga, ega bo'lmasada, amaliy jihatdan uni tajribali, har tomonlama talabga javob beradigan mutaxassis deb bo'lmaydi. U ko'proq dars kuzatishi, o'qituvchilarning dars o'tish metodlarini o'rganishi, mahoratli pedogoglardan maslahatlar olishi zarur. Uning maktab hayotiga chuqur kirib borishi va tajriba orttirish uchun maktab ma'naviyati, pedogogik jamoa, xalq ta'limi bo'limi va oliy o'quv yurtining g'amxo'rliqi talab etiladi.

Insonlar hayotida nutqning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi har bir kishiga ham ma'lum, chunki odamlar til yordamida fikr almashish, bir - birlarini tushunishdan tashqari, o'z istaklarini, his - tuyg'ularini irodalarini ham izhor etadilar.

Nutq kishilarni bir - birlariga ta'sir etishning qudratli vositasidir. So'z insonni ishontirishi mehnat va g'alabaga chorlashi, yomon yo'ldan qaytarishi, quvontirishi yoki jahlini chiqarishi hatta o'ldirishi ham mumkin. O'qituvchi faoliyatida nutq juda muhim funksiyalarni bajaradi. O'qituvchilar nutq orqali bilim, ishonchga ega bo'ladilar. Muayyan his tuyg'ularga tushunib yetadilar, o'qituvchining so'zlari ta'sirida bolalarga muayyan psixik prosesslar va psixik holatlar vujudga keladi, shaxsiy jihatlari sbakllanadi.

O'qituvchi uchun nutqning ikkala turini bilish, ayniqsa, og'zaki nutqni yaxshi egallashi zarur. Nutq monolag (o'qituvchida bu ma'ruza himoya ko'rinishida bo'ladi) va dialogik (bu ikki shaxsning o'zaro suhbatidan iborat bo'ladi), turlari bilan ham bir - biridan farq qiladi.

Pedagog bu tajribasida tashqi nutqning ikkala turidan ham foydalanadi.

1. O'qituvchining nutqi o'quvchilarga nimani o'rgatmoqchiligiga qarab turli xarakterga ega bo'lishi mumkin va boshqa nutqlar kabi tizilaveradi. Lekin, faqat pedagogik nutqqagina xos bo'lgan spesifik belgilarni ham ko'rsatish mumkin. O'qituvchining nutqi, avvalo, yo'naltirilgan yoki, boshqacha qilib

aytganda, undalma nutqdan iboratdir. Bunda gapirayotgan gapni tinglovchilar qaysi darajada qabul qilayotgani hisobga olinadi. O'qituvchi materialni turli shaklda bayon qilishi mumkin. Masalan: hikoya qilish, ma'ruza va so'hatlar o'tkazish shular jumlasidandir. Lekin, sinf o'quvchilari bilan doimiy aloqada bo'lish zarur.

2. Har bir odam nutqning o'ziga xos xususiyatlari. O'qituvchilarning o'quvchilarga o'quv materialini tushuntirishi, ular bilan so'hatlar olib borishiga qarab quyidagi nutq xususiyatlarini ko'rsatish mumkin.

Ba'zi o'qituvchilarning nutqi juda ta'sirchan bo'ladi. Bunday o'qituvchilar nutqi his – tuyg'uga so'g'orilgan bo'lib, ular o'zlari gapirayotgan gaplaridan o'zlari ta'sirlanadi, ana shundagina o'quvchilarga ham muayyan kayfiyatni yuqtiradilar. O'qituvchining nutqi muayyan mazmuni natijasida bolalarning his – tuyg'ularini uyg'otibgina qolmay, balki uning dramalashtirish, to'g'ri ifodalash, so'zlarni aniq, burro talaffuz etish tufayli ham ta'sirchan bo'ladi.

F.N.Gonobolin o'qituvchi shaxsida quyidagi qobiliyatlarining namoyon bo'lishini muhim deb hisoblaydi:

- o'quvchini tushuna olish qobiliyati;
 - yosh, psixologik jihatdan barcha o'quvchilar o'zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati;
 - o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati;
 - tashkilotchilik qobiliyati;
 - pedagogik takt;
 - o'z ishining natijalarini ko'ra olish va boshqalar.
- Pedagogik qobiliyatlar turlari, eng avvalo, quyidagilar sanaladi:
- pedagogik kuzatuvchanlik;
 - pedagogik xayol (fantaziya);
 - xarakter sifatlarining tarbiyalanishiga bo'lgan talabchanlik;
 - pedagogik takt;
 - tashkilotchilik qobiliyatlari;
 - nutq madaniyatiga egalik;
 - mulqotga kirishuvchanlik (kiritishlilik);

-hissiy sezgirlik (kasbiy ziyoralik, boshqalarga hamdard bo'la olish, ichki sezgiga ega bo'lish);

-harakatchanlik, ta'lim jarayoni ishtirokchilariga irrodaviy ta'sir ko'rsatish va ishonitirish qobiliyatiga egalik;

-hissiy barqarorlik (o'z-o'zini tuta bilish, boshqarish va nazorat qilish);

-kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;

-kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik.

Qobiliyatli o'qituvchilarda noyob qobiliyatlar ham ko'zga tashlanadi. Ya'ni:

-bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, mulqot qilish va b.);

-atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqealarni birdan qabul qilish (bir o'quvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sindagi boshqqa o'quvchilarning faoliyatlarini kuzata olish);

-o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);

-miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi);

-uyquvchanlik qobiliyati pedagoglarga xos xususiyat emas); nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);

-kuchli xotira (yirik hajmdagi matn, jumladan, dostonlarni bir marta o'qish bilan to'raligiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.

Didaktik qobiliyatlar – o'quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, o'quvchilarda fanlarga qiziqishni uyg'otish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat.

Pertseptiv qobiliyatlar – shaxsning ichki dunyosiga kirib bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati.

Tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish qobiliyati.

Kommunikativ qobiliyat – o'quvchilar bilan mulohaza bo'lish, ularga to'g'ri yondashishning samarali yo'lini topish, birgalikda maqsadga muvofiq o'zaro pedagogik aloqa bog'lovchi pedagogik taktning mavjudligini ifodalovchi qobiliyat.

Nutq qobiliyati – shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati.

Avtoritar qobiliyat – o'quvchilarga hissiy-irodaviy ta'sir etish orqali ular

o'rtasida obro' qozonish imkoniyatini yaratuvchi qobiliyat.

Pedagogik xayol – pedagogning o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy jihatdan loyihalashtirishda o'z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko'ra olishni ta'minlovchi qobiliyat.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – pedagogning bir vaqtda o'z diqqatini bir qancha jarayonga qarata olishni tavsiflovchi qobiliyat.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Pedagogik mahorat nima?
2. O'qituvchining kasbiy sifatlari nimalardan iborat bo'lishi kerak?
3. Musiqa o'qituvchisi qanday ijodiy faoliyatning o'zida mujassamlashtirishi zarur?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. *"O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmogi lozim. Aks holda, u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bu o'qituvchidan hech natija kutib bo'lmaydi"* ushbu fikr muallifi keltirilgan javobni ko'rsating?
 - a. F.N.Gonobolin
 - b. Qozoq shoiri M.Shoxonov
 - c. nemis pedagogi Adolf Disterverg
2. **Pertseptiv qobiliyat bu**?

a. shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik jihatlarni tushuna olish qobiliyati. Yoshlarda musiqiy-estetik tarbiyani shakillantirish

b. shaxsning o'z his-tuyg'ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati

c. o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkillashtirish qobiliyati

3. O'qituvchi nutqning ikkala turidan keng foydalanadi. Ular ko'rsatilgan javobni toping?

- a. Monolog va dialogik
- b. Og'zaki yoki yozma
- c. Rasmiy va norasmiy

4. Musiqa o'qituvchisining kasbi o'z xususiyatiga ko'rarib qancha ijodiy faoliyatni o'ziga jamlaydi. Ushbu faoliyatlar ko'rsatilgan javobni toping.

- a. tadqiqotchilik, loyihalashtiruv, konstruktiv, kommunikativ, tashkilotchilik faoliyatlari
- b. mantiqiy, voqealarni oldindan ko'ra olish, kommunikativ, tashkilotchilik faoliyatlari.
- c. voqealarni oldindan ko'ra olish, kommunikativ, pedagogik xayol,

5. F.N.Gonobolin fikricha o'qituvchi shaxsida quyidagi qobiliyatlar namoyon bo'lishi zarur?

- a. o'quvchini tushuna olish qobiliyati, yosh, psixologik jihatdan barcha o'quvchilar o'zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati, o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, edagogik takt, o'z ishining natijalarini ko'ra olish.
- b. pedagogik xayol, xarakter sifatlarining tarbiyalanishiga bo'lgan talabchanlik, tashkilotchilik qobiliyatlari, nutq madaniyatiga egallik, muloqotga kirishuvchanlik
- c. hissiy sezgirlilik, harakatchanlik, tashkilotchilik qobiliyati, edagogik takt, o'z ishining natijalarini ko'ra olish.

2.4 Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi

Tayanch tushunchalar: Musiqa darslarining o'ziga xosligi, dars strukturasi, dars faoliyatlari, musiqa o'qituvchilari, musiqiy tarbiya.

Dars - o'quv tarbiya jarayonida maqsadlarni amalga oshirishda asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. O'tkazilgan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchini ham qanoatlantirish uchun ma'lum darajada umumiy bo'lgan ba'zi bir talablarga javob berishi kerak. Dars o'quv fanlari ichida o'z o'rniga ega bo'lib, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars davomida bilim, iqtidor va ko'nikmalar erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan biri shuki, beriladigan o'quv materialini tizimli ravishda osondan-qiyinga, oddiydan murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari uning mazmuni va shaklini belgilaydi. Musiqa darsi - maktabda musiqa o'qitishni tashkil etishning asosiy shaklidir. Maktabda musiqiy to'garaklar, fakultativ mashg'ulotlar olib boriladi, ammo dars hamma bolalarni yalpi tarzda qamrab olishi sababli o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Musiqa darslari bir qator xususiyatlariga ko'ra boshqa fanlardan farq qiladi:

birinchidan - musiqa darslari boshqa maktab fanlaridan o'zining badiiyligi, bolalarda emotsional tuyg'u va kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy his-tuyg'u insonning aqliy faoliyatini o'stiradi. Fiziologlarning aytishicha, bola aqliy rivojining kaliti uning hissiyoti sohasida turadi. Musiqa mashg'ulotlari bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda ijodiy kuch, tasavvur, fantaziyani uyg'otadi. Qadimdan

ma'lumki, badiiy ijodiy tasavvur bilan ilmiy fikrlash o'rtasida katta bog'liqlik bor. V.Belinskiy ayganidek: "Ilm va san'at mazmuni bir. Olim fikrlar tizimi asosida ishontradi, ijodkor - obrazlar bilan. Ammo ikkalasi ham bir hil ishontradi". Musiqiy asardan olingan emotsional ta'sir o'qituvchining ifodali ijrosi, mimika, harakat, so'z orqali yanada kuchayadi. Butun dars musiqa bilan "sug'orilgan" bo'lishi lozim. Musiqa-bolalar o'qituvchi - darsning asosiy bo'g'inlaridir.

Ikkinchidan - u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqa tahili va adabiyoti elementlaridan iborat; uchinchidan - musiqa darsi o'quvchilar tomonidan bajariladigan turli musiqiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinflarda kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, ritmik xarakterlar, bolalar cholg'ularida ijro, ijodkorlik kabi faoliyatlar qo'llanilsa, o'rta sinflarda dars asosan to'rta faoliyat: tinglash, kuylash va musiqa savodi va musiqa ijodkorligi asosida olib boriladi.¹³

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma'naviy tarbiya berish. Shuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o'qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o'zlashtirini emas, balki o'quvchilar ongini voqelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madoniyatini tarkib topirish va boshqa ichki his-tuyg'ularini shakllantirish nazarda tutiladi. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa darslar dan farq qiladi:

1) U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal - xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2) Musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, ya'ni «til» (kuy, lad, dinamik belgilari, temp, alteratsiya belgilari, intervallar) bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so'z bilan

¹³ G. M. Sharipova "Musiqa va uni metodikasi" O'quv qo'llanma "Turon-Iqbol" Toshkent 2006

tasviriy san'at ranglar bilan, raqs san'ati harakat bilan ifodalarka, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Yuqoridagi san'at turlarim ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chiqqan.

3) Musiqa aniq vaqt o'chovi bilan bog'langan san'atdir. Shuning uchun, ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementibiy diqqat bilan tinglamasak, asami mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asami qayta - qayta tinglaganda, uning yangi - yangi badiiy qirralarini his etamiz.

4) Musiqa bo'ialarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uygotadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo'lib chiqadilar. Xullas musiqa darsi o'zining faol psixologik ta'siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

5) Musiqa aniq vaqt o'lchoviga ega.

Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tasviriy san'at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsnii hayot bilan bog'lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Musiqa darsining tuzilishi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, bir darsning o'zida musiqa ta'limini, mustaqil faoliyatini birlashtirish talab qiladi. Musiqada dars jarayonlari quyidagi faoliyatlar orqali nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida olib boriladi.

1. Musiqa tinglash
2. Jamoa bo'lib kuylash
3. Musiqa savodi
4. Musiqa ijodkorligi

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqa darslarining boshqa darslardan qanday faqrli tomonlari mavjud?
2. Musiqa darslari qanday faoliyatlar asosida olib boriladi?
3. Musiqa madaniyati fanining o'ziga xos xususiyatlari nimada deb bilasiz?

Mavzu yuzasidan testlar:
1. Musiqiy tarbiyaning mazmuni va shakli nima orqali belgilanadi?

- a. Musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari
- b. Musiqa tarbiyasida qo'llaniladigan metod va texnologiyalar
- c. Musiqa tarbiyasida foydalaniladigan vositalar orqali

2. Maktabda musiqa o'qitishni tashkil etishning asosiy shakli bu

- a. Musiqa darslari
- b. Musiqa to'garaklari
- c. Fakultativ musiqiy faoliyatlar

3. Umumta'lim maktablarida musiqiy faoliyatlar qanday shakllarda olib boriladi?

- a. Dars, to'garak va fakultativ shakllarida
- b. Dars va to'garak shakllarida
- c. Dars va fakultativ shakllarida

4. Musiqa darslari nechta faoliyat asosida olib boriladi?

- a. 4 ta faoliyat orqali
- b. 3 ta faoliyat orqali
- c. 5 ta faoliyat orqali

5. Musiqa fanining boshqa fanlardan faqrli jihatlari ko'rsatilgan qatorni toping?

- a. Badiiyligi, ko'plab musiqiy fanlarni o'zida jamlaganligi hamda musiqiy faoliyatlar asosida olib borilishi.
- b. Dars shakli va maznuni orqali
- c. Darsning tuzilishi va uni tashkil etuvchi faoliyatlar ketma-ketligi orqali.

2.5 Musiqa darsining umumdidaktik tamoyillari

Tayanch tushunchalar: *Prinsiplar (tamoyillar), didaktik tamoyillari, sistemlilik, ilmiylik, davomiylik ongillik, aktivlik, ko'rgazmalik, o'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi va Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustaxkamligi tamoyili.*

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u didaktik prinsip (qonuniyat)larni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Ta'lim qonuniyatlari bu - o'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar yig'indisidir.

Ta'lim prinsip (tamoyil)lari deb, ta'limning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o'qitish uchun asos bo'ladigan qonuniyatlar, qoidalar aytamiz. Ta'lim qonuniyatlari o'quvchi va o'qituvchi orasidagi eng muhim ichki ahamiyatni aks ettiradi¹⁴.

Ma'lumki, qonuniyat-bu barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari: usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta ko'rish, takomillashtirish kerak. Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash ko'nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning ongillik, puxtalik, ta'sirchanlik qoidalarini harakterlaydi. Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosda intensivlash o'z aksini topishi kerak. Har bir o'qituvchi

shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali ko'rish - bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir. O'qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e'tiborga olish zarur.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, "didayko" - o'qitish. "didaskoya" - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. "Didaktika" ning so'zma-so'z tarjimai ta'lim nazariyasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta'lim qoidalarini, usublari hamda tashtliiy shakllarini o'z ichiga oladi. Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo'yadi. Ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Demak, didaktika "nimaga o'qitish": "nimani o'qitish" va "qanday o'qitish" kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi. Didaktika va metodikaning maqsadi: ta'lim berish, o'qitish, o'rgatishni amalga oshirishdir. Didaktika termini dastlab XVII asrda chex pedagogi Ya.A. Kamenskiy tomonidan ishlatilgan. U "Buyuk didaktika" asarida (1657 yil) didaktikaning asosiy masalalarini ishlab chiqqan. XIX asr o'rtalaridan pedagogikaning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlandi. O'zbekistonda dastlab jaddid maktablarida didaktikaning tamoyillarini ishlab chiqishga harakat qilingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda didaktika sohasi avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolgani holda yangiliklar bilan boyitilib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda didaktikaga tarbiyadan alohida holda qaralmaydi. U yoshlarni tarbiyalashdagi umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

¹⁴ Z.U.Mamirova "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyalari" O'quv uslubiy majmuva Toshkent-2021

Yoshlarga ta'lim berish jarayoni jamiyat taraqqiyoti, fantexnika taraqqiyoti, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadi bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o'zgarishi didaktika printsip-lari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o'zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi. Barcha fanlarni o'rganishda didaktik printsip-lar muhim o'rin tutadi. Didaktik printsip-lar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktik tamoyillarga o'qitish va o'qish jarayonida qoidalar sifatida rioya qilinishi zarur. Ular bir-biriga bog'lanib ketadi, quyidagi printsip-lar o'qitish va o'qish jarayonini samarali tashkil qilish bo'yicha qoidalar bo'lib, ular uzoq vaqt davomidagi tajribaga asoslangan.

Musiqaviy didaktika, uning birlashtiruvchi vazifasi hamda uning xususiy didaktikalari va musiqiy ta'limning mavzuli metodikasi bilan bog'liqdir.

Musiqaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari:

1. Musiqiy ta'limning jarayoni, printsip-lari, mazmuni, usullari, shakllari. Musiqiy ta'lim mazmuni umumiy madaniyatning rivojlanishiga va jamiyatning musiqa san'atiga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq. Shuning uchun musiqiy ta'lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, musiqa materiali, ta'lim usullari va shakllarini tizimlashtirish lozim. Musiqa sabog'i tarbiyalanuvchi shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta'lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga yosh avlodga oliy insoniy fazilatlar tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta'limshunosligi hamda o'qitish uslubi-yotiga tayanish lozim. Musiqa ta'lim tarbiyasi mazmunida esa milliy musiqa merosimiz asosiy o'rin tutadi. Milliy musiqamiz qonuniyatlariga qiyoslab, o'zga xalqlar musiqa madaniyati bilan tanishish, ya'ni "ta'limda umuminsoniy va milliy - madaniy qadriyatlarining ustuvorligi"ga amal qilish musiqa o'qitishning muhim didaktik yo'nalishi hisoblanadi.

2. Musiqa ta'lim-tarbiyasining maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga qila oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyat-larni idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining

musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr ishtiroqini oshirish, musiqa-dan bilim va amaliy malakalar doiralarini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarni musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shartsharoitlar yaratib berish, maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish-musiqa faniga jamiyatni madaniy - ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini hal etishda tajribali o'qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o'qitish uslubi-yotini ilgor tajribalar va kompleks ilmiy-metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etiladi. Ta'lim jarayoni ikki shaklda - dars va sinfdan tashqari musiqiy mashg'ulotlar tarzida amalga oshiriladi. O'qitishning asosiy va barcha o'quvchilar uchun zaruriy shakli musiqa darsidir. Shu bois dars tuzilishlari va o'qitish usullarining xilma-xil shakl va turlarini qo'llash hamda tajriba jarayonida darsning yangi usul va tuzilmalarini kashf etish dolzarb masala bo'lib turadi. Bundan ko'proq Sharq va milliy musiqa ta'limshunosligini o'rganish va undan unumli foydalanish muhimdir.

3. Ta'lim printsip-lari jamiyat ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib pedagogika nazariyasi va amaliyoti yutuqlariga ko'ra o'zgarib takomillashib boradi. Tarixda ta'lim printsip-larini aniqlash bo'yicha turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan.

Masalan: XVII asrda Ya. A. Komenskiy ta'lim printsip-larini tabiatga qiyoslab o'rganishni ya'ni o'quvchilarga tabiat qo'ynida bevosita ta'lim berishni, tabiatda qanday mutanosiblik bo'lsa, ta'limda ham xuddi shunday mutanosiblikka erishishni taklif etadi. XVII-XVIII asrlarda madaniy jihatlardan mutanosiblikka erishish printsip-lari ilgari suriladi. Hozirda ta'limning ilmiylik printsipi, o'quvchilar imkoniyatlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish printsipi, ko'rgazmalilik printsipi, ta'limda muntazamlilik va davomiylik printsipi, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligi, ta'lim va tarbiyaning tarbiyaviy xarakteri kabi ko'pgina printsip-lari mavjud. Musiqa darsi pedagogikaning didaktik nazariyasi va printsip-lari, ta'lim amaliyotining umumlashma nazariyasi asosida tuziladi. Mazkur printsip-lar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa

darsini mazmunini va darsning tizimidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi va bir necha turga bo'linadi:

1. Musiqa ta'limi va tarbiyasida ilmiylik, sistemaliik va davomiylik tamoyili.
2. Darsda o'quvchilarning ongillik va aktivlik tamoyili.
3. Musiqa madaniyati darslarida ko'rgazmalik tamoyili.
4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi tamoyili.
5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustaxkamligi tamoyili.

Mazkur printsiplar asosan, o'quv materiallarining qo'llash, musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi, qayd etilgan umumdidaktik printsiplar bir - biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa darsini davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqa faoliyatini izchilligini ta'minlaydi.

1. *Musiqa ta'limi va tarbiyasida ilmiylik, sistemaliik va davomiylik tamoyili.*

har bir darsda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosida tashkil topishi lozim. Ilmiylik prinsipi ilmiy bilimlarning o'quv faoliyatidagi o'rnini ochib beradi. Agar o'quv materiallari narsalarning faqat tashqi, kuzatiladigan xususiyatlarini yoritisa, bunday bilim ilmiylik darajasiga yetmagan bo'ladi. Agar o'quv materialni bilan qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb atalardi. Ular o'quvchini aqliy rivojlantiradi. Faqat ana shunday bilimlardagina o'quv fanining ilmiy mazmunini o'zlashtirib olishga kelgusida esa fanni egallab, mehnatda faol ishtiroq etishga imkon beradi. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqa o'ld qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish-musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish demakdir. Dars jarayonida o'quv materiallarini bolalarning bilim tajribasiga mosligi. Bolalar ovozinig rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri

o'rgatish, bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish darsining ilmiyliklarini tashkil etadi.

Maktablarimizda ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi ta'lim jarayonida o'quvchilarning tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi qonun va qoidalarini dialektik materialistik asosda egallab olishlarini, atrofini o'rab olgan ob'yektiv borliqdagi predmet, narsa, hodisa va voqealarning bir-biriga bog'liqligi, hamisha harakatda va rivojlanishda ekanligini ilmiy asoslarini anglab olishlarini, fakt va hodisalarni mustaqil tahlil qilish va xulosalar chiqarish, shunindek, ularga o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarning turmushda bilish ko'nikma va malakalarni hosil qilish talabalarining o'z ichiga oladi.¹⁵

Ilmiylikni, sistemaliiksiz amalga oshirish qiyin. Sistemaliik

qator belgilarga ega:

- Tartibga solinganlik

- Tashkiliylik

- Yaxlitlik

- Rejalilik

- Davomiylik

Ta'lim jarayonini tashkil etishda bu belgilarga rioya qilish ta'limda sistemaliikni ta'minlaydi. Ta'limda sistemaliik va ketma-ketlik prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni aniq tartibda, tizimda bo'lishini ifodalaydi. U ta'lim jarayonini mantiqiy qurilishini talab etadi. Ta'limda tizimlilik va ketma-ketlik prinsipi qator didaktik qoidalariga amal qilishni talab etadi:

- Bilimlar tizimini o'zaro aloqadorlik asosida shakllanishi;
- O'rganilayotgan materialni mantiqiy aloqador bo'lim va bloklarga ajratish;

- O'quv materialini mantiqiy tasvirlovchi sxema, reja, tablitsa, tayanch konspektlar, modullardan foydalanish;

- Predmetlararo aloqadorlikka amal qilish;

- Umumlashtiruvchi va sistemali darslarni tashkil etish;

Ta'limning sistemaliik prinsipi o'quvchilardagi ilmiy bilimlarni mustahkam va chuqur bo'lishiga asoslanadi. O'quvchilardagi atrof-muhat to'g'risidagi bilimlar, o'quv materiallari o'quv

¹⁵ Z.U.Mamirova "Metodika fanlarni o'qitish texnologiyalari" O'quv uslubiy majmua Toshkent-2021

jarayonida ketma-ketlik asosida chuqurlashtirilib borilsagina ularda mantiqiy fikrlash rivojlanib boradi va ular o'quv materialini oson o'zlashtiradilar.

O'quvchi bilimlarining ilk manbaini, narsalarning, hodisalarning o'zaro munosabatlarini tasavvur eta bilishlari shart. O'quv materiali fanning maxsus ishlangan asoslari, qismlari, qoidalari, bo'linmalaridan iboratdir. Fandagi bilimlarning maktabdagi o'quv materialiga asos qilib olinishini to'g'ri tushinib yetish shart. O'quvchi tomonidan materialni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirish usullariga bog'liqdir. O'qituvchining mahorati va yaxshi tayyorgarligi o'quvchilar tomonidan bilimlarni puxta va tizimli tarzda o'zlashtirishga asos bo'ladi. Musiqa darsning barcha o'quv faoliyati hamda keyingi darslarning o'zaro mantiqiy bog'lanishi sistemalik asosini tashkil etadi. Kuylash va tishlash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, noma'lumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish printsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, sistemalik demakdir. Darsning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir darsning mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadli tobora amalga oshirishi davomiylik printsipti demakdir.

2. *Darsda o'quvchilarni ongillik va aktivligi tamoyili.* Ongillik deganda, o'rganilayotgan temaga oid qonuniyat, ta'rif va faktlarni asosli egallash, xulosa va umumlashlarni chuqur, atroflicha fahmlash, tema yuzasidan bilimlarni izchil va to'g'ri bayon qila olish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalana bilish kabilar tushuniladi. Ongillik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan printsiptir. Bilim malakalarni ongli o'zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega:

-ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash;
-faktik materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish;

-bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarini sezish;

-tema yuzasidan o'zi erishgan natijalarni baholay bilish.

Faollik esa, o'z navbatida bolalarda mustahkamlikni tarbiyalash uchun asos bo'ladi. Bu printsiplar bir-birini

to'ldirilgan hodisalar bo'lib, ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin. Faollik tashqaridan ichkariga yo'nalgan jarayon sifatida tasavvur etilsa, unda bolalarda mustahkamlikni shaxsiy sifat shaklida tarbiyalashni anglaymiz. Agar faollik ichkaridan tashqariga yo'nalgan jarayon sifatida qaralsa, unda insonning ichki intilishlari, emotsiyalari, qiziqishlari mustaqillikni shakllantirish vositasi ekanligini tan olishga to'g'ri keladi.

Ta'limda ongillik o'quvchilarning ilmiy bilimlarini asosli ravishda anglab, chuqur o'zlashtirib olishlarini taqozo qiladi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida ongillik bevosita ularning aqliy faoliyatlari bilan fikr qilish faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Odatda o'quvchilarning ongilligi bayon qilinayotgan o'quv materiallarini yoki tevarak atrofini o'rab olgan ob'ektiv borliqdagi narsa, hodisa, voqealarini fikr qilish operatsiyasi-taqqoslash, analiz qilish, abstraksiya va umumlashtirish natijasida ilmiy bilimlarning qonun-qoidalari hayotiylikiga ishonch bilan qarashlarida, shuningdek nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarida ko'rinadi. Bayon qilinayotgan o'quv materiallarining ongli o'zlashtirilgani o'quvchilarning fikr qilish faoliyatlariga ta'sir qilishi kuzatish natijasida ro'yobga chiqadi va ayni bir vaqtda bu jarayon o'quvchilarning ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash o'zlashtirishlarga ongli, mustaqil, faol munosabatda bo'lishlarini ta'minlaydi.

Ta'limni ongli o'zlashtirishda, bir tomondan, o'quvchilarning mustaqil va faol fikr qilishlari nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida o'quvchilarning mustaqil va faollik bilan mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borish nazarda tutiladi. Bu prinsip o'quvchilarning bilish faoliyatida va dars berishda asos qilib olingan qoida sifatida uchta muhim jihadni:

- o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini ongli ravishda tushinilishi, o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishni, bilish faoliyatining shakllanishini o'z ichiga oladi.

O'quvchilar o'quv materialini faqat faol bilish faoliyati jarayonidagina tushunishi, o'quv mashg'ulotlariga ongli

munosabatda bo'lishini, bilish faoliyatining darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Eng yuksak daraja. O'quvchi qiziqishi va o'qish istagi borligi uchun mustaqil ravishda mehnat qiladi. Uning darsdagi faolligi, mehnatsevarligi, bilimga tashnalligi oqibatida yuz beradi. Bu o'rinda o'qituvchining ro'li o'quvchiga o'z o'qish vaqtini to'g'ri tashkil etishga yordam berishidan, unga aqliy faoliyatining ratsional usullarni o'rgatishdan iboratdir.

Yuksak daraja. O'quvchilar materialni faollik bilan, lekin o'qituvchining rahbarligi ostida o'rganadilar. O'qituvchi ularga qiyinchiliklarni yengishga, qat'iyatli, irodali bo'lishga yordamlashgan holda ular faoliyatini yo'naltirib boradi.

O'rtacha daraja. O'quvchilar mazmuni o'zlashtirib olishga intiladilar, ammo turli sabablarga ko'ra, ya'ni yaterli ish qobiliyatiga ega bo'lmagani, o'qish sabablarini yuksak bo'lmagani, asab sistemasini o'rijligi va shu kabi sabablarga ko'ra alaxsiydilar, diqqat-e'tiborsiz bo'lib qoladilar. Bunday sharoitlarda o'qituvchi o'quvchining alaxsish sabablarini yaxshi tushinib yetishi va profilatka tarzida ta'sir o'tkazish vositalarini oldindan rejalashtirib qo'yishi

Past daraja. O'quvchilarning diqqat-e'tibori boshqa narsalarga ham ko'chib qoladi. Ular o'qituvchining izohlariga, kitobga, amaliy mashg'ulotlarga, mustaqil ishlashga uzoq vaqtga qadar diqqatini qarata olmaydilar. Lekin o'quvchilar o'quv vazifasini anglaydilar va ularni yechish lozimligini tushinadilar. Odatda bunday o'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etishni talab qiladi.

Eng past daraja. O'quv vazifasi o'quvchi faoliyatini belgilamaydi. U materiallarni zarurat bo'lganligi uchun o'zlashtiradi, ichki g'ayrat va omil tufayli emas, balki o'qituvchi, ota-onalar, katta yoshdagilar majbur qilgani uchun o'qiydi. O'quvchilarning faolligi o'quv jarayonida aloqasi yo'q faoliyati turlariga yo'nalgan bo'ladi. Odatda bunday o'quvchilar yomon o'qishadi, ular individual yondashuvni talab qilishadi. O'quv jarayonida uddaburonlik bilan rahbarlik qilish orqali maktab o'quvchilarning bilish faolligini yuksak darajada olib chiqish vositalarini topsa bo'ladi.

Mazkur printsipl didaktikaning yetakchi printsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish o'quvchining aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini ustiradi. Mazkur malaka va ko'nikmanmg shakllanishi bola ongning uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallami ongli ravishda bilib o'zlashtirishi, bilim jarayonini aktivligini vujudga keltiradi. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy - estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng avvalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, ongillik va aktivlikni vujudga keltiradi Musiqani ongli idrok etish va navbatida badiiy ohang va mantiqiy jixatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa darslarida ongillik va aktivlik ayniqsa, vokal - xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlari ham, ongillik va aktivliq musiqani nazariy va amaliy jixatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

3. *Musiqa darsida ko'rgazmalilik tamoyili.* Pedagogika tarixida ko'rgazmalilik printsipl birinchilardan bo'lib shakllangan. Ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. O'quv material qanchalik turli sezgi organlari orqali ta'sir etsa, materialni mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu qonuniyat didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipida o'z ifodasini topgan.

Ko'rgazmalilik printsipl o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi.

Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi printsipl o'quv materiallarini o'quvchilar konkret obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ko'rsatmali materiallarni qaysi yo'l bilan idrok qilishdan qat'iy nazar, to'g'ri tashkil qilingan ko'rsatmalilik printsipl ta'limning yetakchi qonun-qoidalar va talablarni amalga oshirishda juda muhim didaktik masalalarni o'z ichiga oladi, ayniqsa:

1) bayon qilinayotgan mavzuni harakteriga mos keladigan ko'rsatmali materiallardan umumli va to'g'ri foydalanish o'quvchilarni o'tilayotgan materiallarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Dars qiziqarli o'tadi, sinf o'quvchilarining faolligi oshadi.

2) ta'limda qo'llanilayotgan ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning qanchalik yaqqol va konkret, obrazli idrok qilinishini ta'minlash va kuzatayotgan ob'ektga mumkin qadar sezgi organlari safarbar qilinsa, o'quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o'zlashtiriladi, uzoq vaqt esda saqlab qolish hamda qayta esga tushirish mumkin bo'ladi. Oqibatda o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi-o'ziga ko'rgazmali vositadir. Chunki, u ko'z bilan emas, balki quloq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida ijro etib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari ham, musiqa darsida ko'rgazma sifatida muhim rol o'ynaydi.

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'qishga qiziqish shakllanadi, kuzatuvchanlik, diqqat, fikrlash rivojlanadi.

Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilishning qator qoidalar ishlab chiqilgan:

Ko'rgazmalilik o'rganilayotgan predmet va hodisalarni mohiyatini ifodalashi, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan mazmuni aniq va ravshan ko'rsatish;

-100 marta eshitgandan, 1 marta ko'rgan afzal;

-Bola ko'rganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi;

-Ko'rgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish;

-Ko'rgazmalilikni me'yoridan oshirib yubormaslik;

-Ko'rgazmalilikka nafaqat o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni ishonchligini tasdiqlash uchun, balki bilimlar manbai sifatida qarash;

-Bolalar yoshi ulg'aygan sari predmetli ko'rgazmalilikni shimvulli ko'rgazmalilik bilan almashtirish;

-Ko'rgazmalilikning turli-tuman turiaridan foydalanish;

-Ko'rgazmalilik estetik tarbiyalashi kerak;

-Turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshini hisobga olish.

4. *O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi tamoyili.*

Mazkur printsip, dasturdan tanlab olingan o'quv materiallari va mazkur metodik materiallar asosida dars mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir sinfning umumiy bilim va malaka darajasi hisobga olinishi shart. Dastur asosida har bir sinfning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqa darsining yarim yillik kalendar - mavzuli rejasini tuziladi. Kalendar - mavzuli ish reja bir yilda ikki marta, o'quvchilarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, dars faoliyatlariga qarab tuziladi.

5. *Musiqa darslarida bilim va malakalarining mustaxkamligi tamoyili.* O'qitish vazifalaridan biri o'quvchilarni har doim amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlaridir. Mustahkamlik tamoyillari o'quvchilarni tez va aniq eslanadigan, xotirada uzoq saqlanadigan, amalda mohirlik bilan qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish zarurligini anglatadi. Musiqa darsi faqat tizimi bilim beribgina qolmay, balki o'quvchilarning fan asoslarini puxta egallashlarini ham ta'minlashi kerak. O'qituvchi bu mustahkamlikni ta'minlaydigan maxsus usul va vositalarni bilishi zarur. Masalan, musiqani idrok qilishni shakllantirish, qo'shiqni badiiy ijro etish va musiqa savodidan olgan bilimlarni o'zlashtirishning mustahkamligini ta'minlash hamda o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish uchun takrorlashning bir necha turiaridan foydalaniladi.


Joriy takrorlash yoki boshlang'ich mustahkamlash o'quvchilarning hozirgina tinglagan musiqasini esga tushurishlaridir. Takrorlashning bu turi tarkib topgan tasavvur va

tushunchalarning yo'qotilishini oldini olish uchun bevosita o'qituvchi tinglangan musiqa haqidagi suhbatidan so'ng amalga oshiriladi.

Umumlashtiruvchi takrorlash kengroq darajadagi umumlashtirishlarni qo'llash imkonini beradi. Butun mavzu o'tib bo'lingach, umumlashtiruvchi xulosalar chiqariladi, musiqiy faoliyat turlari o'rtasida aloqalar o'rnatiladi, bilimlar tizimlashtiriladi.

Obrazli takrorlash egallashi lozim bo'lgan asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Chorak oxirida yaxlit bir mavzu hatto bir necha qo'shiqlarni obrazli yoritishda obrazli takrorlashdan foydalanish mumkin. Takrorlashning aytib o'tilgan turlaridan foydalanish o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarining mustaxkamligini ta'minlashi lozim.

Takrorlash tizimli va o'z vaqtida bo'lishi kerak. Takrorlash jarayoniga xilma-xillik kiritish, e'tiborni musiqa faoliyatlariga qaratish, noaniqliklar va yuzaga keluvchi xatolarni bartaraf qilish, mavjud bilimlarni va ularning tegishli ko'nikma hamda malakalar bilan aloqasini chuqurlashtirish lozim. Musiqa tinglash va qo'shiq kuylashni ko'p marta takrorlash ta'sirli vosita hisoblanadi.



BURDA NOTALARNI QO'YIB, UZBANDI YERLERNI O'QIBKETSIZIZ. HIRSIYAN BIR NOTANIN DO-RE-MI-LERNI BILMATA YARDIMCI OLACAS BIR KESIM



Yapmasiz garkim, hangi nota hangi arabga veya hangi cagye denk geyim oza bakmasiz. Burtada Sol aniktan degumedece. Notilarn yen ve imi ada degumez.

Shuni uqtirib o'tish lozimki, o'qitishning barcha tamoyillari bir-biri bilan chambarchas va uzviy bog'langan. Ko'rgazmalilik bilimlarning ongli va faol egallanishga yordam beradi. Ongda qayta

ishlangan, kuylashda ongli va to'g'ri ifoda qilingan musiqa asarlari mustahkam egallanadi. O'quvchilarga tushunarli bo'lgan asarlar, ya'ni ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda tayyorgarlik darajasiga mos keladigan asarlar ongli o'zlashtirilishi mumkin. Tizimlashtirilgan bilim puxtaroq o'zlashtiriladi.

Mazkur printsiplarini amalga oshirishining eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta printsiptiga jiddiy amal qilishdan iboratdir. Birinchidan bilim va malakalarning chuqurligi, mustaxkamligi va hayotiyligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zarur ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilish lozim.

Ikkinchidan asarlarini tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

a) asarning bolalarni ma'naviy va axloqiy tarbiyasini uchun mosligi.

b) musiqa ta'limining xususiyati.

v) sinfdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqтира olish va to'la o'zlashtirishga erishish.

Uchinchidan darsda olinadigan bilimlar doirasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustaxkamlash. Masalan: Qo'shiqlarni jummalarga bo'lib o'rgatish va keyingi darslarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan musiqa darslarida har bir yangi bilim elementa dars faoliyatida to'liq o'zlashtiriladi va keyingi darslarda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?

2. Ta'lim prinsip (tamoyil) lari deganda nimalarni tushunasiz?

3. O'zbekistonda dastlab didaktikaning tamoyillarini kimlar tominidan ishlab chiqilgan

4. Musiqa darsida qanday umumdidaktik tamoyillaridan foydalaniladi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. "Didaktika" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

a. Grekcha so'z bo'lib, "didayko" - o'qitish. "didaskoya" - o'rgatuvchi.

b. Inlizcha so'z bo'lib, "didayko" - o'qitish. "didaskoya" - o'rgatuvchi

c. Fransuzcha so'z bo'lib ta'lim nazariyasi ma'nosini anglatadi.

2. Pedagogika tarixida birinchilardan bo'lib shakllangan, ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etadigan ta'lim tamoyili qaysi?

a. Ko'rgazmalilik tamoyili

b. Onglilik tamoyili

c. Sistemalilik tamoyili

3. Sistemalilik tamaoyili qator belgilarga ega bo'lib ular quyigilarni tashkil etadi.

a. tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik. rejalilik, davomiylik

b. 100 marta eshitgandan, 1 marta ko'rgan afzal, Bola ko'rganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi, ko'rgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish.

c. bilimlarni o'rganish, mustahkamlash, takrorlash jarayonlarini sezish, tema yuzasidan o'zi erishgan natijalarni baholay bilish

4. Didaktika termini dastlab qachon, kim tomonidan qo'llanilgan?

a. XVII asrda chex pedagogi Ya.A. Kamenskiy

b. XIX asr o'rtalaridan L.N.Tolstoy

c. XX asrda K.D.Ushinskiy

5. Bir tomondan, o'quvchilarning mustaqil va faol fikr qilishlari nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida o'quvchilarning mustaqil va faollik bilan mantiqliy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalashga qaratilgan tamoyil qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

a. Onglilik tamoyili

b. Ilmiylik tamoyili

c. Ko'rgazmalilik tamoyili

2.6. Musiqa o'qitishda metodlar va ularning turlari

Tayanch tushunchalar: Metodika, metod, xususiy (optimal) metodlar, umumlashtirish metodlar, Oldinga "yugurib o'tish" metodi, Emotsional dramaturgiya metodi, pedagogik kuzatilishi va bilimlarni baholash metodi, o'yin metodi, taqqoslash metodi

O'qituvchi bilan o'quvchining o'quv vazifalarini hal etishga qaratilgan o'zaro bog'langan faoliyati yo'llari va usullarini o'qitish metodlari deb atash qabul qilingan. Metodlar pedagogning asboblari. U metodlardan foydalanib bilim beradi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantiradi hamda rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hamma o'qitish metodlarini mukammal bilish va ulardan moxirona foydalanish pedagog uchun kasbiy zarurat va ayni vaqtda uning mahorat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Metodika o'qilayotgan fan xususiyatlarini, o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda didaktikaning printsiplari asosida o'quv-musiqiy materialning o'zlashtirilishi yo'llarini amalga tatbiq etadi.

Metod yunon tilidan olingan bo'lib, "izlanish yo'li", "o'rganish vositasi" ma'nolarini anglatadi. Fan va san'atning yirik namoyondalari o'z risolalarida musiqa darslari san'at darsi sifatida juda katta tarbiyaviy potentsialga ega ekanligini ta'kidlab kelganlar.¹⁶

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi:

1) yalpi umumiy bilish metodari - hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo'llaniladigan umumiy va universal metodlar - metodologiya;

¹⁶ O'.Asqarova, M.Nishonov - "Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi" Toshkent-2019

2) umumiy bilish metodlari - bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi) da qo'llaniladigan bilish metodlari;

3) xususiy yoki maxsus metodlar — ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlari.

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har bin metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozalar hisobga olinadi. Forobiyning fan va san'atning afealligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olimlar o'zlarining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishonitirish kerakligini uqtirgan.

Metod o'z tuzilishi jihatidan murakkab bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ko'pgina jihatlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim metodlari ko'p jihatdan o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlarini tanlash o'quvchining hissiy tajribasi asosida tafakkurning abstrakt shakllarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

O'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'l'dir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib bo'lishi

kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq boiishi zarur. Shundaygina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunariligi: o'qitishning yo'l o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning ongliklik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosilligi.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Musiqqa o'qitish metodlari "Musiqqa madaniyati" darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyatlari asosini tashkil etadi. O'qituvchi - bu faoliyatni boshqaradi. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan barcha metodlar o'quvchilarda axloqiy, badiiy didni *tarbiyalash*, musiqiy qobiliyatlarini *shakllantirish*, musiqiy idrokni *boshqarish*, ijodiy faollikka *undashga* qaratilgan bo'lishi lozim.¹⁷

Musiqqa faoliyati turlarini o'zlashtirishning turli shakllarini qidirish musiqqa darsining maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Masalan, qo'shiq aytish qoidasini tushuntirishdan avval u nima maqsadda bolalarni ifodali kuylashga o'rgatish uchunmi yoki ana shu qoida yordamida ularda badiiy didni shakllantirish uchunmi, yohud o'quvchining umumiy nutq madaniyatini oshirish uchunmi, o'rganilayotganini aniq bilishi kerak.

Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda pedagogikaning amaliy yo'nalishini xususiy (optimal) metodlar

¹⁷ M.Xo'jayeva "Umumta'lim maktablari da musiqqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma 2-nashr Toshkent 2008

egallab, musiqa darsida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Baholashda shunday ehtiyotkor bo'lish kerakki, o'quvchilarni kayfiyati tushib ketmasin. Darsga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa aksincha. O'qituvchi va o'quvchi munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish sinfda boshqa o'quvchilarga namuna bo'lib xizmat qilish va ular odobli, aqlli bo'lishga intilishi kerak. Shunday qilib, musiqa o'qitish metodlarini umumiy turlari ham mavjud.

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodi.
2. Ko'rgazma-informativ o'qitish metodi.
3. Amaliy o'qitish metodi.
4. O'yin metodi.
5. Taqqoslash metodi.
6. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishiash metodi.

1. **Musiqa o'qitishning og'zaki metodi.** Musiqa darsida o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrlil musiqa olamiga olib kiradi. Hikoya yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga erishadi. Asosan, bu metoddan boshlang'ich sinfda ko'proq foydalaniladi.

Hikoya – bu o'qituvchining musiqa asari haqida jonli, emotsional yorqin bayoni. Hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi o'quvchilarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.

Suhbat – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularni nutqini o'stiradi, fikrlash faoliyatini kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Tushuntirish – ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darsida qo'llaniladi.

Bu asosan musiqa savodi faoliyatlarida, qo'shiq aytdirish va ritmik harakatlarda qo'llaniladi.

2. Ko'rgazma-informativ o'qitish metodi. Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va tovushlardan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organlari quloq orqali tinglab, idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa nota yozuvlari, plakatlar, rasmlar, dirijorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi texnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy ta'lim-tarbiyada ko'rgazmalilikning eshituv ko'rgazmaliligi, harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmaliligi turlari mavjud. Eshituv ko'rgazmaliligi - bu musiqaning ifodali ijrosidir. Jaranglayotgan musiqa darsning barcha qismlari asosi bo'lib xizmat qiladi. «Musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi», deb yozadi N.L.Grodzenskaya. Musiqani tinglash, eshitish, idrok etish murakkab ish, chunki har bir musiqiy asarning mazmuni doimo harakatda va o'zaro bog'liqlikda bo'lgan ifoda vositalari majmuasi bilan beriladi. Shuning uchun o'quvchilarda avvalo tinglovchilik malakalarini rivojlantirish lozim, ya'ni musiqani doimo boshidan oxirigi tovushigacha tinglash, «kuzatish»ga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda o'qituvchining so'zi musiqiy obrazlar olamini tushunish, his etishga yordam beradi.

3. Amaliy o'qitish metodi. Amaliy metodlar vositasida o'quvchilar vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirilishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar vokal - xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Amaliy metodlar o'quvchilarning mashqlar, shuningdek, laboratoriya va amaliy ishlar ko'rinishidagi xilma-xil faoliyatidan iboratdir. Bu metodlar yangi bilimlarni egallash va avval olingan bilimlarni mustaxkamlashga xizmat qilishi mumkin, lekin ularning asosiy vazifasi-olingan bilimlarni amalda turli sharoitlarda qo'llashga o'rgatish hamda o'quvchilarda ko'nikma va malakalar hosil qilishdir.

Amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal-xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil

etish, uning janr va shakllarini aniqlash hamda nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llaniladi. Masalan, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda, nota yozuvini yoki musiqaga qadam tashlashni o'rganishda asosan mashq metodidan ko'proq foydalaniladiki, ular har xil faoliyat turlarida qo'llaniladi. Amaliy metodlarga mashqlar ham kirishini yuqorida ta'kidlab o'tdik. Ulami bajarishda o'quv axborotlarini shunchaki og'aki yoki ko'rgazmali idrok qilish sodir bo'libgina qolmay, balki olingan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llash amalga oshiriladi. Amaliy mashqlar metodidan foydalanilganda olingan nazariy bilimlarni amalda yaxlit qo'llashni to'liq darajada ta'inimlash imkonini beradigan mashqlar tuzimini tanlash juda muhimdir.

4. O'yin metodi - boshlang'ich sinflarda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari serharakat va o'yinga moyil bo'ladilar. Darsda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar o'quvchilarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa darsiga qiziqish uyg'otadi. Musiqaviy o'yin asosan boshlang'ich sinflarda yaxshi natija beradi. Sinfdan kichik musiqaviy o'yinlar o'rganilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sinfdan o'rganilgan va keng maydon talab etuvchi kuy va qo'shiqlar amaliy ijro etiladi. Amaliy metodning asosiy sharti bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ulami baholashdir. Darsda musiqaviy o'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy xislatlar bo'ladi. Shuningdek o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar ham namoyon bo'ladi. Lekin sinfdan yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir. O'quvchilar, ayniqsa, o'smirlar o'z ishlarining xatolari yomon misol tariqasida butun sinfga ko'rsatilsa, ular juda xafa bo'ladilar. Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qilinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materiallarining muvoffaqqiyatli egallanishiga olib keladi.

5. Taqqoslash metodi. Musiqa darsi jarayonida kontrast, ya'ni taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal - xor ishlarida

o'qituvchi, o'quvchilar bilan gramyozuvdagi ijrolarini taqqoslashda musiqa asarining tahlili va janrlarni belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh janrlari, templari, turli cholg'u asboblardagi ijrolar farqini aniqlashda qo'llaniladi.

6. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi.

Musiqa o'quvi bo'shi bo'lgan o'quvchilar bilan dars jarayonida differensial guruhlarga bo'lib va darsdan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriladi.

Musiqa darsi jarayonida bu o'quvchilar quyidagi tartibda o'z o'rniga o'tkaziladi: birinchi qatorga o'qituvchini ovozigga tayanib kuylaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lmagan o'quvchilar, uchinchi qatorga qobiliyatli, ovozi jarangdor bo'lgan bolalar o'tqaziladi. Bunda ikkinchi qatordagi o'quvchilar musiqa ohanglarini atrofdagilardan eshitib, ularning ovozlari ergashib, chiroyli kuylashga harakatqiladilar.

Shu uslub bilan o'quvchilarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Ba'zi musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan darsdan keyin alohida, yakka tartibda shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari sozlanib, qo'shiqlar alohida o'rgatiladi. Shu tariqa hamma o'quvchilarni musiqaga qiziqishi, qo'shiq kuylashi, musiqa tinglash ishtiyoqi, qobiliyati, musiqiy o'quv bir xilda bo'lib, qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.¹⁸

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Metodning darsdagi qanday vazifalarni bajaradi?
2. Ko'rgazma-informativ o'qitish metodi qanday?
3. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan qanday turlarga bo'linadi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. "Metod" so'zi qanday ma'noni amlatadi?

- a. Yunon so'z bo'lib "izlanish yo'li", "o'rganish vositasi"

¹⁸ G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari" O'quv qo'llanma Toshkent 2014.

b. Inlizcha soʻz boʻlib, “didayko” - oʻqitish. “didaskoya” - oʻrgatuvchi

c. Arabcha soʻz boʻlib *bilish, anglash* maʼnolarini anglatadi.

2. Metod oʻz mazmuni jihatidan qanday shaklda boʻladi?

a. amaliy yoki nazariy

b. ilmiy va nazariy

c. ilmiy va uslubiy

3. Musiqa darslarida ogʻzaki oʻqitish metodining qaysilaridan keng foydalaniladi?

a. Tushuntirish, hikoya, suhbat

b. Evristik suhbat, oʻquvchilarning kitob bilan ishlashi

c. Tushuntirish, oʻquvchilarning kitob bilan ishlashi

4. “Musiqaning jonli yangrashida darsda asosiy koʻrgazma boʻlib xizmat qiladi” ushbu fikr muallifi keltirilgan javobni toping?

a. N.L.Grodzenskaya

b. I.Ya. Lerner

c. K.D.Ushinskiy

5. Taqqoslash metodlaridan musiqa darslarining qaysi faoliyatlarida keng foydalaniladi?

a. Jamoa boʻlib kuylash

b. Musiqa savodi

c. Musiqa tinglash

2.7 Musiqa darslarida kompyuter texnologiyalari va musiqiy dasturlardan foydalanish

Tayanch tushunchalar: Estetik tarbiya, kompyuter texnologiyalari, informatsion texnologiyalar, Sibelius, Windows Media Plaer, win Amp dasturlari.

Hozirgi davrda fan va madaniyatning eng soʻngi yutuqlari asosida kelajagimiz boʻlgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Istiqloq sharofati bilan Oʻzbekiston respublikasida keyingi yillarda muhim ijtimoiy siyosiy oʻzgarishlar roʻy berdi. Bu holatlar milliy musiqa

ustivorligi nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqilgan dasturlarda ham o'z aksini topdi.

Estetik tarbiya - hissiyotining shakllanishi va rivoji, go'zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan go'zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir. XXI asr musiqa pedagogikasining muhim yo'nalishlaridan biri - bu o'quvchilarni kompyuter - axborot texnologiyalari bilan tanishtirishdir. Ularni o'zlashtirish

birinchidan: professional kompozitor va ijrochilar tayyorlashda:

ikkinchidan: yordamchi o'quv materiali manbasi (ma'lumotnoma, tahrirlovchi, ta'lim beruvchi, ovoz ijro qiluvchi va h.k) sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Kompyuterlarning paydo bo'lishi "Musiq" "Tasviriy san'at" kabi badiiy estetik fanlar turkumini o'qitishda ham katta imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi davrda zamonaviy kompyuter texnologiyalari ushbu fanlarni sifatli va samarali o'qitishda ancha oldingi o'rinlarda turadi. Xorijiy va MDH davlatlari maktablarida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, badiiy estetik fanlarni, shu jumladan "Musiq" fanini o'qitishga ham kompyuter texnologiyalarini jalb qilishning imkoniyatlari juda katta bo'lib, u har xil metodikalar orasida keng istiqbolga egadir.

Musiq darslarida informatsion texnologiyalarni qo'llash, bolalar faolligi va dars samaradorligini oshiradi. Musiq darslarida kompyuter texnologiyalarin qo'llash, bolalarni faollashtiradi, ularni ijodiy yaratuvchanlikka undaydi. Ushbu holatda o'qituvchi shaxsi, obro'si va bilimi o'quvchiga yetarli darajada kuchli ta'sir ko'rsatadi va ancha vaqtgacha saqlanadi.

Kompyuter muhiti o'quvchllarning faollik chegarasini ancha kengaytiradi va kitobga nisbatan ancha intensiv suhbatdosh hisoblanadi. O'qituvchi mahorati, fidoiyligi, ma'naviy dunyosi, o'zi va bolalar atrofida go'zallik yaratishga intilishi, o'quvchining salohiyatini ochishi, estetik faoliyatda o'zini o'zi tushunishi uchun dastlabki pillapoya hisoblanadi. Shuhbasiz ushbu jarayonda o'qituvchi shaxsi asosiy yo'naltiruvchi hisoblanib, kompyuter esa o'quv jarayonda qo'yilgan vazifalarni hal qilishda elektron yordamchi vosita hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu

sharoitda o'qituvchi vazifasi ancha o'zgaradi, u ma'lumot manbasini bo'lishdan o'quvchilarning o'quv-organish faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi.

"Musiqa" fanining xususiyati va uni o'qitish metodikasi o'quvchilarning dars jarayonida kompozitor, ijrochi, tinglovchilar sifatida qatnashishlarini nazarda tutadi. Maktab ta'lim tizimining komponenti asosi o'quvchilarning o'z ustida ijodiy ish olib borishi uchun qo'shimcha vaqt ajratishni nazarda tutmaydi. Bu muammoni yechishda informatika va musiqa integratsiyalashgan maxsus kurs yordam berishi mumkin. Lekin bu ittifoq bir muncha g'ayri - tabiiy bo'lib ko'rinsada musiqani maktab fani sifatida o'qitishda va musiqa orqali san'at bilan muloqot qilishda katta o'zgarishlarga olib kelishi va buning natijasida o'quvchilarda oliy darajada musiqiy va estetik qiziqishlar uyg'onishi mumkin.

O'quvchilarning kompyuter bilan ishlay olishlari, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan erkin foydalana olishlari shubhasiz, ularda orzu - istaklar hosil bo'lishi, yangilik yaratishga intilishning shakllanishiga turtki bo'ladi. Kompyuter multimedia tizimi ko'rgazmali material, tovush va animatsiyadan foydalangan holda keng foydalanish imkonini yaratadi. Butun dars davomida o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishni yuqori darajada saqlab turadi. Musiqi tasviriy san'at, informatika kabi maktab fanlarining bir-biriga integratsiyalashishini ta'minlaydi.

Musiqi darolarida shaxsiy kompyuterlardan foydalanish va uni muntazam ravishda ta'lim muhitiga tadbiiq qilib borish, shubhasiz o'quvchilarga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi, bu esa ayniqsa musiqa asarlarini idrok qilish jarayonida yaqqol ko'rinadi. Musiqi faniga doir muammolar tegishli pedagogik-psixologik adabiyotlarda keng yoritiladi.

Estetika sohasi esa borliqni estetika qonuniyatlari orqali anglashni, uning diqqat markazida esa inson, inson bo'lganda ham sezuvchi, his qiluvchi inson turishini to'laqonli ochib beradi. Shuning uchun maktab, musiqa o'qituvchisi va ota - onalarning muhim vazifasi san'at turlarining barcha ta'sir vositalari kompleksini va yana shuningdek kompyuter vositalari orqali o'quvchilarning estetik tarbiyasi va ta'limiga kuchli ta'sir ko'rsatishidir.

Hozirgi davrda insonning ma'naviyat cho'qqilariga erishishida o'quvchilarni barcha bosqichlarda yangi kompyuter texnologiyalari orqali tarbiyalash muhim yo'nalishlardan biridir. "Estetik tarbiya" tushunchasi shaxs estetik madaniyati shakllanishidagi ko'p bosqichli murakkab jarayonlarning ustivor tomonlaridan biri sifatida tushuniladi. Bolalarni kuzata borib shu narsaga amin bo'lish mumkin, ularga estetik tarbiya, shunchalik erta, ayniqsa yangi kompyuter texnologiyalari vositasida berib boshlansa, uning natijasi shunga muvofiq, ya'ni har tomonlama yetuk shaxsning shakllanishiga shuncha ko'p yordam berar ekan. Estetik tomondan rivojlantirish o'z navbatida estetik tarbiya darajasini, estetik madaniyatning qanchalik o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Yuqori darajadagi bilimli va estetik tomondan tarbiyalangan shaxsni shakllantirish uchun badiiy va musiqiy materiallar yuqori darajadagi did va qunt bilan tanlanishi zarur.

O'zbekiston maktablarining deyarli barchasida kompyuter xonalari yoki kompyuterlar mavjuddir. Insoniyat zamonaviy yangi texnologiyalardan o'z foydasi, jumladan ta'lim sohasida ham qo'llamoqda. Yoshlarni yangi texnologiyalar nimasi bilan o'ziga jalb qiladi?

Bu eng avvalo kompyuter - informatsion texnologiyalaridir. Informatsion texnologiyalarning ta'lim berishda va badiiy ifoda vositasi sifatidagi, bolalar va o'smirlarni estetik tomondan rivojlantirish va badiiy tomondan tarbiyalashdagi imkoniyatlari beqiyosdir. Barcha kompyuter texnologiyalarining qulayligi (uch hajmli, animatsiya, videotasviriy texnikalar imitatsiyasi mavjudligi) kompyuterni o'qituvchi va o'quvchilarning ijod qilishi va o'z ustida ishlashlari uchun rivojlovchi ta'lim muhiti sifatida ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Lekin shuni ta'kidlash zarurki, kompyuterni faqat dars mavzularini yozish uchun qo'llaniladigan elektron vosita deb qaraysan, balki o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga, fikrlash, va ijod qilishga undovchi, interaktiv ta'sir ko'rsatuvchi vosita, musiqiy tomondan yo'naltiruvchi qurol deb qarash zarur.

Bu talablarni amalga oshirish uchun esa o'qituvchidan hech bo'lmaganda juda oddiy kompyuter dasturlarini o'zlashtirish talab

qilinadi. Bu esa o'z - o'zidan o'qituvchining o'z ustida doimo ishlashini, o'rganish - izlanishini talab qiladi. Hozirgi davrda kompyuterda musiqa bilan ish olib borish bo'yicha ko'pgina dasturlar mavjuddir. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1.Musiqiy proigrivatellar;
- 2.Karaoke kuylash dasturlari;
- 3.Musiqiy konstruktorlar;
- 4.Musiqiy qomusnomalar;
- 5.Ta'lim beruvchi dasturlar;

Shuningdek nota muharir Sibelius-1, 2, 3, 4, dasturlarni ham ko'rsatish mumkin. Birinchi guruh dasturlari shaxsiy kompyuter egalariining barchasiga tanish bo'lib, ular Windows Media Plaer, win Amp va boshqalardir. Bu dasturlarning imkoniyatlari juda keng bo'lib, ular orqali musiqiy fayllarni ijro qilish, kuylar ro'yxatini tuzish va ularni har xil formatlarda yozish mumkin.

Agar siz musiqa darsida qo'shiq o'rgatayotgan bo'lsangiz Vokal jam yoki Kar Maker dasturlaridan foydalanishingiz mumkin. Bu dasturlar bir tamoil, ya'ni, "minus"ni ijro qilish va ekranga qo'shliq matnini chiqarishga asoslangandir. Musiqa o'qituvchilari o'zlarining bilimlarini oshirish yoki qo'shimcha ma'lumotlar olish maqsadida rus tilidagi kompyuter saytlari orqali "Krill va Mefodeyning ommaviy musiqa entsiklopediyasi"ni olishlari mumkin. Unda deyarli barcha zamonaviy guruhlar, ijrochilar, musiqiy albomlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Musiqa madaniyati darslarida yana o'sha saytlardan olingan "Musiqa durdonalari" dasturidan foydalanish mumkin. Unda barcha kompozitorlar hayoti va ijodi, musiqaning barcha yo'nalishiari, klassik musiqalarning yaratilish tarixi, ularning sharhi, video va audio parchalari mavjuddir. "Musiqa asboblari tarixi" va "Elektron pianino" bo'limlari bir - birini to'ldiradi. Nota matnlarini yaratish va tahrirlash uchun Final kabi dasturlar ham mavjud bo'lib, ulardan musiqa yaratish, aranjirovkalash va musiqa asarlarini cholg'ulashtirishda ham foydalanish mumkin.

O'qituvchining kompyuterning o'zlashtirish darajasiga qarab va musiqa darslarida kompyuter texnologiyalarini qo'llash tajribalaridan kelib chiqib, musiqa darslarida kompyuter

texnologiyalarini qo'liashning 3 ta bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Dars jarayonida o'quv dasturining alohida elementlarini - musiqiy an'analar elementlarini o'rganishga izchillik bilan yo'naltirish

2) ushbu elementlarni (dasturlar bo'yicha keng bilimlar doiraga ega bo'lgan va ulardan foydalana bilgan holda) sintez qilish va ularni keyinchalik kengaytirish (prezentatsiyalar yaratish).

3) sintezlash tendentsiyalarining namoyon bo'lishi (mahalliy tarmoqlarda ishlay olish) va ularning fanlararo musiqiy pedagogikaga o'sib o'tib kompyuter sinflarida integratsiyalashgan darslar o'tkazish.

Ushbu bosqichlar o'quvchilarning kompyuter sinfida ishlay olishining yoshlik xususiyatlarini baholashga ham taaluqlidir. Musiqa fanini o'quvchilar uchun yanada joziballroq qilish uchun o'qituvchi yangi informatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalarning zamonaviy tamoillarini qo'llagan holda fanlar ichi, fanlararo munosabatlarni, o'quv jarayoni mantig'ini, o'quvchilar yosh xususiyatlari va ularning madaniy rivojlanish darajalarini e'tiborga olishi zarur.

Umumta'lim maktablarining "Musiqa" fani quyidagilarni, ya'ni:

-ta'lim tizimi jarayonida musiqa madaniyatini ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi sifatida shakllantirish;

-Musiqaviylik, musiqiy uquv, qo'shiqchilik ovozi, musiqa madaniyati, xotira, kechinmalarini ifodalay olish, ijodiy fikrlash;

-Musiqa va musiqa haqidagi bilimlarni, uning intonatsion xususiyatlarini, uslub va janr rang - barangligini, folklor, klassik va zamonaviy kompozitorlar me'rosidagi musiqiy nutq xususiyatlarini, musiqaning insonga ta'siri va boshqa san'at turlari bilan o'zaro munosabatini o'rganish va o'zlashtirish, har xil musiq faoliyatlari: qo'shiq kuylash, cholg'u ijrochiligi, musiqaga mos harakatlarni improvizatsiya qilish ho'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni, o'z va o'zga xalqlar musiqa san'atiga nisbatan hurmat ehtirom xis tuyg'ularini tarbiyalash, o'quvchilarda musiqiy did va oliy darajadagi musiqa asarlari bilan muloqotga ehtiyoj

hissiyotini, ularda ijro va tinglovchilik madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi.

Shuning uchun ham umumta'lim maktablarining musiqa darslariga kompyuter texnologiyalarini joriy qilish alohida muhokamaga loyiqdir. Oddiy maktab sinfida musiqiy kompyuterni, kompyuter klavishlarini fortepiano klavishlariday yaxshi biladigan, kompyuter texnologiyalari vositasida sinfni musiqiy repertuarining turli shakllariga jalb qila oladigan tashabbuskor musiqa o'qituvchisining mavjudligi, - musiqa darslarini tubdan o'zgartirib yuboradi.

Musiqiy kompyuter musiqa muhitini ijodiy tomondan o'zlashtirishda cheksiz imkoniyatlar ochib beradi. Shu narsa yaqqol ravshanki kun tartibiga musiqachilarni (o'qituvchilarni) zamonaviy tovushlar majmuasini kompyuterda dasturlashning sirasrorlariga o'rgatish, kompyuter - axborot texnologiyalari mutaxassislari va tovush dizaynerlariga esa musiqiy ijodiyot qonuniyatlari haqida yetarlicha bilim berish kabi musiqiy ta'lim texnologiyalaridagi ikkita vektorning bir - biriga tomon harakatlanish muammosi qo'yilgandir.

Musiqa mahsulotlarini ijro qilishda, nota yozishda, amaliy musiqa janrida, tovush yozish vositalarida, ovoz chiqaruvchi vositlarning sifatli imkoniyatlarida, kontsert - teatr faoliyatida, ovoz dizayni va musiqani uzatishda (shu jumladan Internet orqali ham) musiqiy kompyuter texnologiyalari yangi evolyutsion davrini yaratdi.

Kompozitorlik faoliyatidan tashqari kompyuter texnologiyalarini cholg'u asbobida ijro qilibga o'rgatish, musiqiy uquvni rivojlantirish, musiqiy asarlarni tinglash, notalarni tahrirlashda qo'llash mumkin. Kompyuterlarning dastur ta'minoti cholg'u asbobi diapozonini, ijrochining passajlarni tez ijro qilishini, qochirim va dinamik tuslar ijrosi va artikulyatsiyani tashhezlashda yordam beradi. Ko'pgina fanlar uchun kompyuter entsiklopedik va bibliografik manbadir. Nihoyat, kompyuterdan nota teruvchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Musiqa darslarida informatson texnologiyalarni qo'llash, bolalar faolligi va dars samaradorligini oshiradi.

Xorijiy davlatlar maktablarida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta sinflarning barchasida bolalarning yoshiga mos ravishda (qiziqishlari, bayon qilinayotgan materialni o'zlashtirish darajasiga qarab) kompyuter dasturlaridan samarali foydalanish mumkin.

Masalan 1 - 2 sinf o'quvchilari uchun asosan fonoteka, fonogrammalar, o'yin orqali ta'lim beruvchi - o'yin dasturlari mos keladi. 3 - 4 sinf o'quvchilari mavzuli ta'lim beruvchi - rivojlantiruvchi - o'yin dasturlari, fonoteka va fonogrammalarni yaxshi qabul qiladilar. Bu darslarga dasturlarning ayrim elementlarini kiritish yoki prezentatsiya tayyorlash mumkin.

Maktab musiqa darslarida "minusovka" deb nomlanuvchi, ya'ni qo'shiqlarning fortepiano yoki orkestr jo'rnavozi yozilgan yozuvlardan foydalanish fortepiano jo'r bo'lishga qaraganda o'quvchilarni ko'proq o'ziga jalb qilar va qiziqtirar ekan. Undan tashqari musiqa darslariga kompyuter texnologiyalarni kiritish musiqiy materialni tezroq o'zlashtirish va o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarining tezroq shakllanishiga yordam berar ekan.

Bolalar kompyuter yordamida muzeylar bo'ylab virtual (masofali) sayohat qilishlari, kompozitorlar hayoti, xatto musiqa savodini ham o'rganishlari mumkin. Pedagog shunday dasturlarni bilishi va qo'llay olishi zarur. Musiqiy kompyuter dasturlari informatikaning eng ilg'or sohalaridan biridir. Umumiy ta'lim tizimi musiqa darslarida information texnologiyalarni qo'llash, badiiy didni shakllantirish, o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va umuman uni garmoniy tomondan rivojlantirish uchun asos bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda mavzularni o'zlashtirish uchun dars jarayoniga kiritish mumkin bo'lgan kompyuter dasturlari mavjuddir.

Yana shuningdek, xorijiy davlatlarning umumta'lim maktablarida kompyuterlardan foydalanish tajribalari shuni ko'rsatadiki, ular vositasida nafaqat sifatli musiqa tinglab qolmasdan balki, musiqiy asarlardan parchalar tomosha qilish, tasviriyy san'at asarlaridan ham bahramand bo'lish mumkin. Bunday materiallarni dastlab o'quvchilarga sinfdan tashqari paytlarda tomosha qilish uchun taklif qilish va undan keyin asta - sekin dars jarayoniga kiritib borish mumkin. Bu asosan o'qish

yoʻzishni kompyuterni biladigan 3-4 sinf o'quvchilari uchun qiziqarliidir.

Kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishga 2-sinfdan kirishish mumkin. 3-sinfda ular kompyuter ko'nikmalarini to'la o'zlashtirib oladilar. Dars jadvali va kompyuter sinfi grafigiga muvofiq haftada bir marta kompyuter texnologiyalarini qo'llagan holda o'tkaziladigan bir soatlik qo'shimcha dars ajratilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar muntazam ravishda ijodiy vazifalar bajarishlari, kompyuterdan foydalangan holda nota daftari yaratishlari, notalarni yozishlari mumkin.

Informatsion texnologiyalarning musiqa darslarida qo'llanilishi bolalar faolligini kuchaytiradi, darsni boyitib, samaradorligini oshiradi. Umumiy natijalarni kuzata borib, nafaqat ta'lim jarayoni mazmuni balki, metodlariga ham o'zgartirishlar kiritib boriladi. Shuni ham borki kompyuter texnologiyalaridan foydalanish doimo ham o'zini oqlayvermasligi mumkin. Buning sababi o'quvchilar, information texnologiyalar yordamida mavzularni o'rganishga tayyor bo'lmashlari, ana shundan kelib chiqqan holda pedagog oldiga dastur bo'yicha boshlang'ich bilimlarini chuqur egallashi, kompyuterni yaxshi bilishi, dastur bilan ishlay olishi, darsga bolalarni jalb qila bilishi, ularning tayyorgarlik darajasi kabi talablar qo'yiladi. Kompyuter dasturlari ham diqqat bilan ko'rib chiqilishi zarur: ularning boshlag'ich ta'lim musiqa darslariga tayyorlanmaganligi, moslashmaganligi ulardan keng foydalanish imkonini cheklaydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqa darslari mashg'ulotlarida qanday kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin?
2. Qanday musiqiy kompyuter dasturlarni bilasiz?
3. Musiqiy kompyuter dasturlaridan musiqa darslarining qaysi faoliyatlarida foydalanish mumkin?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Windows Media Plaer, win Amp dasturlari orqali musiqa darslarida qanday faoliyatlarini bajarish mumkin?

a. musiqiy fayllarni ijro qilish, kuylar ro'yxatini tuzish va ularni har xil formatlarda yozish.

b. kuy "minus"ni ijro qilish va ekranga qo'shiq matnini chiqarish.

c. barcha zamonaviy guruhlar, ijrochilar, musiqiy albomlar haqida ma'lumotlar berish.

2. Kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirishga o'quvchilarni qaysi sinfdan jalb etish mumkin?

a. 2-sinf

b. 3-sinf

c. 4-sinf

3. Vokal jam yoki Kar Maker dasturlari orqali qanday faoliyatlarini bajarish mumkin?

a. kuy "minus"ni ijro qilish va ekranga qo'shiq matnini chiqarish.

b. musiqiy fayllarni ijro qilish, kuylar ro'yxatini tuzish va ularni har xil formatlarda yozish.

c. barcha zamonaviy guruhlar, ijrochilar, musiqiy albomlar haqida ma'lumotlar berish.

4. Ko'plab kompozitorlar hayoti va ijodi, musiqaning barcha yo'nalishlari, klassik musiqalarning yaratilish tarixi, ularning sbarhi, video va audio parchalari mavjud musiqiy dastur nomi keltirilgan qatorni toping?

a. "Musiqa durdonalari"

b. Windows Media Plaer

c. Vokal jam

5. Ushbu dasturda nota matnlarini yaratish va tahrirlash uchun mo'ljallangan bo'lib, uildan musiqa yaratish, aranjirovkalash va musiqa asarlarini cholg'ulashtirishda ham foydalanish mumkin. Bu dastur "Musiqa durdonalari" dasturi tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu dastur nomi keltirilgan javobni toping?

a. Final dasturi

b. Vokal jam dasturi

c. Windows Media Plaer dasturi

2.8. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash

Tayanch tushunchalar: Baholash mezonlari, tekshirish usullari, og'zaki, yozma va amaliy tekshirish usullari, baholash, formativ baholash

O'qituvchi o'quvchilarning bilimini baholaganda uning og'zaki javobini, uy vazifasini qay daraja bajarilganligini, yangi materialni o'rganishdagi faolligini, mustaqil va yozma-amaliy ishlarning qay tariqa bajarishini nazarda tutish lozim. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda, javobning ijodiy va salbiy tomonlarini o'quvchilarga aniq ko'rsatib berish shart.

O'quvchilar bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

O'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **5 (a'lo) baho**;

O'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **4 (yaxshi) baho**;

O'quvchi olgan bilimni amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda - **3 (qoniqarli) baho**;

O'quvchi kasb dasturini o'zlashtirmagan, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda - **2 (qoniqarsiz) baho**.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan

birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadriyatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi.

Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Formativ baholash o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o'quv jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon. Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini aniqlash. Shuning uchun o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarini aniq bilishlari kerak.

O'quv maqsadlari rasmiy shaklda o'qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o'qituvchi norasmiy shaklda o'quvchilar bilan birgalikda o'quv maqsadlarini aniqlab olishi mumkin bo'ladi. Formativ baho o'quvchilar ta'lim jarayonida faol rol o'ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi. Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlar (mexanizmlar) aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bn jarayonda o'quvchilar orasida o'z-o'zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag'batlantiriladi. Marina Aleksandrova Pinskaya, pedagogika fanlari nomzodi, tadqiqotchi "Baholashning yangi shakllari" kitobida quyidagilarni yozadi: Formativ baholash o'quv jarayoni nafaqat yakuniy bosqichda, balki boshlang'ich va o'rta bosqichda qanday o'tayotganiga tashxis qo'yish uchun zarur, va agar ma'lumotlar qoniqsiz bo'lib chiqsa, olingan ma'lumotlar asosida kerakli ma'lumotlarni kiritish va ta'lim faoliyati sifatini oshirish uchun o'zgartirishlar kiritish mumkin. Formativ baholash butun o'quv dasturi o'rniga individual o'quv mahoratiga yoki o'quv dasturidagi ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ushbu baholashlar

ma'lum bir maqsad sari intilishni o'lchash uchun mo'ljallanadi deb aytadi.

Formativ baholashning eng foydali qismlaridan biri shundan iboratki, shakllantiruvchi baholashning yagona uslubi yo'q. Buning o'rniga mavjud bo'lgan yuzlab turli xil baholash usullari mavjud. Har bir o'qituvchi potentsial shakllantiruvchi baholashning chuqur repertuarini ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar shakllantiruvchi baholashni o'quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish va o'zgartirishlari mumkin. Bu juda muhim, chunki tafovut o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi va o'qituvchining o'rganilayotgan tushunchalarni to'g'ri baholashiga mos kelishini ta'minlaydi. Variantlarga ega bo'lish, shuningdek, o'quvchilar yil davomida ularning shaxsiy imtiyozlari yoki kuchli tomonlariga va zaif tomonlariga tabiiy ravishda mos keladigan baholashning turlarini ko'rishlariga yordam beradi.

Formativ baholashning eng yaxshi turi - bu jalb qilish, o'quvchilarning kuchli tomonlariga moslashish va qo'shimcha o'qitish yoki yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlash. Formativ baholash o'qituvchilar va o'quvchilar uchun juda ko'p ahamiyatga ega bo'lgan tasdiqlangan o'quv vositasidir. O'qituvchilar kelgusidagi darslarga rahbarlik qilish, o'quvchilar uchun individual o'quv maqsadlarini ishlab chiqish va o'quvchilarga taqdim etilayotgan darslarning sifati to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni olish uchun shakllantiruvchi baholashni ishlab chiqish va undan foydalanishlari mumkin. Sinflarida muntazam, doimiy shakllantiruvchi baholashdan foydalanadigan o'qituvchilar, o'quvchilarning faolligi va o'qishi ortib borayotganligini aniqlaydilar. O'qituvchilar shakllantiruvchi baholashdan olingan ma'lumotlardan butun guruh uchun ham, individual darslar uchun ham o'quv qo'llanmalarini o'zgartirish uchun foydalanishlari mumkin. O'quvchilar shakllantiruvchi baholashda ular o'zlarining qayerdaligini har doim bilishlarini va o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tobora ko'proq anglab etishlari uchun foydali bo'ladi. Formativ baholashlarni tuzish oson, olish oson, to'plash oson va natijalardan foydalanish oson. Bunga qo'shimcha ravishda, ular bajarilishi uchun cheklangan

vaqt talab etiladi. Formativ baholash o'quvchilarga individual maqsadlarni belgilashda yordam beradi va har kuni yutuqlarni kuzatib boradi.

O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashda bir qancha tajribadan o'tgan usullar bor. Lekin bugingi kundagi nazorat qilish va baholash qisqa vaqtni talab etishi va o'quvchilar bilimni konkret baholanishiga yordam berishi zarur. Bunda ta'limning texnika vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari asosan uch xil usul:

1. og'zaki;
2. yozma tekshirish usuli;
3. amaliy tekshirish usuli bilan tekshiriladi.

Og'zaki tekshirish usuli. Tekshirishning bu usuli butun tekshirish jarayonida yetakchi hisoblanadi. Og'zaki tekshirish ikki xil: yakkama-yakka va yopasiga surash usulida olib boriladi. Individual surash –og'zaki tekshirishning asosiy va ko'p qo'llaniladigan turidir. So'rashning bu usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi lozim, bu esa beriladigan savolga bog'liq.

O'quvchilarning javobini faqat mazmuni jixatidagini enias, balik shakli jixatidan ham kuzatishi lozim. O'quvchilarni muayyan bir tartib bilan adabiy tilda javob berishga o'rgatish kerak.

Individual so'rashning ayrim salbiy tomonlari ham bor. So'rash vaqtida ko'pchilik o'quvchilar javobini tinglamasligi, boshqa ish bilan shug'illanib o'tirishi yoki o'qituvchining chaqirishini kutib, navbatdagi beriladigan savolga javob axtarib o'tirishi mumkin. Yoppasiga so'rashdan mavzu o'rganib bo'linganidan keyin ham o'tkazilishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganishga kirishishdan oldin ham o'rganilgan mavzular o'quvchilardan yoppasiga so'raladi. Ko'rsatmall qo'llanmalar yuzasidan ba'zi bir savollar berish yo'li bilan ham o'quvchilarning tabiiy geografik ob'ektlar to'g'risida olgan tasavvuri va bilimi tekshirib kuriladi.

Yozma tekshirish usuli. Bu usul o'quvchilarning bilimni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday tekshirishlar kundalik dars hamda katta mavzular va bilimlar yuzasidan o'tkazilishi

mumkin. Yozma tekshirishda o'quvchilarning karta bilan ishlashga doir ko'nikma va malakalarini aniqlashga alohida e'tibor berish lozim.

Test usulidagi topshiriqlar bir qancha savollarda iborat bo'ladi: Javob berishda raqamlar o'rnini almashtirish, qisqacha javob yozish yoki chizib qo'yish bilan kifoyalanishi kerak. Test usulida tekshirish o'quvchilarning haqiqiy bilim va ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi geografik diktant o'quvchilarning geografik tasavvurlarini kengaytiradi, ularni topqirlik va xozir javoblikka o'rgatadi. Yozma ish olingandan so'ng navbatdagi darsdayoq uning natijasini, ya'ni baxolarini eshittirish lozim

Amaliy tekshirish usuli. Bu usul qisqa (10 minut chamasi) vaqt ichida barcha o'quvchilar bilimni aniqlash va baxolashga yordam beradi.

Bilimni tekshirish va baxolash - o'qituvchidan qunt va maxorat talab qiluvchi ta'limning murakkab qismidir. Ta'limning texnik vositalaridan, xususan, o'rgatish va bilimni tekshirish uchun qullaniladigan yangi kontrol mashinalaridan foydalanish esa vaqtni ko'p oladigan bu jarayonni avtomatlashtirishga imkon beradi.

Musiqa darslarida tekshirish deganda o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni, ularning ifodali kuylash qobiliyatlarini yoki musiqa faoliyatidan o'zlashtirish darajasini, shuningdek bunga erishish yo'lida sarflangan kuch-g'ayratlarni aniqlashning xilma-xil usullari tushiriladi. E'laho-bu daraja yoki sifatni baholab fikr yuritish yoki bolalar vositasida qayd qilishdir. O'zlashtirishni tekshirish va baholash o'qituvchi va o'quvchiga rejalashtirilgan natijaga yaqinlashish xarakteri va darajasi haqida ma'lumot berib, "teskari aloqa" vazifasini bajaradi, bu esa har ikkalasiga ham o'quv faoliyatiga maqsadga muvofiq tuzatishlar kiritish imkonini beradi. Musiqa darslari amaliyotida tekshirishning joriy, yakuniy va mavzuli turlari ko'p qo'llaniladi. Ular og'zaki va yozma ishlar, yakka va yoppasiga so'rash, dars bo'yicha ball qo'yish shaklida o'tkaziladi.

Mavzuli tekshirish butun mavzuni o'zlashtirilishini nazorat qilib borishni ta'minlaydi. Musiqadan o'quv dasturining o'rganilgan

mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Darsda qisqa vaqt mobaynida shunaqa savollar berish va shunaqa topshiriqlarni taklif etish kerakki, o'quvchi o'zini ularga mavzuning asosiy mazmunini, asosiy g'oyalarni ko'rib turganday his qilishi kerak. Mavzuli tekshirishning mohiyati ana shundan iborat. Bu tarzda o'tkazilgan tekshirish musiqa haqida fikr yuritishga, musiqa fani qonuniyatlaridagi eng muhim jiddiy bog'lanishlarni topishga, musiqa asarlarini idrok etishga o'rgatadi. O'quvchi musiqa fanidagi muhim qoidalarni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni yakuniy tekshirish va baholash har bir chorak uchun va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Uning ahamiyati o'quvchining musiqa fanidan erishgan yutuqlariga, rivojlanish darajasiga xolisona to'g'ri baho berishdan iboratdir. Bunda musiqa asboblari chalish aytish, musiqa bilan harakat, bolalar musiqa asboblari chalish faoliyatlarining jihatlari hisobga olinadi. Yakuniy baho o'quvchining chorak yoki o'quv yili davomidagi natijasini aks ettiradi. Lekin u o'quvchining shu davr davomida olgan barcha baholarining o'rtacha arifmetik soni emas. Musiqa o'qituvchisi maktab o'quvchisining bilimlarini egallashi jarayonini yaxshi tasavvur

eta olishi, muvoffaqiyatsizliklari va nuqsonlarini ko'ra bilishi, yutuqlari va muvoffaqiyatlarini sezishi kerak. Axir, ba'zida o'quvchi musiqa faoliyatlaridan birortasida bitta tayyorlamagan darsi uchun qoniqarsiz baho oladiki, bu uning butun chorak yoki yil mobaynidagi o'zlashtirishini pasaytirib yuborishi mumkin.

Bunday vaziyat maktab o'quvchilari muvoffaqiyatini xolisona aks ettirmaydi. Odatda yozma va mustaqil ishlar bilimlarni tekshirishning asosiy shakllari hisoblanadi. Bunda yutuq ko'p jihatdan ustalik bilan tanlangan matnga va maktab o'quvchilarning diqqat-e'tibori qanchalik jalb etilganiga bog'liq bo'ladi. Musiqa darsida musiqa savodidan yozma ish va mustaqil ishlar o'tkaziladi. Notalarning bo'linishi, asosiy pog'onalar orasida yarim ton va butun tonliklar joylashishi, alteratsiya belgilari va dinamik belgilarga doir ishlar bajarish ana shular jumlasiga kiradi.

Yozma ishning mazmuni ma'nosiga ko'ra aniq bo'lishi kerak. O'quvchi vazifani bajarish uchun qaysi qoidalarni, tushunchalarni,

qonunlarni eslatish kerakligini bilishi lozim. O'qituvchi asosiy mazmuni tekshiriladigan mavzularning o'tgan darslarda takrorlanishini tashkil etadi. O'quvchilarni qoidalar va tushunchalarni esga tushurishadi, mashq tarzida mustaqil ishlar bajarishadi. Bu ularda o'z kuchlariga ishonch tug'diradi. O'quvchilardan yakka tarzda va yoppasiga so'rash bilimlarini joriy, mavzuli va yakuniy tekshirishning keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Savol butun sinfga beriladi. Savollar "Bu qanday nota va nechaga sanaladi?", "O'rgangan qo'shig'imiz tempi (sur'ati) qanaqa?", "Re majorda qanday belgilar mavjud?" kabi bo'lishi mumkin. Bir muncha vaqt mobaynida har bir o'quvchi qanday javob berish haqida o'ylaydi.

Yakka tarzda so'rash chog'ida qo'shiq kuylaydigan bo'lsa, cholg'u asbobi yaqinida, savol javobda zarur bo'lsa, doska oldida turib javob beradi. O'quvchining javobini butun sinf eshitib turadi. O'quvchilar yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'riylaydilar, o'z qo'shimchalarini va izohlarini qo'shadilar.

Dars bo'yicha ball qo'yish o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash shakli sifatida o'qitish amaliyotida qo'llaniladi. Musiqa o'qituvchisi dars mobaynida musiqa faoliyati turlari bo'yicha bolalarning faolligini ularning qo'shiq ijrosini, musiqa idrokini, fikrlarini, qo'shimchalarini, savollarini, diqqat-e'tiborining barqarorligini, ishchanlik qobiliyatini kuzatib boradi. O'qituvchi yakka tarzda so'rash uchun maxsus qo'shimcha vaqt qoldirmagan holda o'quv materialining o'zlashtirish sifatini xolisona baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Dars so'ngida o'qituvchi belgilangan shkala bo'yicha har bir o'quvchiga izohli baho ya'ni dars bo'yicha ball qo'yadi. O'quvchilarni kuzatib borish ularning bilimlarini baholash uchun asos bo'ladi. Tajribali o'qituvchi bir darsning o'zida 4 tadan 10 nafarga qadar o'quvchiga baho qo'yishi mumkin. Lekin o'quvchilarni dars so'ngida dars bo'yicha ball qo'yilishi haqida oldindan ogohlantirib qo'ygan holda boshqalariga ham e'tibor qilish mumkin. Tekshirishning bunday shakli o'quvchilarni safarbar etadi, ularni butun dars davomida diqqat bilan o'tirishga majbur qiladi.

O'quvchilarni musiqa fanidan o'zlashtirishlariga qarab davlat dasturining bajarilishi sifati haqida, musiqa faoliyatining natijalarini

haqida musiqa savodidan olgan bilimlari, kuylash malaka va ko'nikmalari haqida, ularning rivojlanish darajasi haqida xulosa chiqariladi. Musiqa o'qituvchisi o'quvchi bilimiga bahoning asoslab qo'yilganligi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'qituvchining baholashdagi mulohazalari o'quvchiga yordam berishi, uni ilhomlantirishi yoki, aksincha, uning faolligini so'ndirishi mumkin.

O'quvchining shaxsini kamsitadigan so'zlar, behafsala o'quvchiga yordam berishi uchun aqli-rasolik bilan bildiriladigan istakdan ko'ra ko'proq o'qituvchining unga zarda bilan munosabatda bo'lishi bolaning musiqa faniga va o'qituvchiga hurmatini so'ndiradi. Bahoning qo'shimcha belgisi ya'ni plyuslari, minuslari va boshqa alomatlarini bo'lmasligi kerak. Har qanday o'quvchiga, hatto eng qo'lg' o'quvchiga ham u yaxshi o'qishi mumkinligini, u qobiliyatli ekanligini tushinib yetishi uchun yordam berishi zarur. Ayrim hollarda yomon yoki o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchining bilimlarini agar ayni shu bosqichda tirishqoqlik va intilish ko'rsatayotgan bo'lsa, oshiribroq baholash mumkin. O'z vaqtida qilingan bunday madad ishonch hosil qiladi, ijodiy ruh baxsh etib, fanga qiziqishi ortib boradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'quvchilarni bilim va malakalarini baholashda o'qituvchi nimalarga e'tibor berishi lozim deb bilasiz?
2. O'quvchilarni qanday me'zon asosida baholanadi?
3. Musiqa darslarida qaysi tekshirish usulidan foydalanish o'quvchilar bilim darajasini aniq baholashga yordam beradi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishning qanday usullari mavjud?

- a. Og'zaki, yozma, amaliy
- b. Yozma, amaliy, nazariy
- c. Og'zaki, amaliy

2. Amaliy tekshirish usuli orqali o'quvchilar bilim va malakasi qancha vaqt davomida tekshirish tavsiya etiladi?

- a. 10 minut vaqt ichida

b. 15 minut vaqt ichida

c. 5 minut vaqt ichida

3. Mavzuli tekshirish bu.....?

a. butun mavzuni o'zlashtirishini nazorat qilib borish uchun foydalaniladigan tekshirish usuli.

b. dars mavzusining ma'lum qismini o'zlashtirishda foydalaniladigan tekshirish usuli

c. dars mavzularini taqqoslab ularning uzviy bog'liqligi asosida olib boriladigan tekshirish usuli

4. O'quv jarayonida o'zlashtirgan bilimlari a'lo darajada bo'lishi uchun o'quvchilar qanday ta'lablarga javob berishi lozim?

a. O'quvchi mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr olaydi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda

b. O'quvchi mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda

c. O'quvchi olgan bilimini amalda qo'llay oladi, kasbning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda kasb (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda

5. Tajribali musiqa o'qituvchisi dars davomida barcha faoliyatlar asosida nechtagacha o'quvchini baholay olishi mumkin?

a. 4 tadan 10 tagacha

b. 5 tadan 15 tagacha

c. 4 tadan 6 tagacha

III BOB. "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINI TASHKIL ETUVCHI MUSIQIY FAOLIYATLAR

3.1 Musiqa idroki (musiqa tinglash) – darsning yetakchi faoliyati

Tayanch tushunchalar: Musiqiy idrok, musiqa tinglash faoliyati, ifoda vositalari, musiqiy idrok turlari, musiqiy idrokni rivojlantirish, musiqiy idroki masalalari.

Bugungi o'zligimizni anglash o'z taqdirimiz va farzandlarimiz istiqbolini yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan mustaqil O'zbekistonda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash umumta'lim maktablarida yoshlarni badiiy tarbiyalash va kamol toptirish, hamda hozirgi kunimizni to'laroq idrok etish uchun eng avvalo tariximizni yaxshi bilmoqlik hisoblanadi. Chunki, har bir yangilik, tarixiy bog'lanish orqali amalga oshiriladi. Barcha fanlar qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatida o'z aksini topadi.

Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos, takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan, davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Demak, yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda «Musiqa madaniyati» darslarini ahamiyati katta. "Musiqa madaniyati" darslari o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyasiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Ulardagi go'zallikka bo'lgan hissiy ularini o'stiradi, musiqa san'atiga mehr-muhabbat, qiziqish uyg'otadi, ona vatanni sevishga, bir-birini, kattalarni hurmat qilish, mehnatni, tabiatni sevishga, qadrlashga o'rgatadi va

hayotda o'z o'rnini topa olishga madad beradi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, musiqani idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining vazifasini tashkil etadi. Hozirgi musiqiy ta'lim-tarbiyasi, shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosimizni o'rganishda, musiqa darslarini va sinfdan tashqari musiqa tarbiya tizimini ahamiyati katta. Darsni qiziqarli bo'lishi uchun musiqa ijodkorligi qo'llaniladi, barcha musiqa faoliyatlari (xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash) dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bog'lanib o'tiladi.¹⁹

Umumta'lim maktablarida musiqiy ta'limning muhim vazifalaridan biri - o'quvchilarda musiqani idrok etish malakalarini o'stirish, unga emotsional munosabatni shakllantirishga erishishdir. Bu jarayon darsdagi musiqiy faoliyatlarning barcha turlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, qo'shiqni o'rganish uchun uni, avvalo, eshitish, kuyning sof ohangiga, musiqiy rivojiga quloq solish; musiqa cholg'ularda ritmik jo'r bo'lishda, raqs harakatlarini bajarishda uning o'zgarishini his etib, asarga o'z munosabatini ko'rsata olish muhimdir. Shu bilan bir qatorda musiqa idroki darsdagi faoliyatlarining mustaqil turlaridan biridir. Metodik adabiyotlarda musiqa idroki musiqa tinglash deb yuritiladi. Bunda o'quvchilar o'zlari ijro eta oladiganga nisbatan ancha murakkab asarlar bilan tanishadilar. Bunday asarlarni tinglash jarayoni faqatgina musiqa bilan tanishuvdan iborat bo'lmasligi lozim. Musiqa idroki - musiqa mazmunini (musiqiy obrazni) eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirishdir.

O'quvchilarda musiqiy idrokni rivojlantirish - ularni musiqani, insonning hissiyotlari, kechinmalari, fikrlari, hayotiy g'oya va obrazlarni aks ettiruvchi san'at sifatida qabul qilishga o'rgatish demakdir. Buning uchun esa ularda musiqa hissiy

¹⁹ T.Ortiqov "Musiqqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Muharri" Toshkent 2010

ta'limchilik, qiziqishni o'stirish, musiqiy ijodiy qobiliyatlar, didni rivojlantirishga qaratilgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish talab etiladi. Mazkur malaka va ko'nikmalarning shakllanishi bola ongining uzoq rivojlanish jarayonini talab etadi. Badiiy qiymatga ega asarlar hamda musiqa tinglash jarayonining faol bo'lishi o'quvchilarda musiqiy didni tarbiyalashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy idrok - murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borliqning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish qobiliyati yotadi. Musiqiy asar olamiga «kirib borish», musiqa kayfiyatini his etish, g'oyasini tushunib yetish tinglovchining o'ziga xos ijodiy faoliyati tufayli ro'y beradi.

Musiqa insonga o'zining ifoda vositalari - ohang, lad, metrortim, temp, dinamika, registr, faktura, ko'povozlik, shakl, garmoniya va hokazo kabi «bo'yoqlari» uyg'unligida ta'sir etadi. Bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go'zalligi, mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Ammo musiqani tushunish, yo'ni uni nafaqat hissiy qabul qilish, balki ong bilan ham tushunish, musiqa nimanani ifodalayotganligi va qanday ifodalayotganligini his etish, musiqa bilan muloqatda bo'lishga ehtiyoj sezish insondan badiiy saviya, musiqiy, hayotiy tajriba talab etadi. Shuning uchun musiqashunoslar musiqa tinglash so'zining kuchli faoliyati va o'ziga xos ijoddir deb ta'kidlaydilar.

Idrok masalalari, xususan musiqa vositasida uni rivojlantirish muammolari ko'plab bolalar bilan ish olib borgan musiqashunoslar, psixologlar va pedagog olimlarning izlanishlari asosini tashkil etadi. Musiqashunos B.L.Yavorskiy «Musiqani idrok qilish asosida fikrlash, musiqani «ma'noga ega nutq» sifatida qabul qilish malakasi yotadi», deb ta'kidlaydi.

Musiqa tinglash jarayonida, bolalar turli bastakor va kompozitorlar asarlaridan namunalarni tinglaydilar. D. Shostakovichning ta'biri bilan aytganda, «Musiqani sevish uchun, avvalam bor uni tinglash kerak...» Vatan, do'stlik haqidagi, mehnat va boshqa jismoniy hamda aqliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash, bolalarga ijobiy ta'sir qiladi. Bola tinglangan musiqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot

vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak vazifa bajarilmagan, maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

V.I.Petrushin "Musiqiy psixologiya" asarida musiqaning psixologik xususiyatlari haqida to'xtalar ekan, musiqqa idrokiga ham to'xtalib o'tadi. Uning fikricha, tinglovchi biror bir musiqiy asarni tinglaganda, uning muallifi va kuyning nomini avval eshitgan bo'lsa darhol aniqlay oladi. Har bir musiqiy asar insonning haëti davomida orttirgan taassurotlari, kechinmalarini o'yg'otadi. Lekin tinglovchi musiqiy asarni tinglaganda, o'zining emas, balki kompozitorning kayfiyati, his-tuyg'ularini musiqaning ifoda vositalari orqali angilashi kerak. V.Petrushinning fikriga ko'ra, musiqiy idrokni shakllantirish bu musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirishga bog'liq ekan. Lekin u yana shuni ta'kidlaydiki, kishining tarbiya ko'rgan muhiti, bilimi, èshi ham uni musiqiy idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatar ekan. Har bir kishining musiqiy didi uning turar joyi, yashash muhiti va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq, deb hisoblaydi, V.Petrushin. Olim yana "... Musiqiy idrok tafakkurning boshlang'ich bosqichi..." - deydi.

N.A.Vetlugina o'zining "Musiqani idrok etish" nazariyasida musiqaning nihoyatda ta'sirchanligi va uni inson ongi orqali idrok etish malakalarini shakllantirishning boshlang'ich bosqichlari haqida bayon etadi. Avvalam bor, N.Vetlugina bolalarni musiqiy asarlarni idrok etishi muammosi bilan ko'p shug'ullangan olimadir. U musiqqa tinglashning ahamiyati haqida gapirar ekan, ijro etishdan ko'ra musiqqa tinglash kishilar ruhiyatiga ko'proq ta'sir qilishiga urg'u beradi. Shuningdek, N.Vetlugina musiqqa tinglash jarayonining ham o'z metodikasi bo'lishi haqida gapiradi. Maktabda o'quvchilarga har xil mazmundagi qo'shiqlarni tinglatar ekanmiz, tinglash jarayonini tashkil etish va uni samarali usullarini ishlab chiqish joizdir. N.Vetluginaning ta'biriga ko'ra, musiqqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga ta'sir qilib, unda har xil hislarni o'yg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. Qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarning ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi

va fikrlashga majbur etadi.

B.V. Asafev (1884-1949) musiqqa tinglash yoki musiqani idrok etishni ikki xil ma'noda tushuntirgan:

1. Tinglovchi o'z ijrosi bilan uyg'unlashib undan zavqlanib, musiqqa tinglash uning kundalik ishiga aylanib qoladi.

2. Tinglovchi o'zini, butun vujudini musiqqa ummoniga g'arq etib, qalbi bilan uni his etib, haqiqiy musiqqa bilimdoni sifatida tinglaydi.

Ko'rib turganimizdek, B.V.Asafev musiqqa tinglovchilarni ham farqlaydi. U musiqani asl bilimdoni boshqacha tinglaydi va shunchaki havaskor boshqacha tinglaydi, deb o'qtiradi. Tabiiyki, musiqashunos musiqani idrok etar ekan, u musiqqa ijodkori, shakli, harakteri, janri haqida bemaol fikr bildirar oladi. Biroq, havaskor musiqqa tinglaganda, faqatgina musiqaning harakteri, badiiy obrazi haqida qisman tushuncha bera oladi.. Musiqqa tinglash, yakkanavoz va jo'rovozlikni ajrata bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish, o'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash kabi musiqiy-nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqqa idroki qanday faoliyat hisoblanadi.
2. O'quvchilarda musiqiy idrokni rivojlantirishda o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaysiz?
3. Musiqiy idrok haqida musiqashunos olimlar qanday fikrlar bildirilgan?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. "... Musiqiy idrok tafakkurning boshlang'ich bosqichi..." ushbu fikr muallifi ko'rsatilgan javobni toping?

- a. V.Petrushin
- b. B.V.Asafev
- c. N.Vetlugina

2. "Musiqani sevish uchun, avvalam bor uni tinglash kerak..." ushbu fikr muallifi ko'rsatilgan javobni toping?

- a. D. Shostakovich
- b. V.Petrushin

c. B.V.Asafev

3. B.V. Asafev musiqa tinglash yoki musiqani idrok etishni ikki xil ma'noda haqida fikr yurtigan. Uning tabiricha ushbu ikki turi qaysilar?

- a. musiqa tinglash uning kundalik ishiga aylanib qolishi va haqiqiy musiqa bilimdoni sifatida tinglash.
- b. cholg'u ijrochilik orqali ijro asarini tinglash va xonandalik orqali kuytagan asarini tinglash.
- c. havaskor sifatida musiqa tinglash va musiqa yatuuvchi sifatida musiqaning tinglash.

4. Musiqiy idrok bu.....?

- a. murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosida real borliqning obrazlar orqali musiqiy tovushlarda aks etishini eshita olish va undan ta'sirlanish.
- b. u musiqa, shakli, harakteri, janri haqida bema'lol fikr bildira oladi jarayoni
- c. yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

5. Musiqiy asarlarni idrok etishi muammosi bilan ko'p shug'ullangan, musiqa tinglash kishilar ruhiyatiga ko'proq ta'sir qilishiga urg'u bergan va "Musiqani idrok etish" nazariyasidasi muallifi ko'rsatilgan javobni toping?

- a. N.Vetingina
- b. V.Petrushin
- c. B.V.Asafev

3.2 O'quvchilarning musiqiy idrokini rivojlantirish va tinglash ko'nikmalarini shakllantirish

Tayanch tushunchalar: *Musiqiy idrokini rivojlantirish, maxsus eshitish, musiqa tinglash qonuniyatlar, musiqiy asarning janr xususiyatlar, musiqiy obraz, hissiy jihatdan faollashtiruvchi va boyituvchi metodlar.*

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan musiqa darsi musiqiy tarbiyaning zaminidir. Darsning mazmunini o'zaro bog'langan turli faoliyat turlari-xor bo'lib qo'shiq aytish, musiqa bilan harakat, musiqa savodi, musiqa ijodkorligini tashkil etadi. Bularga

yana musiqa asboblari va chapakda jo'r bo'lishni qo'shish mumkin. Boshlag'ich sinflarga musiqiy tarbiya berishning asosiy vazifalaridan bin musiqa qiziqish va uni sevishni, musiqa bilan muloqotda bo'lib, musiqadan estetik huzurlanish, uning hayotiy mazmunini tushinishni shakllantirishdan iborat

Musiqashunoslikda musiqiy idrok musiqaning inson tuyg'ularida aynan muvofiq ravishda aks etishi va insonning musiqiy asarni shaxsan idrok etishi hamda insonning musiqiy va hayotiy tajribalari, bilimi, emofSIONAL kechinmalari va asar qadriini birlashtirishga yo'naltirilgan murakkab faoliyat ekanligi ko'rsatiladi. Musiqa idroki (musiqa tinglash) san'atdagi go'zallikni idrok etish asosida estetik hislami tarbiyalashda alohida ahamiyatga egadir. Musiqaviy didni tarbiyalash faqat san'at asarlariga emas, balki voqealikning turli hodisalariga ham ongli va faol estetik munosabatda bo'lishning asosi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf bolalari hali musiqani to'la-to'kis o'zlashtirib olo olmaydilar, asarda namoyon bo'lib borayotgan musiqali obrazni onglarida aks ettira olo olmaydilar. Ayni vaqtda ular umumiy hayotiyatni osongina aniqlay oladilar, eng oddiy musiqali ifoda vositalarini, sur'at (temp)ni, jo'shqinlikni, registirni payqaydilar. Boshlang'ich sinf bolalarida musiqani idrok etishini-musiqa tarbiyasining asosini rivojlantirish uchun ularga tez-tez xoh xorda, xoh cholg'uda ifodalangan xilma-xil tuyg'ularni amalda his etish imkonini berish zurrur.

Musiqa insonga ta'sir etar ekan, uni quvontiradi, hayajonlantiradi, o'ziga qiziqish uyg'otadi. Inson tuyg'ularining barcha ko'rinishlari - quvunch va qayg'u, baxt va dard-alam musiqada aks etishini bolalar eshitishlari, anglashlari va his etishlari ucun o'qituvchi barcha shart-sharoitlarni hosil qiladi, bolalarning musiqa bilan muloqati quvunchli bo'lishi uchun turli vositalar qo'llaydi. Bu esa ko'proq darsda qo'llaniladigan musiqiy asarlarga bog'liq. Asarlar badiiy qiymatga ega bo'lishi, obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, tili jihatdan mos bo'lishi, bolalar ehtiyojlariga javob berishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarga tinglash uchun musiqiy material havola etilayotganda ularning tinglash diqqati hajmi e'tiborga olinishi lozim. 6-7 yoshli bolalar 1-1,5 mlntnt musiqani turg'un diqqat bilan

uni tashkil etish va boshqarish talab etiladi.

2. Musiqa tinglash maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.
3. Bolalarda musiqa nisbatan hissiy munosabatni shakllantirish. Buning uchun darsda qo'llaniladigan asarlar badiiy jihatdan yetuk bo'lishi, yorqin obrazli, qiziqarli, mazmunan bolalarga yaqin, bolalar ehtiyojlariga javob berishi lozim.
4. Berilayotgan material bolalar yoshiga mos bo'lishi va puxta o'zlashtirilish kerak. Puxta o'zlashtirilgan asargina musiqiy dunyoqarashni kengaytiradi, didni shakllantiradi, idrokni rivojlantiradi.

O'rta sinf o'quvchilarida atrofda voqe'likka ongli munosabatning o'sib borishi kuzatiladi. Shaxsning shakllanishiga jismoniy rivojlanish katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda bolalar o'smirlik davrining birinchi bosqichini boshdan o'tkazadilar. Bu bosqich organizmning tez o'sishi, mushak kuchlarining ortib borishi, asab-miya tizimining yanada rivojlanishi, jinsiy yetilishning boshlanishi bilan xarakterlanadiki, ular tovush apparatining (tovush bog'lamlari, bo'g'iz, yuqori va quyi rezonatorlar, nafas organlarining) yanada rivojlanishi bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Shu munosabat bilan musiqaviy-estetik tarbiya yanada chuqurroq bo'ladi, u o'ziga diqqat - e'tibor bilan qarash elementlarini, o'quvchilarning o'zlarini mustaqil hal qiladigan muammoli masalalarni qamrab oladi.

O'rta sinf bolalarini haqiqiy musiqani tinglashga, chinakkam badiiy asarni badiiylikdan yiroq asardan ajrata bilishga o'rgatish ayniqsa muhimdir. O'quvchilar musiqa o'qituvchisi ko'lmagida o'zlarining musiqaviy taassurotlarini tushinib olishga, tinglanayotgan musiqani, musiqaviy obrazlarni baholashga o'rganadilar, mashhur kompozitorlarning hayoti va ijodi bilan tanishadilar, bu esa ularning tanglanayotgan asarlarni yaxshiroq tushinishlariga yordam beradi.²⁰

Ongli tinglash va faol ijro etish (yaxshi qo'shiq kuylash, musiqa asbobida chalish)-musiqa yordamida estetik tarbiyalashning ikki yo'li bo'lib, ular bir-birini o'zaro to'ldiradi. O'quvchilarning musiqaqadan bilim doirasini faqat ularning xor

asalarini ijro etishlari hisobiga shakllantirib bo'lmaydi. Musiqani idrok etish imkoniyati odatda ijro etish imkoniyatidan kengroq bo'ladi. Shu sababli darslarda o'zlarini kuylaydigan asarlarga qaraganda ancha murakkab asarlar bilan ham tanishadilar. O'zbek, qardosh hamda chet el klassiklarining disklarga yozib olingan simfonik, kamer, opera asarlarini tinglash yaxshi musiqiy didni tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilar asta-sekin musiqali obrazlarni va ifoda vositalarini o'z imkoniyatlariga qarab tahlil qilishga tayyorlanadilarki, bu hol ularning ongli estetik idrok qilishlariga yordam beradi. O'smir yoshidagi o'quvchilarga o'z fikrini aytish, tabiat va uning xilma-xil hodisalariga o'z munosabatini ko'rsatish istagi ayniqsa xosdir. Mana shu yosh xususiyatidan musiqaviy-estetik tarbiyada foydalanmoq joizdir. Bunda muammoli xarakterdagi savol va topshiriqlar yaxshi yordam beradi. Musiqa asarini har xil taqqoslash ijodiy fikrlashni, musiqa haqida mustaqil fikr bildirishni rivojlantirishning juda yaxshi vositasidir. Bir asarni o'ziga berilgan turli sharhlarni taqqoslash o'quvchilarni musiqa sohasida faollashtirishning yana bir muhim vositasidir. Ma'lumki, musiqa tinglayotgan o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan asarni yangicha ijroda necha martalab eshitishga qodir bo'ladilar, bir musiqaning o'zi turlicha ijro etilgan disklarni to'playdilar, bu esa musiqa asariga boshqacha nazar tashlashga, undagi yangi ranglarni his etishga, uni yanada chuqurroq tushinishiga imkon beradi. Har bir o'quvchi, agar o'z fikrini samimiy bildirsa, munozaraning to'la huquqli ishtirokchisi sifatida o'zini faol namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa mustaqillikni, ijodiy faollikni, o'quvchilarning badiiy rivojlantirishning juda yaxshi vositasidir.

Bolalarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma'lum voqe'lik, his-tuyg'u va fikrlar aks etishi haqida tushuncha beriladi. Bu faqatgina dars jarayonida turli musiqa faoliyatlarini bajarishda, asar va uning obrazlarini idrok etish bilan amalga oshadi. Musiqani idrok etish musiqali obrazning inson ongida mikos qilishi, gavdalanishi jarayonidir. Bu jarayon asosida asarni baholovchi munosabat turadi. Idrok etishning boshqa turlari singari musiqani idrok etish ham faol

²⁰ T. Ortiqov "Musiqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Muharri" Toshkent 2010

mos bo'lgan

c. yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qancha vaqt davomida diqqatini jamlagan holda musiqa tinglay oladi?

a. 1-4,5 daqiqa

b. 2-6 daqiqa

c. 5-8 daqiqa

3. Musiqa idroki darsi ikki tarzda olib boriladi. Ushbu faoliyatlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

a. Musiqa asarlarini maxsus eshitish va musiqani eshitib, anglab, uning xarakteriga muvofiq turli faoliyatlarni amaliy bajarish.

b. Musiqa asarlarini maxsus eshitish va musiqiy asarni ijro etish orqali

c. Musiqa asarlarini maxsus eshitish va musiqiy asarni nazariy o'rganish orqali

4. Bolalar o'zlashtirishi yangi bo'lgan janr ko'rsatilgan qatorni toping?

a. Marsh, qo'shiq-raqs janrlari

b. Vals, syuita, kontsert,

c. Marsh, sonata,

5. O'quvchilarda musiqa tinglash, musiqa idroki, malakalarini rivojlantirish uchun e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar ko'rsatilgan qatorni toping?

a. musiqa nisbatan hissiy munosabatni shakllantirishga hamda musiqa "oqimini" kuzatishga o'rgatishi lozim,

b. tinglash jarayonini maqsadga yo'naltirish hamda asarning bolalar yoshiga mos bo'lishiga e'tibor berish.

c. yuqoridagi javoblarning barchasi to'g'ri

3.3 Jamoa bo'lib kuylash – bolalar musiqa faoliyatining ommaviy shakli

Tayanch tushunchalar: *Jamoa bo'lib kuylash, bola ovozining shakllanishi, ovoz sozlash mashqlari, bolalar ovoz apparati, ovozi shakllanishidagi asosiy davrlar. ovoz apparati tuzilishi va rivojlanish xususiyatlari.*

Jamoa bo'lib kuylash – o'quvchilarni musiqa san'atiga musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shaklidir. Har bir sog'lom bola kuylay oladi. Kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyat va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositasidir. Bola qo'shiq ijro etar ekan, unda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarinlik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular hosil bo'ladi. Qo'shiqda ikkita estetik vosita – musiqa va badiiy so'z birlashadi.

Shuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash – o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar, ularda o'z ijrolarini va o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan zavqlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlar tarbiyalanadi. Kuylash jarayonida o'quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi, ya'ni jismnan ham bola rivojlanishi kuzatiladi.

Kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o'stirish;

- musiqaqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;

- badiiy didni tarbiyalash;

- qo'shiqchilik ovozi, ya'ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o'stirish;

- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini

rivojlantirish;

- musiqiy qobiliyatlarni o'stirish.

Har bir qo'shiq bola ruhiga ta'sir qilganida unda tetiklik va bardamlikni uyg'otib, oliyanob his-tuyg'ular uyg'otadi, san'at bilan do'st bo'lishga va uni sevishga chorlaydi. Musiqa darsi o'quvchining tasavvur va bilim doirasini kengaytiradi, san'at haqidagi suhbatlar esa qiziqishini oshiradi. Musiqa darslaridagi har bir yangi qo'shiq bolani ulug'laydi, uning pok miyati va tuyg'ulari, intilishlari vatanga muhabbati, go'zallik va yaxshilikka bo'lgan ishtiyoqini madh etadi, unda estetik did hosil qiladi. Musiqa o'qituvchisi o'quvchilarning musiqaviy sezgilari, ritm tuyg'usi va musiqa xotirasiga alohida e'tibor berishi kerak. Agar dars jarayonida bulardan hirortasi e'tibordan chetta qoladigan bo'lsa natijaga katta putur yetadi chunki ulaming har biri bola ovozinig shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilaming estetik va badiiy malakalari bola maktabga ilk qadam qo'yan kunidan boshlaboq hosil bo'la boradi. Darslar va har xil to'garaklarda bu malakalar har jihatdan o'stiriladi va rivojlantiriladi. Bu hoi o'quvchining ma'naviy o'sish jarayonini har jihatdan tezlashtiradi. Bolaning ovozi nozik bo'lgani uchun unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab etadi. Bolada qo'shiqbop ovoz borligini aniqlash va uni tarbiyalash, jarangdorligini va musaffoligini yo'qotmagan holda mustahkamlab va toblab borish-musiqa o'qituvchisining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalarga dars doirasida qo'shiqlar o'rgatganda murakkab repertuar tanlanmaydi, chunki bu hol bolalar ovozini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun repertuar tanlaganda dasturga muvofiq, yil va chorak mavzularini e'tiborga olib, sinfning umumiy qo'shiq aytish qobiliyatini nazarda tutib, oddiydan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilgan holda tanlashi zarur. Mabodo tanlangan repertuar og'irlik qiladigan bo'lsa, o'qituvchi buni o'ylab ko'rishi, barcha imkoniyatlarni chamalab chiqish kerak.

Bunda tessitura, diapozon, matndagi qiyinchliklar, ritm, garmomik struktura (tuzilish) ni sinchiklab o'rganib chiqish lozim. O'quvchilarning yoshlariga mos kelib, dastur talablariga javob beradigan bo'lsa, vaqtli matbuotda chop etilgan kompozitorlarning yangi, hali maktab dasturiga kiritilmagan

asarlardan ham bemaol foydalanish mumkin. O'quvchilarda estetik didni tarbiyalash ko'p jihatdan o'qituvchining ish metodiga bog'liq. U o'zi darsga kiradigan har bir sinfning bolalarini tanishi, sinfning umumiy-psixologik jihatdan qo'shiq aytish qobiliyatini yaxshi bilishi lozim. Chunki sinfdagi har bir bola alohida musiqiy-psixologik tavsifga ega. Shuni unutmaslik kerakki, bolalarning darsda qo'shiq o'rganishlarining muntazam va to'g'ri tashkil etilishi hamda puxta yo'lga qo'yilishi ularning darsda o'rganishlarini bir-birlari bilan baham ko'rishga ishtiyoqini uyg'otadi, bu esa darsning ravnaqiga katta madaddir. Chunki har bir bola darsda o'rgatilayotgan qo'shiqning ohangini o'zicha qabul qiladi va o'zlashtiradi. Uning bu boradagi xato va yanglishuvi avvalo o'qituvchiga, qolaversa atrofda qilargalarga ham ma'lum bo'ladi. Darsda o'zaro aloqa va o'zaro harakatning yaxshi yo'lga qo'yilishi bunday xatolarning o'z vaqtida oldi olinishini ta'minlaydi. Musiqa darsi uchun yaxshi tanlangan repertuar hirgoyi qilib aytiladigan qo'shiqlarni va jo'shqin, ruhlantiruvchi qo'shiqlarni o'z ichiga olishi kerak. Biroq qo'shiqlar xarakterining xilma-xilligi emas, balki ularning mavzusi ham muhimdir. Bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berish uchun dolzarb mavzulardagi qo'shiqlardan foydalanish muhim bo'lib, bunday qo'shiqlar bolalarni xalqning hayotidan va his-tuyg'ularidan xabardor qiladi, maktab hayotini shu kunning voqealari bilan yaqinlashtiradi. Sinfda jamoa bo'lib qo'shiq aytishda butun sinf qatnashadi. To'g'ri avvaliga noto'g'ri kuylayotgan bolalar umumiy qo'shiqqa, ohanglarning sofligiga xalaqit beradi, lekin shuni esda tutish kerakki, bolalarning musiqa tinglash qobiliyati asta-sekin, o'qish jarayonida rivojlanadi. Vokal-xor malakalarini rivojlantirish uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun ham musiqa tinglash qobiliyati va ovozi yaxshi rivojlanmagan bolalarni ularning har ikkalasini ham rivojlantirish imkoniyatidan mahrum qila olmaymiz.

Agar o'quvchi noto'g'ri kuylayotgan ekan, bu hali uning musiqa

tinglash qobiliyati yomonligidan darak bermaydi. Ehtimol u yaxshi eshitadi, lekin uning ovozi o'ziga bo'ysunmaydi. Bunday hollarda musiqa tinglash bilan ovoz o'rtasida uyg'unlik bo'lmaydi. Darslar jarayonida ovoz apparati rivojlangach, uning diapazoni

kengaygach, ko'pincha o'quvchida musiqa tinglash qobiliyati ham, zarur darajada vokal-xor qobiliyati ham mavjudligi ma'lum bo'ladi. Agarda o'quvchi diapozon o'rtasidagi ba'zi tovushlamigina ifodali kuylayotgan bo'lsa, bu uning musiqa tinglash qobiliyati emas, balki vokal imkoniyatlari cheklanganligini bildiradi. O'quvchining musiqa tinglash qobiliyati yaxshimasligi haqida shoshilib xulosa chiqarish kerak emas. Tinglash qobiliyati yomon o'quvchilarni qo'shiq aytishdan, musiqa darslaridan ozod qilmaslik, balki darsdan vaqtincha orqada qolayotgan o'quvchilar sifatida ularga ko'proq e'tibor berish kerak.

Jamoa bo'lib kuylashning asosiy malakalari ya'ni qo'shiq aytish qoidalari, nafas olish, tovush hosil qilish, talaffuz ketma-ket bo'lmay, balki teng sur'atda tarkib topadi, shu bilan birga ular asta-sekin kengayib va chuqurlashib boradi. Barcha malakalar ustida muttasil, muntazam, o'qishning dastlabki kunlaridan boshlaboq qunt bilan ish olib borilmog'i kerak.

Bola ovozinin shakllanishidagi asosiy davrlarni ko'rib chiqamiz:

I davr. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari (7-9 yoshgacha) ovozi bolalar ovozi jaranglashi xususiyatiga ega. Bolaning o'sishi ravon ketadi, ovozida ham o'zgarish sezilmaydi. Ovoz juda mayin, yengil bo'ladi. "Faltset" jaranglashi deyiladi. Ovoz apparti bu yoshda nozik, mo'rt bo'lishini o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. O'z tuzilishiga ko'ra bu mexanizm (ovoz apparti) hali sodda bo'ladi, ya'ni ovoz hiqildoqda hosil bo'lib, ovoz pardalarining chekka qismlarining tebranishidan hosil bo'ladi. Bu pardalar to'liq holda jipslashmaydi. Tovush hosil bo'lgan paytda ovoz pardalari orasida "yoriq" qoladi. Qiz va o'g'il bolalar ovozida bu paytda farq bo'lmaydi.

II davr. Bolaning yoshi o'sishi bilan birga ovoz apparati mexanizmi ham o'sib boradi. Uning tuzilishi murakkablashadi. Hiqildoqda muhim paylardan – ovoz paylari rivojlana boshlaydi. 10- 11 yoshli bolalarning ovozi ancha kuchli va quyuqroq eshitiladi. 12-13 yoshlarga borib, bu naylar ovoz pardalarining faoliyatini to'la bosbqaradi, ovoz tarangligi kuchayadi. Bu yoshda qo'shiqchilik ovozi shakllana boshlaydi. Muayyan tembrdagi ohang paydo bo'ladi. Shu tufayli o'g'il bolalar ovozi diskant va

ni qoʻllab quvvatlashga boʻlinadi. Diskantlar (baland ovozlari) oʻzining yengilligi, jaranglab chiqishi, yorqinligi bilan xususiyatlanadi. Altlar (past tovushlar) esa oʻzining zichligi, quyuqligi va kuchligi bilan farq qiladi. Bu yoshda ovoz pardalarining tebranishi faqat chekka qismlarda boʻlmasdan, balki toʻlaligicha hosil boʻladi, ovoz kuchli, toʻliq jaranglay boshlaydi. 10-12 yoshli bolalar bilan xor mashgʻulotlari, kuylash faoliyati yaxshi tashkil etilsa, bu yoshda chiroyli ovoz shaklana boshlanadi. Bu davr bolalar ovoznining «gullash» davri deyiladi.

III davr. 12-13 yoshlarga borib oʻsmirlik davri boshlanadi. Ovoz apparati oʻsmir organizmida kechayotgan jarayonlar tufayli oʻzgaradi. Jismoniy oʻsish ham, ovoz apparatining oʻsishi ham ravonligini yoʻqotib, notekis, sakrama rivojlana boshlaydi. Ovoz oʻz «jarangdorligini» yoʻqotib, «xunuk» xiralashadi. Hamma diapazonda erkin kuylayotgan oʻquvchi endi yuqori tovushlarni ololmaydi. Bu davr zoʻriqish bilan, shish bilan oʻtadi. Bunday holatlar oʻqituvchi va oʻquvchi uchun juda masʼuliyatli davrdir. Bu mutatsiyaning boshlanish davridir.

Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanish xususiyatlarini bilish bolalar ovozinii saqlash va toʻgʻri tarbiyalash imkonini beradi. Har bir oʻqituvchi bolalarni qoʻshiq aytishga oʻrgatar ekan, u qoʻshiqni bolalarga xos goʻzal, jaranglagan, tiniq tovush bilan zoʻriqmasdan, tezda charchab qolmasdan, erkin aytadigan qilib tarbiyalashga harakat etishi lozim.

Oʻqituvchi bolalarga oʻz ovozlarni ayashlari, darsdan tashqari paytda ham qattiq baqirmasliklari, kuylashda zoʻriqmasdan aytish lozmligini muntazam eslatib boradi. Chunki yuqorida aytilganlarga beeʻtibor boʻlish ovoz paylariga chandiq tushishiga olib keladi. Bu esa nafaqat kuylay olmaslik, balki gapira olmaslik holatiga ham olib kelishi mumkin. Ana shunday zararli holatlarga oʻquvda muzqaymoq yeyish, qattiq gapirish, tez-tez shamollash ham olib keladi. Bolalar tomonidan radio, televizor, audio-video yozuvlarda beriladigan kattalar diapazoni uchun yozilgan qoʻshiqlarni kuylash (ayniqsa baland tovushlarda) ularning hali yetilmagan, moʻrt ovoz apparatiga salbiy taʼsir etadi. Boshlangʻich sinflarda qoʻshiqchilik ovozi mustahkamlash uchun sogʻlomlashtiruvchi mashqlardan foydalanish zarur: nafas

mashqlari, kuylash va dam olishni almashtirib turish, matnni cho'zib o'qish, ritmli o'qish, ya'ni o'qituvchining qo'liga qarab qisqa va uzun bo'g'inlarni aytish ("qo'g'irchoo-o-og'im, qo'g'irchoq, sensan me-e-enga-a-a o'yinchoq"), nutq va musiqiy intonatsiyani almashtirish va b.q. Bunday ishlar nutqi bo'sh bolalarga ham yordam berdi. Bolalar ovozi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kuylash faoliyatini albatta tayyorgarlik, ya'ni ovoz sozlash mashqlarini aytirishdan boshlash lozim. Bu mashqlar albatta kichik diapazonga ega bo'lib, ularni transpozitsiya qilish imkoniyati ham qo'laydir (keying betdagi "Surnaycha", "Aks-sado" mashq misollarga qaraisin).

Ovoz sozlash mashqlarini primar tovushlardan boshlab asta-sekin pastga va yuqoriga aytirish ovozni qizitish imkonini bersa, transpozitsiyada kuylar bolalarda musiqiy eshituvni o'stiradi. Bolalar ovozini asrash uchun repertuarni to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Shu narsani esda tutish lozimki, haddan tashqari baland yoki past tessiturali qo'shiqlar bolalar ovozigacha zarardir. Ayniqsa, diapazonning chetki tovushlarida kuylash xavflidir. Bunda ovoz apparati toliqadi. Ota-onalar o'rtasida ham tushuntirish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega. Ko'pincha qobiliyatli bolalarning ota-onalarni o'z bolalari bilan faxrlanib, o'z tanishlari oldida ularga ovoz diapazoniga mos kelmaydigan qo'shiqlarni aytiradilar, natijada bolaning ovozini ishdan chiqaradilar. Shuning uchun musiqa o'qituvchisiga «Bolalar ovozini asrang» mavzusida tashviqot ishlarini olib borish biroz malol kelsa ham, farzandlarimizning ovozlarni asrash ma'suliyatli ishdur.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Jamoa bo'lib kuylash faoliyatini qanday tashkil etish lozim?
2. Jamoa bo'lib kuylash faoliyatini yaxshi tashkil etish uchun o'qituvchi o'quvchilarda qanday sifatlarni shakillantrish lozim deb hisoblaysiz?
3. Jamoa bo'lib kuylash orqali o'quvchilarda qanday musisyo bilimlar shakillanadi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Bola ovozining shakllanishi jarayonlari necha bosqichdan iborat?

- a. 3 davrdan iborat
- b. 4 davrdan iborat
- c. 5 davrdan iborat

2. Kuylash jarayonida o'quvchilarda to'g'ri ovoz apparati rivojlantrish orqali o'quvchida qanday jismoniy va ruhiy holatlar kuzatilishi lozim?

- a. Musiqani idrok etish jarayoni jadallashadi, nafas chuquriashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi va jismonan ham bola rivojlanishi kuzatiladi
- b. Musiqa tinglash jarayoni jadallashadi, musiqiy eshitish qobiliyati yaxshiladi
- c. Musiqiy did shakillanadi, nafas olish jarayoni yaxshiladi, qomat tekislanadi

3. Faltset so'zning ma'nosi?

- a. Italiyancha *falso* – *soxta* ma'nosini anglatadi.
- b. Lotincha *falso* – *bo'rtirma* ma'nosini anglatadi
- c. yunoncha *faltse* – *yasama* ma'nosini anglatadi

4. Jamoa bo'lib kuylashning asosiy malakalari ko'rsatilgan javobni beltilang?

- a. qo'shliq aytish qoidalari, nafas olish, tovush hosil qilish,
- b. talaffuz ketma-ket bo'lmay, balki teng sur'atda tarkib topadi, shu bilan birga ular asta-sekin kengayib va chuqurlashib borishi.

c. yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

5. Ovoz sozlash mashqlarini tashkil etuvchi tovushlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- a. primar tovushlardan boshlab asta-sekin pastga va yuqoriga aytirish ovozni qizitish imkonini berdi.
- b. yuqori tovushlardan boshlanib pastga qarab yo'nalgan tovushlar ijrochi ovoz diapazoni kengayishgan yordam beradi
- c. transpozitsiyada kuylar bolalarda musiqiy eshituvni o'stiradi.

3.4 Bolalar ovoz apparati va uning ishlash tamoyillari

Tayanch tushunchalar: bolalar ovoz apparati, ovoz apparati va uning qismlari, nafas turlari, bolalar ovozi diapazoni.

Maktabda musiqa darslari, taxminan o'tgan asrlar yarimlaridan yoki birinchi yarmidan desak ham xato bo'lmaydi, boshlab kiritilgan edi. Lekin o'sha paytlarda musiqa darslarini o'tish uchun o'qituvchilar, ya'ni savodli musiqa asboblari chala oladigan o'qituvchilar juda ham kam edi.

Mana 50-yillardan keyin shu musiqa muallim va mullimalarni tayyorlash, musiqa darslarini yaxshi yo'lga qo'yish borasida ancha ishlar qilindi. Shuning bilan bir qatorda metodik qo'llanmalar, musiqa qo'shiq to'plamlari, undan so'ng musiqa darsliklari tayyorlandi, keying yillarda shu ishlar yana takomillashib hozirgi mustaqillik davrida yangi dastur va musiqa darsliklari vujudga keldi. Hozirgi kunda darslikda berilgan musiqa asarlari asosan ikki yo'nalishda ya'ni vokal va cholg'u musiqasi berilgan. Endi shuni aniqlash kerakki, qaysi bir yo'nalish muhimroq va asosiy hisoblanadi. Haqiqatdan ham bolalarning musiqiy faoliyatida kuylash, vokal musiqa asarlari yetakchi hisoblanadi. Chunki o'quvchilarimiz maktabda ya'ni musiqa darslari va sinfdan tashqari ishlarda ham mana shu qo'shiqlarni ko'proq aytadilar. Qo'shiq aytish orqali musiqiy dunyoqarashlari ham shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish musiqa darsi oldida turgan muhim masalalardan biridir. Ko'pchilik bo'lib qo'shiq kuylash – musiqaviy qobiliyatning rivojlanishidi, kuylash malakalarining shakllantirishda, shu bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Qo'shiq aytish kuylovchiga faqat estetik zavq bermasdin, bo'lajak musiqashunoslarni tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq aytish quylovchiga faqat estetik zavq bermasdan, balki eshitish qobiliyatning rivojlanishiga yordam beradi, nafas yo'llarini rivojlantiradi. Yaxshi va ravon tarbilangan kuylash malakalari, tarbiya kelajakda ijobiy samara keltirib, rang – barang qo'shiqlarni ifodali quylash imkonini beradi. Albatta bu jarayon oson kechmay, o'qituvchidan qatsr muammo va vazifalarni

to'laqonlilik bilan hal etishni talab etadi. Ma'lum qo'shiqni kuylash davomida o'qituvchi quyidagi vazifalarni hal etish yo'llarini olmog'i kerak.

- Qo'shiq to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berish orqali o'qituvchilarda hissiy taassurotlarini shakllantirish;

- Ijro etish rejasini to'zishga qaratilgan musiqiy yo'nalishni tahlil qilish;

- Asarni kichik bo'laklarga bo'lib ishlash hamda kuylash malakalarini

shakllantirish yo'llarini rejalashtirish;

- Ayrim jummalarni puxta o'rganish maqsadida takrorlash hamda ifodali kuylashga zamin yaratadigan mashqlardan foydalanish;

Asarning badiiy harakterini tinglovchiga yetkazib kuylash o'qituvchi bu vazifalarni bajarishga kirishar ekan eng avvalo taulangan bu qo'shiqning yaratilishi haqida o'qituvchilarga qisqacha ma'lumot berib ma'lum cholg'u asbobi jo'rligida ifodali kuylab beradi;

Bolalar ovoz apparati uch qismdan iborat:

1. Nafas organlari (o'pka, bronx, traxeya-tomoqning nafas yo'li)

2. Hiqildoq (ovoz pardalari joylashgan qism)

3. Rezonatorlar (yutqin, og'iz va burun).

Ovozning vujudga kelishi murakkab psixologik-fiziologik jarayon bo'lib, u ovoz apparatining nafas va eshituv apparati bilan birligidagi amaliyotda ya'ni o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bronx, traxeya orqali tomoqqa keladi va u yerda ovoz pardalari to'sig'iga uchraydi. Havo bosimi ta'siri natijasida ovoz pardalari harakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to'lqinlari - tovush hosil bo'ladi. Tovush hosil qilish bilan bog'liq bo'lmagan holdagi odatdagi nafas olish jaryonida ovoz pardalari sokin holatda bo'lib, havo uchburchak shaklidagi ovoz teshigidan erkin o'tadi. Tovush hosil bo'lishida ovoz teshigi torayadi. Tovush baland pardalarga ko'tarilgan sari ovoz teshigi torayib boradi va eng yuqori parda tovushlariga yetganda teshik berkiladi. O'pkaga nafas bilan oigan havo oqimi ovoz apparatidan o'tganda ikki nozik ovoz pardasini silab to'adi,

3.5 Musiqa darslarida musiqa savodi faoliyati mazmuni

Tayanch tushunchalar: Musiqiy faoliyatlar, musiqa savodi, musiqiy nazariy bilimlar, sinflar miqyosida musiqiy savod mazmuni, faoliyatlar aloqadorli.

Musiqa ta'limi bu yo'nalishda murakkab fanlardan biri bo'lib, mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilardan bir nechta faoliyatlarini amalga oshirish talab qilinadi. Shu bois, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarini amalga oshirish uchun har bir darsning maqsadini aniq belgilab olish, dars komponentlarini to'g'ri joylashtirish, dars jarayonida aynan rivojlantiruvchi xususiyatlar nimalar orqali amalga oshirilishini ko'z oldiga keltirgan holda mashg'ulotni tashkil etish lozim.

Musiqiy faoliyatlar o'z mohiyat e'tibori bilan musiqa ta'limini amalga oshirishning negizini tashkil etadi va bu borada o'quvchilarga etarli bilim va ko'nikmalarni singdirish, ularni turli musiqiy faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarini shakllantirish zarurdir.

Musiqa savodi faoliyat turi umumta'lim maktablarining musiqa darsining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, xor bilan qo'shiq aytishga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Shunga qaramasdan musiqa savodi musiqa ta'limida katta rol o'ynaydi. Musiqa nazariyasi va tarixdan boshlang'ich bilim berilib, o'quvchilarning musiqiy bilim saviyasini oshirib borishiga yordam beradi. Musiqa savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ogli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushunib olishga yordam beradi. Eng muhimi notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, vokal-xor ovozlarni aniq talaffuz etishga hamda xor bilan ijro etish sifatini oshirishga qu'aylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiq o'rgatishni osonlashtiradi.

Musiqa darsida musiqa savodiga juda oz vaqt, 5-10 daqiqa ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish, musiqa asarlarini tinglash jarayonida o'quvchilarni eshitish malakalarini hamda

musiqa bilimni mustahkamlab, chuqurlashtirib borishi kerak. Maktabda musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash hamda savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir-biriga chambarchas bog'lab borishdan iborat. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta oladigan va notanish kuylarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlardagina musiqa savodini o'rganishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi. Musiqa savodini o'rganish o'quvchilarning musiqa tovushlarini eshitish sezgilarining o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushurishdan oldin uning qanday yangrashini aniq ravshan tasavvur qilishi va eshitib bilishi, ya'ni "ko'rayapman- eshitayapman-kuylayapman" deb, ko'zga ko'rinadigan narsadan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim. Musiqa darsida jamoa bo'lib qo'shiq aytishda ham musiqa savodini o'rgatish jarayonida ham eshitish qobiliyati, metr-ritm sezgisi taraqqiy etadi

Musiqa savodi faoliyati bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar asosan musiqaning nazariy jihatlarini o'rganish, musiqiy ohanglarning nota yozuvlarida ifodalanishi, ladlar, tonalliklar, intervallar, tovush cho'zimi, musiqa asarining ma'lum qismini takrorlashni amalga oshirish belgilaridan iborat bo'ladi. Sinflar bo'yicha olganda, boshlang'ich sinflarda quyidagi manzara kuzatiladi:

Birinchi sinfda unli va undosh tovushlarning kuylanishi, milliy cholg'ular bilan tanishish, tovushlar nomini o'ngga va chapga qarab aytish, baland va mayin, kuchi va yo'g'on tovushlar, ansambl, orkestr, solist, sol kaliti, bastakor, shoir, sozanda va xonanda, tovushlarning uzun-qisqaligi, notalarning nota chizig'ida joylashishi, milliy cholg'u sozlar, chorak, nimchorak, yarim va butun notalar, notalarni aniqlash bo'yicha rebus o'yinlar, kompozitorlardan M.Burhonov, F.Nazarov, YU.Rajabiy, G'.Qodirov, M.Mirzaev, shuningdek, nota nomlarini topish bo'yicha topishmoqlar keltirilgan.

Ikkinchi sinfda nota cho'zimlari, ularni sanab kuylash, chorak va nimchorak pauzalar, takt, takt chizig'i, cholg'u sozlari, kompozitorlardan I.Akbarov, S.H.Yormatov, A.Mansurov, N.Norxo'jaev, D.Omonullaeva, M.Glinka, major va minor, dirijyorlik mashqlari, qaytarish belgisi, kuy va uning tuzilishi tahlil etiladi.

Uchinchi sinfda kompozitorlardan R.Abdullaev, F.Alimov, H.Rahimov, L.Mujdaboeva, P.Chaykovskiy, dirijyorlik harakatlari mashqlari, chorak va nimchorak pauzalar, xor asari va jamoasi, orkestr, major va minor, o'n oltilalik nota, uchtovushlik, nuqtali nota, alteratsiya belgilari, musiqadagi dinamik belgilar, major va minor uchtovushligi, milliy cholg'u sozlari, repriza, o'zgaruvchan va o'zgarilmas qaytarish, sinkopa, alteratsiya belgilari o'rganiladi.

To'rtinchi sinfda - o'lchovlar, qo'shiq janri, do major tovushqatori, alteratsiya belgilari, milliy cholg'u sozlari, mashhur sozandalar bastakorlardan T.Jalilov, I.Ikromov, K.Jabborov, F.Sodiqov, aytim, pauza,

damli va zarbli cholg'ular, minor tovushqatori, doyra cholg'usi, alla, 6/8 o'lchovi, notaga qarab kuylash mashqlari keltirilgan. o'rta sinflar darsliklari bo'yicha quyidagi manzara kuzatiladi:

Beshinchi sinfda - shovqinli va musiqiy tovushlar xususiyatlari, orkestr va uning turlari, shovqinli va musiqiy tovushlar haqida materiallar, musiqada kalitlar, nota cho'zimlari va ularning yozilishi, tovushqatorlar va oktavalar, ton va yarim tonliklar, musiqada alteratsiya belgilari, partitura va klavirlar, musiqada dinamik belgilar, nota cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilar, musiqada pauzalar, intervallar haqida tushuncha, musiqada qaytarish va tinish belgilari, kantata va oratoriyalar, ritm (usul), takt va takt chizig'i, musiqada o'lchovlar, nota cho'zimlarini taktlarga bo'lish, dirijyorlik san'ati, 2/4, 3/4 va 4/4 chorakli o'lchovlarda dirijyorlik qilish borasida materiallar keltirilgan.

Oltinchi sinfda - asosan berilgan turli tonalik, o'lchov va xarakterdagi mashqlarni dirijyorlik qilib kuylash amalg oshiriladi.

Yettinchi sinfda - intervallar, pauzalar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, tayanch parda (tonika), yarim ton va butun ton,

major tovushqatori, tabiiy minor, usul, xonandalardan M.SHerziy, J.Sultonov, bastakorlar YU.Rajabiy, S.Hoberd baxshi Boltaev, Hoji Abdulaziz Rasulov, Bola baxshi Abdullaev, Fozil Yo'ldosh o'g'li, tadburchi T.Alimatov, qashqaracha usuli, buzruk maqomi tovushqatori, rost maqomi tovushqatori, ufor, dugoh maqomi tovushqatori, segoh maqomi tovushqatori, iroq maqomi tovushqatori, intervallar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, usullar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, tabiiy major tuzugi (tovushqatori), tabiiy minor tuzugi (tovushqatori), dinamik belgilar, ufar haqidagi bilimlarni mustahkamlash kabi materiallar keltirilgan.

Musiqada darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu asosida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning pirovard bir butunligi vujudga keladi. Musiqada savodi barcha faoliyatni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida ahamiyatga egadir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti ya'ni musiqada idroki, qo'shiq aytish, musiqada bilan harakat va boshqalar qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari ya'ni janri, tuzilishi, ijrochiligi va hokazolar haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Shu sababdan musiqada savodi faqatgina nota savdi uslublardan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim tushunchalar majmuasini singdirib borishdan iboratdir. Musiqada savodi musiqada darsining bo'limlaridan biri bo'lib, jamoa bo'lib qo'shiq aytish (xor) ga nisbatan ikkinchi darajali o'rin tutadi. Bu faoliyat musiqada nazariyasi va tarixidan boshlang'ich ta'lim beradi, bolalarning bilim saviyasini oshirishga yordamlashadi. Musiqada savodi musiqaga, uning ifoda vositalariga ongli munosabatni tarbiyalaydi, musiqaning mazmunini tushinib olishga yordam beradi. Eng muhimi esa, notaga qarab kuylash va qo'shiq aytish malakalarini hosil qilish, garmonik eshitish qobiliyatini o'stirishga ta'sir ko'rsatish, Xor ovozlarni aniq talaffuz etishga va xor bilan ijro etish sifatini oshirishga eshitishga qulaylik tug'dirish yo'li bilan sinfda qo'shiqlar o'rganishni osonlashtiradi.

Musiqada savodiga musiqada darsida 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi. Shu sababli har gal qo'shiq o'rganish va musiqada asarlarini tinglash

jarayonida kuylash va eshitish malakalarini hamda musiqa bilimini mustahkamlab chuqurlashtirib borish kerak. Maktabda musiqa savodi o'rgatishda qo'yiladigan asosiy metodik talab olingan musiqaviy bilimni bevosita amalda qo'llash hamda savod o'rgatish bilan birgalashib qo'shiq aytishni bir-biriga doimiy bog'lab olib borishdan iborat. O'quvchilar mustaqil qo'shiq ayta olishadigan va tanish bo'lmagan asarlarni notaga qarab o'rgana oladigan bo'lgan vaqtlaridagina musiqa savodi o'rgatishdan ko'zlanadigan maqsadga erishilgan bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilarga musiqa haqida beriladigan barcha bilim va tushunchalar musiqa savodi doirasiga kiradi. Unga musiqaning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni san'at sifatida hayotning aks ettirilishi, ifoda vositalari ya'ni tili, nutqi; janr turlari, tuzilishi, ijro uslublari, ijrochilari, cholg'u asboblari turlari va boshqalar kiradi.

Musiqa savodi darsda mustaqil musiqa faoliyati sifatida amal qilmay, balki boshqa faoliyatlar jarayonida musiqa asarlarini badiiy o'rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun yordam beradi. Musiqa savodi mazmuni o'quvchilarni musiqa savodxonligini shakllantiradi va uning doirasini tobora kengaytirib, chuqurlashtirib boradi. Musiqa savodxonligini oshirish o'quvchilarda musiqiy sensor qobiliyatini o'sishiga asoslanishi kerak. O'quvchi biror tovushni ovoz bilan esga tushirishdan oldin uning qanday yangrashini aniq tasavvur qilishi va eshitib bilishi ya'ni ko'zga ko'rinadigan narsalardan eshitiladigan narsaga qarab borishi lozim. Jamoa bo'lib qo'shiq aytishda ham, musiqa savodini o'rganish jarayonida ham metr-ritm sezgisi va eshitish qobiliyati taraqqiy etadi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqa savodi faoliyati asosida qanday bilimlar egallash talab qilinadi?
2. Boshlang'ich sinflarda musiqa savodi faoliyati orqali qanday bilimlarni egallash tab qilinadi?
3. O'rta sinflarda musiqa savodi faoliyati mazmuni nimalardan iborat bo'ladi?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Musiqa savodi faoliyatiga musiqa darsida qandach vaqt ajrati lozim?

- a. 10-15 daqiqa
- b. 5-10 daqiqa
- c. 7-12 daqiqa

2. Birinchi sinfda musiqa savodi mazmuni ko'rsatilgan javobni toping?

a. unli va undosh tovushlarning kuylanishi, milliy cholg'ular bilan tanishish, tovushlar nomini o'ngga va chapga qarab aytish, baland va mayin, kuchli va yo'g'on tovushlar, ansambli, orkestr, solist, sol kaliti, bastakor, shoir, sozanda va xonanda, tovushlarning uzun-qisqaligi, notalarning nota chizig'ida joylashishi, milliy cholg'u sozlar, chorak, nimchorak, yarim va butun notalar

b. nota cho'zimlari, ularni sanab kuylash, chorak va nimchorak pauzalar, takt, takt chizig'i, cholg'u sozlari, kompozitorlar

c. dirijyorlik harakatlari mashqlari, chorak va nimchorak pauzalar, xor asari va jamoasi, orkestr, major va minor, o'n olitalik nota, uchtovushlik, nuqtali nota, alteratsiya belgilari, musiqadagi dinamik belgilar, major va minor uchtovushligi, milliy cholg'u sozlari, repriza, o'zgaruvchan va o'zgarilmas qaytarish, sinkopa, alteratsiya belgilari

3. Uchinchi sinfda musiqa savodi mazmuni ko'rsatilgan javobni toping?

a. dirijyorlik harakatlari mashqlari, chorak va nimchorak pauzalar, xor asari va jamoasi, orkestr, major va minor, o'n olitalik nota, uchtovushlik, nuqtali nota, alteratsiya belgilari, musiqadagi dinamik belgilar, major va minor uchtovushligi, milliy cholg'u sozlari, repriza, o'zgaruvchan va o'zgarilmas qaytarish, sinkopa, alteratsiya belgilari

b. unli va undosh tovushlarning kuylanishi, milliy cholg'ular bilan tanishish, tovushlar nomini o'ngga va chapga qarab aytish, baland va mayin, kuchli va yo'g'on tovushlar, ansambli, orkestr, solist, sol kaliti, bastakor, shoir, sozanda va xonanda, tovushlarning uzun-qisqaligi, notalarning nota chizig'ida

joylashishi, milliy cholg'u sozlar, chorak, nimchorak, yarim va butun notalar

c. nota cho'zimplari, ularni sanab kuylash, chorak va nimchorak pauzalar, takt, takt chizig'i, cholg'u sozlari, kompozitorlar

4. Musiqa darslarida jamoa bo'lib kuylash faoliyatidan keyin turadigan asosiy faoliyat turi ko'rsatilgan javobni belgilang?

- a. Musiqa savodi
- b. Musiqa tinglash
- c. Musiqa idrok

3.6 Musiqa ijodkorligi hamda cholg'uga jo'r bo'lish faoliyatlarini tashkil etish

Tayanch tushunchalar: Musiqiy faoliyatlar, musiqiy ijodkorlik, cholg'uga jo'r bo'lish, cholg'u asboblari.

Yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Turli metodik manbaalarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashiga va ijodkorlikka o'rgatish borasida garchi yo'l-yo'lakay bo'lsada, turlicha qarashlar mavjud. Masalan, ba'zi bir mutaxassisning fikricha, ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimni anglab o'tish imkoniyatlarini rivojl anti rib, turli ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Ushbu nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Musiqa darslarida o'quvchilarni ijodiy izlanishga o'rgatishning eng qulay usullaridan biri musiqi darslarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quyidagicha amalga oshiriladi.

Buning uchun musiqi o'qituvchisi musiqi darslarini o'quvchi tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda

guruhlarga ajratishi zamin. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda o'quvchining musiqa faniga munosabati inobatga olinishi shart, Mana shu nuqta nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi hamda ijro va taqqoslashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa darsning ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchining o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Asar ijrosi o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib, ta'kidma-ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmog'i zarur. Musiqa ta'liniga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ustida mustaqil ishlashga, o'rganayotgan asar yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishga undaydi.

Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarini aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish, ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zamin. Qobiliyatlarini rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi. Musiqiy qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan musiqiy tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi. O'quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidomi ongli rag'batlantirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning musiqa san'atiga bo'lgan munosabatlarini yanada o'stirish, turli san'at tadbirlarida ishtirok ettirish, olimpiadalar, san'at bayramlari, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etishi lozim.

Musiqa ijodkorligi faoliyati musiqa o'qituvchisi ijrosiga doira chertib jo'rovoqlik qilish, sinf ijrosiga "dirijyorlik" qilish, tavsiya etilgan kuy ohangiga mos harakatlar topish, berilgan she'r parchasiga kuy "bastalash" kabi ijodkorlik analiyotlari bilan bajariladi. Musiqa o'qituvchisi biror musiqa asarini ijro etganda unga doira bilan sherik bo'lish, avvalo, biror ijro etilgan kuyga chapak bilan jo'r bo'lishni o'rganishdan boshlanadi. Chapak bilan jo'r bo'lgan bola keyinchalik qoshliq, safoil, qayroq kabi urma

asboblarda jo'rovoqlikni o'rgangach, doira bilan sekin-asta jo'rovoqlikni yaxshi o'rganib, asar ijrosiga qo'shilishga harakat qiladi. Qo'shiq ijro etilayotgan vaqtda o'qituvchi qo'l harakati bilan odatda asarni taktlash, ya'ni qo'lini pastga tomon harakatlantirib kuchli hissani, yuqori tomonga esa kuchsiz hissani ko'rsatib qo'shiq kuylatadi. Bolalar esa ana shu harakatga monand ravishda boshqa asarlarga "dirijyorlik" qilib o'z iste'dodlarini ko'rsatishlari mumkin. Bolalarning bu haraktlarini kuzatib turgan o'qituvchi dirijyorning mehnatini, buning uchun ko'p o'qishi va yaxshi musiqiy bilimga ega bo'lishi lozimligini o'quvchilarga tushuntirib borishi kerak. O'qituvchi jozibali kuylay oladigan iste'dodli bolalarga biror-bir kichikroq she'rni qo'shiq qilib yoki xirgoyi qilib berishini so'rashi mumkin. Ba'zi qobiliyatli bolalar bu she'r parchasiga yangi kuy "bastalay" oladilar yoki ilgari o'rgangan biror qo'shiqning musiqasiga moslab bemalol kuylab beradilar.

Bunday holat iste'dodli bolalar tomonidan musiqa bilan harakatda ham sodir bo'ladi. Ba'zan sinf konsertida yoki maktabda o'tkazilayotgan bayram tadhirida har qanday iste'dodli o'quvchi ko'pchilik oldida sahnada o'zini "yo'qotib" sir bosib qo'shiq matnini yoki raqsdagi harakat tizimni esdan chiqarib qo'yishi mumkin. Ana shunday holda qo'shiq matnini musiqiy pauza paytida zudlik bilan to'qib yoki raqs harakatini yaratib, vaziyatdan chiqib keta olishi ana shu bolaning ham iqtidori, ham iste'dodi va ijodkorligi hisoblanadi. Musiqa o'qituvchisi bolalar tomonidan ijod qilib kelingan kuyga, qo'shiqqa, raqsga, musiqa savoddan tuzilgan masalaga ijobiy munosabatda bo'lishi, ularning ijodini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirib borish zarur. Bularning barchasi bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan mehrini yanada ortirishga ko'mak beradi. O'qituvchi iste'dodli va iqtidorli bolalarning bilimini oshirish maqsadida ularga shart-sharoit yaratib berishi va o'zida maxsus o'quv reja va dsturi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi-yoshlarning musiqiy madaniyatini tarbiyalashda musiqiy faoliyatlarining o'rm benihoya katta hisoblanadi. Musiqa darsi jarayonida imkon qadar ko'proq musiqiy faoliyatlardan unumli foydalanish orqali o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin. Ma'lumki, musiqa madaniyati

darsida ko'pgina mustaqiy faoliyatlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. O'quvchilar musiqa cholg'u asboblari chalinib boshlang'ich sinf o'quvchilari jamoaviy ijrochilik faoliyati turlaridan biridir. Musiqa darsida faoliyatning ushbu turidan foydalanish - bola musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kichik yoshdagi o'quvchilar badiiy bilim va tajribasini boyitish, ularning ijrochilik faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirishga qaratiladi. Bunda o'quvchilarni musiqiy ijrochiligiga emotsional munosabatni tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Faoliyatlarda faol ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars mazmuni qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini sizilarli darajada oshirish maqsadida hani raqs, musiqiy-ritmik harakatlar, chapak va o'quvchilar cholg'u asboblari (ayniqsa, doiracha, qoshiq, qayroq va boshqalarda) chalinib, musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqiy faoliyatlar qo'llaniladi. O'quvchilar cholg'u asboblari chalinib faoliyati boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tuslarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarurdir. Bunda doirachilar, qayroq, qoshiq, kichik safoillar kabi urma cholg'u asboblari foydalanib, o'qituvchi ijrosi va magnitafon tasmasi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati mashg'ulotlarida o'quvchilar musiqa cholg'u asboblari ijro etish faoliyatining kiritilishi quyidagi pedagogik vazifalarni hal etishga qaratiladi:

- o'quvchilarning musiqa darsida, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, bayramlarda, oilada, dam olish vaqtlarida ijrochilik faoliyatlarini amalga oshirishga ruhlantirib borish;

- o'quvchilarda badiiy did, qiziqish, musiqiy ehtiyojni shakllantirish;

- ansamblda, bahamjihat bo'lib ijro etish jarayoniga qiziqishni shakllantirish va tarbiyalash, musiqiy cholg'ularning tembr (tovush tusi), tovush xususiyati, imkoniyatlarini bilib olish, birgalikda ijro garmoniyasini his etishga o'rgatish;

- ladni anglash, ritm tuyg'usini, musiqa shakli, garmonik va melodik xususiyatlarini his etishni faollashtirish;

- musiqiy nutq, ifoda vositalari xususidagi tasavvurlarni shakllantirish va boshqalar.

Musiqada darsida o'quv-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishda repertuar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi sinfda cholg'uchilik, raqs va musiqiy harakatlar faoliyatida o'quvchilar musiqaga tovushlarining baland, pastligini qo'l harakatlari bilan ifodalash chapak va shiqildoqlar chalib, o'qituvchi ijrosiga ritmik jo'r bo'lish ("Asp bo'laman", "Bahor keladi" va boshq.mmisolida), "Yallama yorim", «Duchava» kuylariga chapak va cholg'ularda chalib kuylarga ritmik jo'r bo'lishadi. Ikkinchi sinfda ohanglarga uchburchak, doyrachalar, shiqildoqlar yordamida musiqaga ijrosida ritmik jo'r bo'lish, qattiq va yumshoq urg'ularni belgilash, "Oftob chiqdi olamga", "Oftobjonim-o'rtoqjon" kahi qo'shiqlarga chapakda va o'quvchilar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish kabi faoliyatlar bajariladi. Uchinchi sinfda o'quvchilar doirachalar, shiqildoqlar, qoshiq va boshqa urma cholg'u asboblarida chalib, musiqaga ritmik jo'r bo'lish ("Olmant otdim", "Jonon") va boshqa kuylarga jo'r bo'lib amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Shunisi muhimki, musiqiy asarlar o'quvchilarning birgalikda ijro etishlari uchun qulay bo'lishi, o'quvchilarda ijodiy fazilatlarini shakllantirishda xizmat qilmog'i lozim. O'quvchilar musiqaga cholg'u asboblarida ijro etish, ayniqsa musiqiy ijodiy rivojlanishi past o'quvchilar uchun nihoyatda foydalidir. Shuningdek, barcha o'quvchilarning kelajakda ancha murakkab cholg'u asboblarini o'zlashtirishlariga yaxshi tayyorgarlik vazifasini o'taydi.

Mashg'ulotlardagi o'quvchilar cholg'u asboblarida chalish faoliyatini samarali amalga oshirish natijasida o'quvchilar quyidagi bilim malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari nazarda tutiladi:

- musiqaga cholg'u asboblari nomlari, tuzilishi, ularni asrash qoida-tartiblarini bilish;

- musiqaga tinglash orqali cholg'u asboblari tovush tusini, jarangdorligini aniqlay olish;

- musiqaga cholg'u asboblarida chalish uslublari haqida malakalarga ega bo'lish;

- cholg'u asboblarda yangraydigan musiqiy tovushlar tusini, ifodaviy xususiyatlarini ilg'ay olish;

- musiqiy ifoda vositalarini bilish, musiqaga cholg'ularida chalishda ularni ifodalay olish;

-jamo'a (ansambl) bo'lib qo'shiq ijro etish malakalarini egallab olish, oson va tanish kuylarni eshitish orqali cholg'uda ijro eta olish, o'rtoqlari ijrosini munosib baholay olish;

-cholg'u asboblardan chiqadigan baland va past tovushlar yangrashini farqlay olish, pardalar nomi, ularning joylashish o'rnini bilish va h.k.

Darsda ishning natijasi asosan cholg'ulashtirish jarayoni bilan bog'liqdir. Shu bois, jamoa bo'lib ijro etish talablarini hisobga olish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan oddiy musiqa cholg'u asboblardan (uchburchak, doyrachalar, qayroq, shiqildoq kabi) keng samarali foydalaniladi. Barcha cholg'ular toza, tiniq, yoqimli sado berishi, tashqi ko'rinishi bilan o'quvchilarning diqqatini jalb etishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Demak, chapak chalish va musiqa cholg'u asboblarda chalish faoliyati ham raqs, musiqali harakatlar smgari o'quvchilarning musiqiy-o'quv qobiliyatlari hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat yuqorida ta'kidlanganidek, boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish hamda ularning tovush tuslarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi juda zarur. Bunda doyrachalar, qayroq, qoshiq, kichik safoillar kabl urib chalinadigan cholg'u asboblardan foydalanib, o'qituvchi ijrosi va CD diski orqali taraladigan MP3 ga mos ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi. Shu bois, musiqa madaniyati darsida faoliyatlarning boshqa turlari qatori o'quvchilar cholg'u asboblarda chalish qismiga ham jiddiy e'tibor berish talab etiladi. Zero, darsda musiqiy faoliyatlar mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil etishi muhimligi musiqiy ta'lim talabidir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqiy ijodkorlik faoliyatiga o'quvchilarni yo'naltirishda o'qituvchining ro'li qanday deb hisonlaysiz?

2. Musiqa cholg'ulariga jo'r bo'lish faoliyati asosida o'quvchi o'rganishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar haqida so'zlab bering?

3. Cholg'uga jo'r bo'lish faoliyatini olib borishda o'qituvchi qanday pedagogik vositalardan faoydalanishi lozim deb hisoblaysiz?

Mavzu yuzasidan testlar:

1. O'quvchilar cholg'u asboblari chalish faoliyatini samarali amalga oshirish uchun qanday malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim?

a. musiqa cholg'u asboblari nomlari, tuzilishi, cholg'u asboblari tovush tusini, jarangdorligi, chalish uslublari, pardalar nomi, ularning joylashishi.

b. jamoa (ansamb) bo'lib qo'shiq ijro etish malakalarini egallab olish,

c. oson va tanish kuylarni eshitish orqali cholg'uda ijro eta olish, o'rtoqlari ijrosini munosib baholay olish;

2. Cholg'uga jo'r bo'lish faoliyati uchun dars davomida qancha vaqt ajratib lozim?

a. 3-5 daqiqa

b. 5-10 daqiqa

c. 8-10 daqiqa

3. Yordamchi musiqiy faoliyatlar ko'rsatilga javobini toping?

a. Musiqiy ijodkorlik (cholg'uga jo'r bo'lish, ritmik harakatlar)

b. Musiqia tinglash, musiqa ijodkorlik (cholg'uga jo'r bo'lish)

c. Musiqia tinglash, jamoa bo'lib kuylash

4. Musiqiy idrok deganda nimani tushunasiz?

a. Musiqiy idrok asarning qo'li bilan chalish emas balki quloq bilan etishdir

b. Musiqia darslarining umumiy sturukturasi tushunturadi

c. Musiqia darslarini xususiyati va boshqa fanlardan farqini bildiradi

5. Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining ahamiyati qanday?

a. Insonning ruhiyati va rivojiga bebaho ta'sir ko'rsatadi

b. Yoshlarni tarbiyalaydigan fanlardan biri bo'lib xizmat qiladi

c. Musiqia - nazariy bilimlarini takomillashtiruvchi

3.7 Musiqia darsda musiqaviy ritmik harakatlarda foydalanish

Tayanch tushunchalar: Musiqiy ritmik harakatlar, musiqa va harakat uyg'unligi, musiqiy temp, musiqiy ritm, chapak cholish, jamoaviy raqslar.

O'quvchilarning har tomonlama musiqiy rivojida musiqiy-ritmik harakatlar boshqa faoliyat turlari kabi muhim ahamiyatga ega. Ularda musiqiylik, ijodiylik qobiliyatlari rivojlanadi, jamoa bo'lib harakat qilish malakalari shakllanadi. Musiqaga mos harakat bajarishning tarbiyaviy ahamiyati - ritm hissi faollashadi, musiqiy materialning o'zlashtirishi chuqurlashadi. Harakatlar bajarish musiqiy obraz rivojini kuzatishga yordam beradi. Musiqani diqqat bilan tinglab o'z hissiyotlarini harakatlarda ifodalash imkoniyati o'quvchining o'z harakatlarini nazorat qilish qobiliyatiga ham ta'sir etadi.

Musiqia va harakat uyg'unligi insonning ma'naviy va jismoniy rivojini o'zaro bog'laydi va barkamollikka yo'naltiradi deb aytish mumkin. Musiqia va harakatning o'zaro bog'liqligi masalalari ko'p marotaba psixologiya, pedagogika, fiziologiya, musiqashunoslikda ko'rib chiqilgan. Organizmning umumiy funktsional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini I.Sechenov, B.Teplov isbotlab berishgan. Musiqiy-ritmik tarbiya tizimini rivojlantirish masalalari bilan N.Aleksandrova, M.Rumer, Ye.Kononova, N.Vetlugina, M.Palavandishvili kabilar shug'ullanib kelganlar. Shu o'rinda XX asrning boshlarida ko'p mamlakatlarda shveysariyalik musiqachi, pedagog E.Dalkroz tomonidan asos solingan ritmik tarbiya tizimining keng tarqalganini aytish joiz. E. Jak Dalkroz metodi - maxsus tanlab olingan mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirishga asoslangan.²¹

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o'zaro bog'langan uch yo'nalishni o'z ichiga oladi:

²¹ M.Xo'jayeva "Umumta'lim maktablari da musiqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llama 2-nashr Toshkent 2008

Birinchisi, bolaning musiqiy rivojlanishini, ya'ni musiqiy eshituvni o'stirish, harakatni musiqaga moslash ko'nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o'zlashtirishini ta'minlaydi;

Ikkinchi yo'nalish o'quvchida to'g'ri harakat ko'nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tantanavor, keskin va hk.);

-qadam tashlash (baland, oyoq uchida, yumshoq, prujinali va hk.);

-sakrashlar (engil, harakatchan);

-aylanishlar;

-qo'l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan);

-chapaklar (sekin, qattiq, kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlar); raqs elementlari (o'zbek xalq raqslaridan "oyna", "arqon", "elka uchirish", valsona va hk.);

Uchinchi yo'nalish o'quvchilarda tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan (aniq va tez to'xtash, harakatni o'zgartirish va hk.) Darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi musiqiy materialni dars mavzusiga mos holda tanlaydi. Mavzu, harakat ko'nikmalari konkret musiqiy eshituv tasavvurini (masalan, tembr yoki registr va hk.) va musiqiy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo'lishi lozim. O'quvchilar tomonidan bajariladigan harakatlar sifati tinglangan musiqiy asarning idroki darajasi hamda o'qituvchining ifodali ijrosiga bog'liq. Ijro qilinayotgan asarni o'qituvchi yoddan chalishi kerak, chunki harakatlar bajarilishi vaqtida o'qituvchi o'quvchilarni kuzatib turishi, xatolarini tuzatishi lozim. Hamma harakatlarni avval o'qituvchi ko'rsatib beradi, ayniqsa, 1-2- sinflarda. Faqatgina og'zaki tushuntirish bilan ijobiy natijalarga erishish qiyin. Harakatlarni ko'rsatib berish o'quvchilarda musiqaga bo'lgan hissiy munosabatni faolashtiradi.

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarning badiiy tajribasiga aylamishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun o'quvchilarni bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. O'quvchilar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang'ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal - belgilarga

(harakatni boshlash, o'zgartirish va hk.) javoban harakatlanishni o'rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o'rinlardan turib saflanishga signal bo'lsa, D.Nazarovning «Yurish marshi» kuyining boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuyga uchburchakning jo'rliqi qo'shilgan joyda esa sakrashga o'tishni ko'rsatishi lozim.

Bunday boshlang'ich-mo'ljal olish mashqalaridan so'ng dars jarayonida o'quvchilarga harakatlarda musiqiy obrazning xarakteri xususiyatlarini ko'rsatib berish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar beriladi. Masalan, marshlar turiga qarab harakat qilish: sport marshiga – shaxdam, bayram marshiga

tantanavor, soldatchalar marshiga – baland qadamlar tashlab harakatlanish; raqs musiqalarini ohang xarakteri va tempiga qarab turlash orqali qo'l, bilak va yelka harakatlarini asarga mos holda "o'ynatish": yengil raqs ("Bahor keldi"), o'ynoqi raqs ("Ufor"), jadal raqs ("Polka"), ohista, ravon, mayin raqs ("Bahor vals'i") va hk. Chapaklar, qarsaklar, oyoq do'pillatishlar harakat elementlarining eng oddiylaridandir. Ular o'quvchiga kuy ritmlari, nota cho'zimplari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, o'zbek xalq kuylari "Do'loncha" va "Chertmak" asarlariga chapakda jo'r bo'lish orqali bolalar "Do'loncha" quyidagi tovushlar cho'zimi "Chertmak" quyidagi cho'zimplarga nisbatan qisqaroq ekanligi hamda qisqa tovushlar yugurish uchun, uzunroq tovushlar qadam tashlashga qulayligini his etadilar. Bu kuylarning ritmik xususiyatlarini taqqoslab, o'quvchilar musiqa xarakteri va uning ifoda vositalari o'zaro bog'liqligini aniqlaydilar.

Harakatlar yordamida o'quvchilarda bir qator musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllantirish mumkin.

Ikki yoki uch hissali o'lchov haqidagi tasavvurni shakllantirishga qaratilgan mashqlar:

1) bunda o'quvchilar turgan holda 2/4 o'lchovidagi musiqaga oyoq uchida ko'tarilib va pastlab harakat bajaradilar, yoki

2) 2/4 o'lchovidagi musiqaga kift va yelkalarini boshga qarab ko'taradilar va o'z holiga tushiradilar;

3) 3/ 4 o'chovidagi musiqaga esa - birinchi hissaga yengil yarim o'tiradilar va «uch» ga turadilar va hk. (Barcha harakatlarni bolalar o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan musiqa ostida bajaradilar).

Tovush balandligi eshituvini shakllantirishga qaratilgan harakatti mashqlar:

1) bolalar ko'zlarini yumib o'tiradilar va tovushlar balandligi yoki cholg'ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakati belgilar yordamida ko'rsatadilar. Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga - qo'l bilaklari, doira jarangiga bolalar doirada ijroga taqlid qilib ko'rsatadilar.

2) o'rta registrdagi tovush eshitisla, bolalar ko'krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdagi tovush chalinsa - boshlari uzra chapak chaladilar.

3) ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qismli asardagi registrlarni taqqoslashda qo'llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o'rta registrdagi esa - tanani harakatlantiradilar va hk. Bunda bir o'quvchining harakatlariga ikkinchi o'quvchi oddiy cholg'uda ritmik jo'r bo'lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshiriladi.

Musiqa tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan musiqiy-ritmik harakatlari:

1) o'qituvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqa ostida yurish yoki chopish (sakrash);

2) hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi - quyon, it va hk.

Bunday va bunga o'xshash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida o'qituvchi bir qator musiqiy tasavvurlar va bilimlar doirasini (dinamika, musiqa shakti, musiqiy jumla, tovush yo'nalishi va hk.) tarkib toptirishi boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

O'quvchilarga ular tinglanayotgan va kuylayotgan musiqalari mazmuni va harakteriga mos keladigan raqs va musiqiy-ritmik harakatlarni tanlash, topish va mustaqil ijro etish taklif etilsa, bunday vazifalar ularda ijodkorlik qobiliyatlarini faollashtiradi, badiiy didni rivojlantiradi. Bu vazifalarni osonlashtirish maqsadida mazmuni va harakat ketma-ketligini namoyon qiluvchi

qo'shiq va dasturiy musiqa asari qo'llaniladi. Sh.Najmiddinovning "Bolalar va g'ozlar", T.Toshmatovning "Ayiqpolvonlar bog'chasi", o'zbek xalq qo'shig'i "Boychechak", T.Xusayning "Jo'jalarim", A.Mansurovning "Piyoda askarlar qo'shig'i", P.Chaykovskiyning "Yog'och soldatchalar marshi" va hokazo asarlarni keltirish mumkin. O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Ijro paytida o'qituvchi bolalarga harakatlarda ifodaviylikka erishish, ularni yaxshiroq bajarish yo'llarni ko'rsatib boradi. Musiqiy material tanlar ekan, musiqa o'qituvchisi qaysi asarda tayyor kompozitsiyasini qo'llash mumkin, qaysi asarni esa bolalarning o'zlarini ijod qilib, harakat va raqs elementlarini topishlari uchun mo'ljallash kerakligini aniqlaydi. Bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida ularda tashabbuskorlikni, qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirib borish muhim ahamiyat kasb etad.

Maktab o'quvchilarining aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishida raqs, musiqali o'yin hamda musiqa bilan harakatlar bajarish katta ahamiyatga ega. Musiqiy faoliyatning bu turlari bolaning har tomonlama o'sishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi:

Birinchidan, uning musiqiy o'quvi, ayniqsa ritm tuyg'usi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi. Chunki, har qanday harakat turi musiqa ritmi ostida bajariladi. Harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqa ohanglari o'quvchilar xotirasida to'rg'un saqlanadi.

Ikkinchidan, yuqorida aytganimizdek, raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlikni, chaqqonlikni rivojlantirib badanni chiniqtiradi, o'quvchilar qomatini to'g'ri o'sishiga katta yordam beradi.

Uchinchidan, musiqa asarlari o'quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg'otadi, turlicha kayfiyatlar hosil etib, uning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bular bolaga harakat sxemalarini badiiy ishoralari bilan ifodalashga yordam beradi. Demak, musiqa bilan bajarilgan harakat, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish o'quvchilarning aqliy va estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega ekan. Musiqa, raqs va o'yinlar kichik yoshli o'quvchilarga tez ta'sir etadi.

Shuning uchun quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o'yinlar har bir bolaning e'tiborini o'ziga tortadi. Binobarin, musiqa madaniyati darsi davomida o'quvchilarning musiqiy ritmik harakatlari faoliyatini amalga oshirishning muhimligi ham ahamiyatli ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan olamga dong taratgan. Ammo maktab ta'limi-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajada ekanligini nazarda tutsak, unda musiqa madaniyati darsi mazmunida milliy raqs usullarini o'quvchilarga yoshligidan o'rgatib borish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi. Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi (ijro eta olishi) va darsda qo'llash usullarini puxta bilishi bugungi davr talabidir. Raqs va musiqali harakatlar o'quvchilarning musiqiy-o'quv qobiliyatlari hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. O'quvchilarning ritm tuyg'ulari musiqa bilan bajariladigan turli xil harakatlar- raqs, o'yin kabi turlicha ifodali harakatlar elementlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Har qanday harakat turini yangrayotgan musiqam his etib, uning ritm, takt va jumllariga e'tibor berib, mantiqiy harakat kompleksini yaratib ijro etishga katta ahamiyat berish lozim. Dasturda boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darsida raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rin berilgan. Zero, bu faoliyat o'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni, xususan, ritmusul tuyg'usi hamda asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham zarurdir.

1-sinfda o'quvchilar darsning ritmik harakatlarini bajarish, raqs tushish qismida musiqiy tovushlarning baland va pastligini qo'l harakati (yuqoriga ko'tarish va pastga tushirish) orqali ifodalashadi. Aytim mashqlari, "Andijon polkasi", "Chittigul", "Pianino" kuylari asosida marsh musiqasiga qadam tashlash (F.Nazarovning "Marsh", "Asp bo'laman", "Bahor keladi") kabi kuylarga raqsqa tushishadi. Shuningdek "Ufori", "Duchava" singari kuylarga mos harakatlarni hajarishadi. To'rtinchi chorakka kelib, sinf aytimiga dirijyorlik qilib, ("O'quvchilar va g'ozlar") boshqarishni mashq qilishadi.

2-sinf davomida o'quvchilar mazkur faoliyat bo'yicha bir joyda turib, musiqaga mos harakatlarni bajarish, marsh musiqasiga mos qadam tashlash ("Usmoniya", "Qari navo", "Marsh") va qo'l bilan raqs kuylariga xos ifodali harakatlar bajarish "Oftobjon-o'rtoqjon" kuyi, musiqa tavsiflariga mos raqs harakatlari ("Olmani otdim", "Fabrika") musiqali o'yin ifodalarini ("Inoq o'ynaymiz") bajarish amalga oshiriladi.

3-sinfda esa o'quvchilar musiqalarga mos raqs harakatlarini topib, raqsga tushish ("Olmani otdim", "Jonon" va boshqa raqsona kuylarga) harakatlari bajariladi. Darsning ushbu faoliyat turini o'tkazishda musiqiy cholg'u asboblardan unumli foydalanish muhim rol o'ynaydi. Xususan milliy raqslarni, masalan, "Chertmak", "Ufor", "Andijon polkast", "Jonon" va boshqalarni o'rgatishda xalq cholg'u asboblardan foydalanishda hirinchidan o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Xalq cholg'u asboblardan unumli foydalanish, o'quvchilarda tembr o'quvi yaxshi rivojlanadi, ikkinchidan o'quvchilar milliy musiqa asboblari bilan tamishib boradilar. Musiqa madaniyati darsida musiqiy ritmik harakatlarni bajarish faoliyati o'quvchilar ritmik tuyg'ularini rivojlantiradi. Zotan, raqs va o'yin ham turlicha ifodali harakatlar elementlarini o'zida mujassamlashtirgan. Har qanday harakat turlicha yangrayotgan musiqani his etib, uning ritm, takt va jumlariga e'tibor berib, mantiqiy harakatlar majmuini yaratib ijro etishga alohida ahamiyat berish lozim hisoblanadi. Marsh ostida o'quvchilar harakat qilishlarida musiqa sabog'i bilan birgalikda oyoq tashlab yurishga o'quvchilarni o'rgatib borish lozim.

Musiqa darsi davomida o'qituvchi musiqa asarining tuzilishiga binoan harakat elementlari mujassamlangan raqslarga, ularni o'rgatishga alohida e'tibor berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, ikki qismli musiqaga mos ikki qismli, uch qismligiga xos tarzda uch qismli raqslar qo'yish kerak bo'ladi. Misol uchun o'zbek xalq raqsi "Andijon polkasi"ni olaylik. O'qituvchi mazkur musiqani o'rgatishda, o'quvchilarga mos chaqqon harakatlarga xos raqs shaklini tanlashi mumkin. O'qituvchi sinf imkoniyatlarini hisobga olib, "Andijon polkasi"ni bir

oz qisqartirib katta avjini istisno qilgan holda ikki qismli to'la

shaklda chalib, uch qismli qilib ham o'rgatishi mumkin. Demak, raqsnı musiqaning mantiqiy qismlariga ko'ra harakat elementlarini tanlab qo'yishiga to'g'ri keladi. O'yin va raqslar o'rgatishda mashq katta yordam beradi. Zero, har qanday raqs va o'yinlar aniq detallardan tashkil topgan bo'ladi. Shuning uchun ba'zi o'yin va raqslarni o'rgatishdan avval ular tarkibidagi ayrim harakat elementlarini oldindan mashq sifatida o'rgatilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Raqs va o'yinlar qo'yishda o'quvchilar ijodiga ham e'tibor berish shart.

Ma'lumki, o'quvchilar kattalarga taxlid qiladilar va ko'pincha o'qituvchilar tomonidan o'rgatiladigan o'yin va raqslarni uning shaxsiy ijodi, deb ham tushunadilar. Shuning uchun ham o'quvchilar o'qituvchiga taxliddan o'zlarini ham "yangi" raqslar yaratishga intiladilar. Sinf o'quvchilari orasida raqs tushishga moyil o'quvchilar, iqtidorlilar ham uchraydi, albatta. O'qituvchi ushbu faoliyatni boshqarishda shunday o'quvchilar raqsidan namuna sifatida foydalanishi mumkin. Shunday qilib, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish musiqi madaniyati darsida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, darsning ushbu faoliyat turiga hamisha ham yetarli e'tibor berilavermaydi. Natijada dars elementlari, faoliyatlar majmui to'liq bo'lmay, mashg'ulotlarda qo'yilgan maqsadlarga yetishish qiyinlashadi va bu o'z o'rnida darslarning zerikarli, passiv o'tilishiga olib keladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Musiqiy ritmik harakatlarni sahnalashtirayotganda musiqi o'qituvchisi nimalarga e'tiborga olishi lozim
2. Musiqiy ritmik harakatlarni sahnalashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish qanchalik muhim deb hisoblaysiz?
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning musiqiga bo'lgan qiziqishini oshirishda ritmik harakatlarning o'rnini haqida o'z fikrlaringizni bildiring.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Maxsus tanlab olingan musiqiy ritmik mashqlar asosida bolalarda musiqiy eshituv, xotira, diqqat, ritm tuyg'usi, plastik ifodali harakatlarni rivojlantirish g'oyasi muallifi ko'rsatilgan qatorni belgilang?

- a. Jak Dalkroz
- b. Ye. Kononova
- c. N. Vetlugina

2. Organizmning umumiy funktsional faoliyatiga musiqaning ijobiy ta'sirini isbotlab bergan olimlar ko'rsatilgan qatorni toping?

- a. I. Sechenov, B. Teplov
- b. N. Aleksandrova, M. Rumer, Ye. Kononova
- c. N. Vetlugina, M. Palavandishvili

3. Musiqi tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan musiqiy-ritmik harakatlar qanday turlarga bo'linadi va ular qaysilar?

a. Ikki turga bo'linadi: o'qituvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqi ostida yurish yoki chopish (sakrash) va hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi - quyon, it

b. Ikki turga bo'linadi: o'qituvchi chalayotgan yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqi ostida yurish yoki chopish (sakrash) va tabiat manzaralariga taxliq qilish.

c. Ikki turga bo'linadi: hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi - fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi - quyon, it kabilar va tabiat manzaralariga taxliq qilish.

4. Musiqiy ritmik harakatlar yordamida o'quvchilarda shakllantirish mumkin bo'lgan musiqiy jihatlarni ko'rsatilgan qatorni toping?

a. Ikki yoki uch hissali o'lchovi, tovush balandligi eshituvi, Musiqi tempi haqidagi tasavvurlari

b. Musiqi tempi haqidagi tasavvurlari

c. Ikki yoki uch hissali o'lchovi, tovush balandligi eshituvi,

5. 3-sinfda musiqiy ritmik mashqlarni qilish uchun qanday asarlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi?

a. Milliy va rasga mos harakatlarni o'z ritmida mujassamlashtirgan asarlarni

b. Oddiy qo'l va oyoq mashqlariga mos ritmdagi asarlar

c. Gavda qo'l va oyoq mashqlarini

GLOSSARIY

Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - shaxsa axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya - shaxsa tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Baho - ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga

nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim olish - borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish - ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Boshlang'ich ta'lim - o'quvchilarga murakkab bo'lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o'qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarsi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi - boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ularga ta'lim berish, ularning o'ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Verbal - bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Davlat ta'lim standarti - 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars-bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) - (yunoncha «didaktikos» "o'rgatuvchi", «didasko» - "o'rganuvchi") - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faolligi mazmuni, ta'lim maqsadi, shakli, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) - ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» - yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) - ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin - o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimai bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jamoa an'analari - jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

Idrok - aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, histuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Izohlash (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash - uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarashi.

Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeahodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash - mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash

hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta'lim bosqichi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yurtdik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Uzluksiz ta'lim - malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish mubitini o'z ichiga oladi;

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ko'nikma - shaxsning muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ko'rgaznali metodlar - predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim olish) mazmuni) - ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabdan tashqari ta'lim - madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Materialni og'zaki bayon qilish metodlari - o'quv material mohiyatini og'zaki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzası kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Metod-yunoncha tarjimai «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika(fan sifatida) - xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Nafosat didi - shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi.

Nafosat madaniyati - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Nafosat ongi - go'zallik, go'zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg'usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya- lotincha «estezio» go'zallikni his qilaman) - o'quvchilarni voqeyilik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) - ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogik mahorat - bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlari oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik texnologiya - ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat - ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llabquvvatlash usuli.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Sinf - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

Suhbat - savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Tamoyil (yunoncha «principiump») - biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» - yo'l) - tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Ta'lim - o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim va tarbiya mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'ektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'ektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim jarayoni - o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim metodlari - ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) - ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'lim tizimi - davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'limtarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Test - aniq maqsad asosida muayyan hoilat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Tushuntirish - o'quv materialini mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To'garak - o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo'shimcha ta'lim shakli.

Usul - muayyan o'quv materialini o'zlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy ta'lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta'lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Estetik tarbiya - o'quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini idrok etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

O'zlashtirish - ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T: O'zbekiston, 2003 y

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori. 18.01.2021.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 214-sonli qarori. 27.06.2016.

4. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RO - 637-sonli qonuni. 23.09.2020.

5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" - Toshkent. "Ma'rifat"1997.

6. O'zbekiston Davlat Ta'lim Standarti. 5141000 - musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar. - Toshkent, "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi". 2008.

7. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa, 1999.

8. Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. Musiqa, Toshkent. 2010.

9. Sh.M. Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent, "O'zbekiston" -2017

10. Sh. M. Mirziyoyev. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" - Toshkent. "Nashriyot uyi tasvir" 2021.

11. Sh. M. Mirziyoyev. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir" - Toshkent. "Tasvir" 2021.

12. Sh. M. Mirziyoyev. "Ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni 06.11.2020.

13. Sh. M. Mirziyoyev. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi to'g'risidagi qarori. 19.03.2019

14. I. A. Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - T: Ma'naviyat, 2008 y.

15. I.A. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T: O'zbekiston, 1999 y.
16. I.A. Karimov Yuksak ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi. Asarlar 7-tom. – T: O'zbekiston, 1999 y.
17. N.Norxo'jayev, H.Nurmatov "Musiq" 1-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2019.98-bet.
18. N.Norxo'jayev, H.Nurmatov. "Musiq" 2-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2016. 70-bet.
19. N.Norxo'jayev, H.Nurmatov. "Musiq" 3-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2016. 79-bet.
20. O.Ibrohimov. "Musiq" 4-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom".2020. 90-bet.
21. A.Mansurov., D.Karimova. "Musiq" 5-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2020. 78-bet.
22. S.Begmatov, D.Karimova., Q.Mamirov "Musiq" 6-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2008. 90-bet.
23. O.Ibrohimov, J.Sadirov. "Musiq" 7-sinf. Toshkent. "G'afur G'ulom" 2017.110-bet.
24. G.Sharipova "Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitish metodikasi" ma'ruza matni Toshkent, TDPU, 2001.
25. J.Yarashev, D.Murodova "Musiq o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Durdona" Buxoro 2021
26. G.M.Sharipova, D.F.Asamova, Z.L.Xodjayeva "Musiq o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari" O'quv qo'llanma Toshkent 2014.
27. G. M. Sharipova "Musiq va uni metodikasi" O'quv qo'llanma "Turon-Iqbol" Toshkent 2006
28. M.Xo'jayeva "Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma 2-nashr Toshkent 2008
29. T.Ortiqov "Musiq o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma "Muharrir" Toshkent 2010
30. R.G'.Qodirov "Musiq psixologiyasi"(Ma'ruzalar kursi) O'quv qo'llanma Musiq Toshkent 2005
31. Z.U.Mamirova "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyalari" O'quv uslubiy majmua Toshkent-2021

32. O'.Asqarova, M.Nishonov -"Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi" Toshkent-2019

33. Q.B.Panjiyev. "O'zbek xalq musiqa ijodi"O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021.

34. A.Sh.Xasanov "Musiq tarbiyasi" – Toshkent. 1993.256-bet.

35. Q.P.Panjiyev, Karimova K.A."Musiq madamiyati fani o'qituvchisi uchun" O'UM – Toshkent 2017.

36. B.M.Madrimov. "Birgalikda kuylaymiz" I-kitob. Buxoro 2017.

37. D.A.Karimova. "Musiqiy pedagogik mahorat asoslari" – Toshkent. "Iqtisod-Moliya"2008

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA "MUSIQA MADANIYATI" FANI O'QITILISHINING NAZARIY ASOSLARI	5
1.1	Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.	5
1.2	Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa tarbiyasining roli	12
1.3	"Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonun va uning mazmuni. Davlat ta'lim standartlari asosida musiqa ta'limi.	21
II BOB	"MUSIQA MADANIYATI" DARSLARI O'QUV FANI SIFATIDA	30
2.1	Musiqa san'atining maktablarda o'quv fani sifatida qo'llanilishi	30
2.2	Musiqa darslarining o'ziga xosligi	34
2.3	Musiqa o'qituvchisi va unga bo'lgan talablar	39
2.4	Musiqa madaniyati darslarining xususiyati va strukturasi.	50
2.5	Musiqa darsining umumdidaktik tamoyillari	54
2.6	Musiqa o'qitishda metodlar va ularning turlari	69
2.7	Musiqa darslarida kompyuter texnologiyalari va musiqiy dasturlardan foydalanish	77
2.8	O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash	86
III BOB	"MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINI TASHKIL ETUVCHI MUSIQIY FAOLIYATLAR	95
3.1	Musiqa idroki (musiqa tinglash) – darsning yetakchi faoliyati	95
3.2	O'quvchilarning musiqiy idrokini rivojlantirish va tinglash ko'nikmalarini shakllantirish.	100
3.3	Jamoa bo'lib kuylash – bolalar musiqa faoliyatining ommaviy shakli	109
3.4	Bolalar ovoz apparati va uning ishlash tamoyillari	116

3.5	Musiqqa darslarida musiqqa savodi faoliyati mazmuni	122
3.6	Musiqqa ijodkorligi hamda cholg'uga jo'r bo'lish faoliyatlarini tashkil etish	128
3.7	Musiqqa darsda musiqaviy ritmik harakatlarda foydalanish	135
	GLOSSARIY	145
	ADABIYOTLAR RO'YXATI	153

XO'JAGELDIYEVA MAHFUZA ERGASH QIZI

MUSIQA O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

Toshkent - "INNOVATSIYA-ZIYO" - 2023

Redaktor: Xolsaidov Farxod

Bichimi 60x90. "Cambria" garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 10. Nashr bosma tabog'i 10.

Adadi 285 nusxa.

"INNOVATSIYA-ZIYO" MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy ko'chasi, 5-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot roziligisiz chop etish ta'qiqlanadi.

ISBN 978-9910-9902-8-1



9 789910 990281



"INNOVATSIYA-ZIYO"